

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

SHAYMANOVA YULDUZ TOSHNIYAZOVNA

O‘ZBEK TILI

Veterinariya ta’lim sohasining rus guruhlarida tahsil olayotgan
talabalar uchun o‘quv qo‘llanma

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Nashr matbaa markazi, 2024**

UO'K: 811.512.133

KBK: 81.633.1

SHAYMANOVA YULDUZ TOSHNIYAZOVNA.

O'zbek tili. O'quv qo'llanma. – Samarqand: Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nashr matbaa markazi, 2024. 168 b.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining buyrug'iga asosan nashr etishga tavsiya etildi.

Shaymanova Y.T. O'zbek tili (rus guruhlari uchun).

O'quv qo'llanma

Taqrizchilar:

1. **M.A.Xalova** – Samarqand davlat chet tillar instituti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti, PhD.
2. **S.H.Ulliyeva** – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti o'zbek, rus tillari va adabiyoti kafedrasida mudiri, katta o'qituvchi.

Ushbu o'quv qo'llanma 840000 – Veterinariya ta'lim sohasi rus guruhlarida tahsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, o'quv dasturidagi 30 ta mavzuni qamrab oladi. Har bir mavzu nazariy ma'lumotlar, mavzuga oid savollar hamda mustahkamlash uchun mashq va topshiriqlar asosida shakllantirilgan. Mavzuni mustahkamlash uchun berilgan mashq va topshiriqlar veterinariya sohasiga doir ilmiy matnlar asosida ishlab chiqilgan. Qo'llanmada veterinariya va bugungi kunning dolzarb mavzulari bilan bog'liq matnlar bilan birgalikda fonetika (nutq tovushlari unli va undosh tovushlar, tovush o'zgarishlari), leksikologiya (tilning boyish manbalari, iboralar, maqollar, hikmatli so'zlar, sinonimlar va ularning turlari, ijtimoiy leksika), orfografiya (imlo qoidalari), grammatika (so'z yasalishi, so'z turkumlari, qo'shimchalar va ularning turlari, sodda va qo'shma gap turlari), nutq uslublari, shuningdek, nutq madaniyati kabi mavzular yuzasidan nazariy ma'lumotlar, rang-barang mashq va topshiriqlar berilgan.

O'quv qo'llanmada 840000 – Veterinariya ta'lim sohasining rus guruhlarida tahsil olayotgan talabalar uchun qo'llanishi borasidagi eng zarur, dolzarb matn, mavzular va materiallar qamrab olingan, shuningdek bugungi kun talablari nuqtayi nazaridan yoritib berilgan.

ISBN: 978-9910-640-08-7

KIRISH

O‘zbek tili O‘zbekiston Respublikasining davlat tilidir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21- oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son farmoni, 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-son farmoni qabul qilindi. Mazkur me‘yoriy hujjatlarda o‘zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro‘-e‘tiborini tubdan oshirish, unib-o‘tib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an‘ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to‘laqonli joriy etishni ta‘minlash, O‘zbekistondagi millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o‘zbek tilini o‘rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, o‘zbek tili va til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalish va vazifalarini hamda istiqboldagi bosqichlarini belgilash asosiy maqsad qilib belgilangan. 2020–2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasida nazarda tutilgan vazifalar barcha soha vakillarining, ayniqsa, filolog o‘qituvchilarning mas‘uliyatini oshirishi tabiiy. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 10-sentabrdagi 311-sonli qarori bilan “Davlat tili haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining amalga oshirilishini ta‘minlash Davlat dasturi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan yangi tahrirda tasdiqlandi. Davlat dasturiga asoslanib O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi 1996-yil 14-noyabrda O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida” (yangi tahrirda)gi Qonunini bajarish tadbirlari to‘g‘risida 267-sonli buyruq chiqardi. Unda o‘quv yurtlarida xodimlar va talabalar uchun “Davlat tilida ish yuritish, hujjatchilik va atamashunoslik” kurslarini 1997-yildan e‘tiboran doimiy ravishda tashkil etish qat’iy qilib qo‘yildi. Jumladan, konsepsiyada ustuvor vazifa sifatida belgilangan mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalarida davlat tili imkoniyatlaridan to‘liq va to‘g‘ri foydalanishga erishish; ta‘lim tashkilotlarida davlat tilini o‘qitish tizimini yanada takomillashtirish, uning ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish; davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish masalalari nafaqat filologik soha vakillariga, balki hayotimizning barcha jabhasida faoliyat yuritayotgan har bir fuqaroga tegishli ekanligi shubhasizdir.

Bu qonun va loyihalar o'z navbatida o'zbek tilini o'qitishni tubdan isloh qilish, yangi o'quv dasturlari, darsliklar va o'quv qo'llanmalari yaratish, o'zbek tili ta'limining yangi, samarali usullarini ishlab chiqish va ta'lim jarayoniga tadbiq etish vazifalarini qo'ygan.

Ushbu o'uv qo'llanmani yaratishdan ko'zlangan maqsad talabalarning quyi ta'lim tizimlarida egallagan bilim va malakalarini nutq jarayonida kompleks holda tatbiq eta olishlariga erishishdir. Shu maqsadda ushbu qo'llanmada nutq o'stirishga qaratilgan sohaga doir xilma-xil matnlar, qiziqarli mashqlar kiritildi. Shuningdek, o'quv qo'llanmaga nutq va bog'lanishli matn turlari, nutq uslublari va ularning xususiyatlari bo'yicha nazariy ma'lumotlar va maxsus tizimli mashqlar kiritildi.

Oliy ta'lim muassasalarining rus guruhlarida "O'zbek tili" fani talabalarga amaliy mashg'ulot sifatida o'qitilmoqda. Mazkur fanning o'qitilish maqsad va vazifalarini hisobga olgan holda ushbu o'quv qo'llanma tayyorlandi. Qo'llanmada keltirilgan materiallar foydalanuvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish, ma'naviy va ruhiy jihatdan yetuk shaxslar qilib tarbiyalashda yordam berishi ko'zda tutilgan.



1-MAVZU. “DAVLAT TILI HAQIDA”GI QONUN VA UNING IJROSI.

“O‘ZBEK TILI” FANINING MAQSADI VA VAZIFASI.

O‘zbek tili O‘zbekiston Respublikasining davlat tilidir.



Topshiriq. Matn bilan tanishib chiqing va quyidagi savollarga javob bering.

1. «Davlat tili haqida»gi qonun qachon qabul qilindi?
2. Siz «Davlat tili» deganda nimani tushunasiz?
3. «Davlat tili haqida»gi qonun necha moddadan iborat edi?
4. Qonunning yangi tahriri qachon qabul qilingan va necha moddadan iborat?
5. Nima uchun davlat tilini barcha bilishi kerak?

DAVLAT TILI TO‘G‘RISIDA

«Davlat tili» deganda shu davlat hududida asosiy aloqa-aralashuv vositasi bo‘lgan til tushuniladi. Barcha davlat hujjatlari davlat tilida yoziladi, yig‘inlar, anjumanlar, uchrashuvlar shu tilda olib boriladi. Har bir davlat o‘z davlat tilining rivoji, shu tilning sofliqi, boyib borishini ta‘minlaydi, davlat tilini o‘rganish va o‘qitish uchun shart-sharoitlar yaratib beradi.

O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir. «Davlat tili haqida»gi qonun 1989-yil 21-oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XI sessiyasida qabul qilingan bo‘lib, u 30 moddadan iborat edi. Mazkur tarixiy qonun qabul qilingan paytda O‘zbekiston Respublikasi hali sobiq sho‘rolar davlati tarkibida bo‘lib, birgina qonun qabul qilish bilan o‘zbek tilining mamlakat ichida va undan tashqaridagi obro‘-e‘tibori, xalqaro mavqeyini tezdan tiklash qiyin edi. Shuningdek, mazkur qonunda o‘zbek tili bilan bir qatorda rus tiliga ham millatlararo muomala tili sifatida bir talay imtiyozlar ham berilgan ediki, bu hol ham o‘zbek tilining davlat tili sifatida keng miqyosda qo‘llanishiga biroz bo‘lsa-da, soya tashlar edi. Shuning uchun ham istiqloлга erishilgach, qonun qayta ishlanib, davr talabidan ortda qolayotgan moddalar yangilari bilan almashtirildi, mustaqil davlat hayotiga mos keluvchi yangi tahrirda 1995-yil 21-dekabrda qabul qilindi. Avvalgi qonun 30 moddadan iborat bo‘lgan bo‘lsa, yangi tahrirdan so‘ng u 24 moddaga keltirildi. Qonunning 1-moddasidayoq “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir”

deyilgan. Mazkur moddaning o‘ziyoq respublikamizda ish yuritish – hujjatlar bilan bog‘liq barcha ishlarning davlat tilida olib borilishi lozimligini talab etadi. Respublikamizning har bir fuqarosi o‘z ona tili bilan bir qatorda O‘zbekiston Respublikasining davlat tilini ham bilishi kerak. Davlat tiliga hurmat va e’tiborning birinchi belgisi shu tilda to‘g‘ri, chiroyli so‘zlash va yozishdir.



MUSTAHKAMLASH

1-topshiriq. “Davlat tili haqida”gi qonun moddalarini diqqat bilan o‘qing va rus tiliga tarjima qiling.

2-modda. O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi respublika hududida yashovchi millat va elatlarning o‘z ona tilini qo‘llashdan iborat konstitutsiyaviy huquqlariga monelik qilmaydi.

7-modda. Davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o‘zbek adabiy tilining amaldagi ilmiy qoidalari va me’yorlariga rioya etiladi.

Davlat o‘zbek tilining boyitilishi va takomillashtirilishini ta’minlaydi.

15-modda. O‘zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslar o‘z millatidan qat’iy nazar, o‘z ismini, ota ismi va familiyasini milliy-tarixiy an’analarga muvofiq yozish huquqiga egadirlar.

22-modda. Respublikaning ma’muriy-hududiy birliklari, maydonlari, ko‘chalari va geografik obyektlarining nomlari davlat tilida aks ettiriladi.



Savol va topshiriqlar:

1. Har bir moddani rus tiliga o‘giring. So‘zlarning ruscha va o‘zbekcha talaffuzini qiyoslang.
2. Notanish so‘zlarni aniqlab, lug‘at yordamida ma’nolarini izohlang va daftaringizga yozib boring.
3. 22-modda bo‘yicha respublikamizda, shahrimizda, viloyatimizda yuz bergan o‘zgarishlar haqida kengroq so‘zlab bering.

2-topshiriq. Matn bilan tanishing.

Til – ijtimoiy hodisa, millatning asosiy belgilaridan biri. Dunyoda xalqlar ko‘p. Lekin har bir xalq, avvalo, o‘z tili, milliy urf-odati va an’analari, o‘ziga xos turmush tarzi bilan ajralib turadi. Binobarin, xalqning, millatning o‘zligini namoyon qilishda o‘z tilining o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Til har bir millatning ulkan boyligi, benazir qadriyati va bebaho mulki hisoblanadi. Har bir xalq, har bir elat, o‘zi

hurmat va ehtirom qiladigan tilga ega. Tilda ana shu tilning ijodkori bo'lgan xalq, elatning tarixi va madaniyati aks etadi. Ayni zamonda, til ijtimoiy taraqqiyotda ulug'vor ahamiyat kasb etadi. Til – har bir millat o'zligining ajralmas belgisidir.

Lug'at

beqiyos – несравненный

benazir – несравненный

qadriyat – ценность

ehtirom – почтение


ulug'vor – величественный



Savol va topshiriqlar:

1. Tilning ijtimoiy ahamiyati nimada?
2. Til millatning asosiy belgisi ekanligini misollar bilan izohlashga harakat qiling.
3. Nima uchun til millatning boyligi sanaladi?
4. Ma'lum xalq rivojida tilning o'rni qanday?
5. O'zingiz yoqtirgan she'rni o'z tilingizda ifodali o'qib bering. Mazmunini o'zbek tilida bayon qiling.

3-topshiriq. Quyida berilgan tushunchalar asosida tilning ijtimoiy hodisa ekanligini ochib beruvchi xususiyatlarni sanang va o'z mulohazalaringiz bilan to'ldiring.



4-topshiriq. Matn bilan tanishing.

Dunyoda taxminan 7000 ga yaqin til bor. Bu tilning ayrimida bir necha o'n, hatto yuz millionlab kishi gaplashsa, ba'zisidan bir necha ming

kishigina foydalanadi, xolos. Masalan, Kongoda aholi 500 tilda, Indoneziyada 260 tilda, Sudanda 117 tilda gaplashadi. Xitoy tilida hozir bir milliardga yaqin kishi so‘zlashsa, chukot va vele tilida bor-yo‘g‘i bir necha ming kishi muloqotda bo‘ladi. Kavkaz tog‘ida joylashgan Dog‘istonda 1 milliondan ortiq kishi bo‘lib, ular 40 ga yaqin tilda so‘zlashadi. Yangi Gvineyada deyarli har bir qishloq aholisi o‘z tiliga ega. Dunyodagi 200 tilning har birida 1 milliondan ortiq, 70 tilning har birida 5 milliondan ziyod, faqat 13 tilning har birida 50 milliondan ortiq kishi so‘zlashadi.

Dunyoda qo‘llanish doirasi juda keng, boshqa til egasi ham foydalanadigan til **xalqaro til** yoki jahon tili deyiladi. Hozir rasmiy tan olingan **6 ta** xalqaro til mavjud: **ingliz, ispan, rus, xitoy, arab va fransuz tili.**

O‘zbek tili O‘zbekiston, Tojikiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, Afg‘oniston hududida keng tarqalgan. Hozirgi kunda o‘zbeklar Afg‘oniston, Saudiya Arabistoni, Turkiya, Eron va boshqa davlatda ham istiqomat qiladi. Bugungi kunda butun dunyo bo‘yicha 25 milliondan ortiq, ba’zi manbada ko‘rsatilishicha, 40 milliondan ortiq kishi o‘zbek tilida gaplashadi.

➤ **Matn asosida yangi so‘zlar lug‘atini tuzing.**

➤ **Suhbat. Savol va topshiriqlar:**

- Qanday xalqaro tillarni bilasiz?
- Qaysi xorijiy tillarni bilasiz?
- Ko‘p tilni bilishning foydasi haqida gapiring.
- O‘zingiz bilgan chet tillarni sanang. Tengdoshingiz bilan o‘rgangan chet tilingizda muloqot qilib ko‘ring.

5-topshiriq. Quyidagi gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1. O‘zbek tili – O‘zbekiston Respublikasi aholisining ko‘pchiligi bo‘lmish o‘zbek xalqining ona tilidir.

2. O‘zbek tili O‘zbekiston birligi va yaxlitligi, jamiyat jipsligining muhim omili hisoblanadi.

3. O‘zbek tili davlat tili, davlat ramzi, milliy madaniyat va ma’naviyatni ifodalovchi hamda ularni kelajak avlodga yetkazuvchi muhim muloqot vositasidir.

4. O‘zbek tilining xalqaro miqyosdagi nufuzi oshib, faol muloqot vositasiga aylanib bormoqda.

5. Turli darajadagi rasmiy uchrashuvlar, muzokaralarda tilimiz keng qo‘llanilayotgani, xorijdagi ko‘plab universitetlar, ilmiy muassasalarda

o‘zbek tili markazlari tashkil etilib, ularda ona tilimizni o‘rganishga qiziquvchilar safi tobora ortib bormoqda.

SUHBAT

“Til bilgan el biladi”, – deydi dono xalqimiz. Ushbu hikmatni sharhlang.

Uyga topshiriq. *“Tillar taraqqiyoti va tanazzuli”* mavzusida matn yarating.



2-MAVZU. “O‘ZBEKISTON – YAGONA VATAN”. GRAMMATIKA: O‘ZBEK TILINING TOVUSHLAR TIZIMI: UNLI TOVUSHLAR VA ULARNING IMLOSI.

Topshiriq. Matn bilan tanishib chiqing.

“O‘ZBEKISTON – YAGONA VATAN”.

Vatan ona, Vatan chamandir,
Vatan quyosh, Vatan osmondir.
Vatan she’rdir, Vatan xayoldir,
Vatan tuproq, Vatan iymondir.

Vatan – yagona kenglik. Vatandan tashqarida vatan yo‘q. Mana shuning uchun inson faqat jonajon yurtida o‘zini mag‘rur, xotirjam his qiladi. Vatan sevgisidan Yurak yorug‘, e’tiqod va imon uyg‘oq. Jamiki insoniy jasoratlarning onasi – Vatan. O‘z diyorida kishining qo‘rqishga, bosh egib yashashga haqqi yo‘q. Chunki bu – Vatanga munosib bo‘la olmaslik, yanada yomoni uning sha’nini tahqirlashdir. Vatan ishqini o‘limdan ustun. Qalbida vatan muhabbati bor kishini dunyodagi hech bir yovuz, hech qaysi jallod yenga olmagan. Qiynagan, ayovsiz haqoratlagan, o‘ldirgan, lekin mag‘lub qilolmagan. Vatanni sevish – burch, kurash, zarur chog‘da, hech ikkilanmasdan jonni qurbon qilishdir.

Vatan nima o‘zi? Vatan – ona allasi taralgan, beshiging izlari chizilgan zamin. Ajdodlaring ko‘milgan qabriston, ota – onangning izlari qolgan ko‘chalar, sening lahjangda so‘zlashadigan, qosh-u ko‘zi xuddi sening kabilar yashaydigan qadrdon yer – Vatandir!

Birinchi bor bahorni tanigan, ilk bor varrak uchirgan, birinchi marta hayitlik olgan joying, birinchi o‘qituvchi, birinchi muhabbatingni tanitgan makon – Vatandir!

Tarix, til, xalq, tabiat – biz ularni bitta nom bilan Vatan deb ataymiz. Vatan tuyg‘usi eng ulug‘ tuyg‘u. Har bir inson o‘z vatanini sevadi. Ha, Vatan taqdiri, bu – ona til va muqaddas tarix qismati. Vatan hayoti deyilganda “eng so‘nggi nonin” ham “o‘zi” yemay farzandiga tutgan zahmatkash xalq toleyi, u yashayotgan tabiat sog‘lomligi anglashilishi kerak.

Vatanni bilish – dunyoni bilish, o‘zlikni anglash, har bir insonning butun bashariyat bilan qanchalik bog‘liq, aloqador ekanini tushunish yo‘li ham demakdir.

Vatan – bu bizning go‘zal bo‘stonimiz O‘zbekiston. Yurtimiz doimo biz farzandlari uchun jonsarak ona kabi mehribon. O‘zbekiston dunyoda yagona va har bir shu yurt farzandiman deguvchilar uchun muqaddas dargoh. Vatanimiz, O‘zbekistonimiz, onajonimiz kabi qadrdon, ko‘nglimiz tojidir. Shunday ekan, shu yurt uchun barcha metin yurak bilan qo‘rqmay orzular sari intilmog‘i va har onni mustahkam poydevor bilan qurmoq uchun dadil odimlamog‘i darkor. Biz yoshlar kuchli, bilimli, sog‘lom hamda yuksak ma‘naviyatli bo‘lib ulg‘ayishimiz, siyratimizda ona xalqimiz va Vatanimizga mehr-u muhabbatni sarbaland, yurt ravnaqini ta‘minlashga hissa qo‘shishni sharaf deb biladigan komil inson sifatida voyaga yetishimiz zarur.



“O‘zbekiston millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik sohasida o‘z an‘analariga doimo sodiq bo‘lib, bu yo‘ldan hech qachon og‘ishmasdan ilgari boradi. Mamlakatimizda turli millat va diniy konfessiyalar vakillari o‘rtasida o‘zaro hurmat, do‘stlik va ahillik muhitini mustahkamlashga birinchi darajali e‘tibor qaratiladi. Bu –

bizning eng katta boyligimiz va uni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash barchamizning burchimizdir”, – deydi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev.

Lug‘at

bo‘ston – сад (светящийся)

jonsarak – растерянный

yagona – единичный, единственный

dargoh – дворец, обитель

toj – венец

metin – крепкий, прочный

poydevor – основание, основа, фундамент

dadil – смелый, отважный.

odimlamoq – шагать, ступать

siyrat – внутренний мир

sarbaland – высокий, возвышенный

ravnaq – расцвет, процветание

sharaf – честь

og‘ishmasdan – неуклонно

ko‘z qorachig‘i – зрачок глаза

millatlararo – межнациональный

totuvlik – дружба, мир, согласие

diniy bag‘rikenglik – религиозная толерантность, религиозный простор



Matn asosida quyidagi savollarga javob bering va topshiriqlarni bajaring.

1. Sizning yoshingizda “Vatan” tushunchasi qanday ma’noga ega?

2. “O‘zga yurtda sulton bo‘lguncha, o‘z yurtida cho‘pon bo‘l” maqolining mazmunini izohlang.

3. Vatan oldidagi burchingiz nimada deb o‘ylaysiz?

4. Mamlakatimiz taraqqiyotiga qanday hissa qo‘shish mumkin?

5. “Vatanni asrash” mavzusida partadoshingiz bilan klaster jadvali to‘ldiring va guruhdoshlaringiz bilan o‘rtoqlashing.

1-topshiriq. Quyidagi chiziqlar o‘rnini matndagi mos so‘z va jumalalar bilan to‘ldiramiz.

1. Biz yoshlar _____, _____ hamda
_____ bo‘lib _____ ulg‘ayishimiz _____ kerak.

2. O‘zbekistonimiz, _____,
ko‘nglimiz tojidir.

3. Yurt ravnaqini ta'minlashga _____ sharaf deb bilishimiz kerak.

4. Bu – bizning _____ va uni _____ asrab-avaylash barchamizning burchimizdir.



NAZARIY MA'LUMOT

Tayanch tushunchalar: o'zbek tilida tovushlar: unli tovushlar; rus va o'zbek tilida unlilarning ifodalanishidagi farqli jihatlar; unli tovushlar tizimi; talaffuzi va imlosi farqlanuvchi unlilarning xususiyatlari; qator unlilar talaffuzi va imlosi.

Nutq a'zosi yordamida vujudga kelib, ijtimoiy ahamiyatga va ma'no farqlash xususiyatiga ega tovush nutq tovushi deyiladi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida 30 tovush bor. Bu tovush, avvalo, ovoz va shovqinning ishtirok etish darajasiga ko'ra ikkiga bo'linadi: **unli tovush** va **undosh tovush**.

Bo'g'izda paydo bo'lib, og'iz bo'shlig'ida biror qarshilikka uchramay chiqadigan tovush **unli tovush** deyiladi: **i, e, a, u, o', o**.

Unli tovushlarning xususiyatlari:

a) bo'g'iz bo'shlig'ida paydo bo'ladi;

b) sof ovozdan iborat;

d) og'iz bo'shlig'ida hech qanday to'siqqa uchramaydi;

e) uzoq cho'zilish va musiqiy xususiyatga ega;

f) yakka holda bo'g'in hosil qila oladi;

g) urg'u oladi.

Unli tovushlar

O'zbek tilida

i, e, a, u, o', o

Rus tilida

и, у, а, э, ы, о

Talaffuz bilan imlo bir-biriga chambarchas bog'liqdir. Adabiy til qonuniyati asosida to'g'ri yozish qanchalik muhim bo'lsa, to'g'ri talaffuz qilish ham shunchalik zarur. Ammo so'zning talaffuzi bilan yozilishi doim mos kelavermaydi. Buni tovushlarning so'zdagi o'rni va o'zaro ta'siri bilan izohlash mumkin.

O‘zbek tilida ikkita bir xil yoki har xil unlilarning yonma-yon kelish holati kuzatiladi. Bunday unlilar qator unlilar deyiladi: *faoliyat, faol, jamoa, itoat, shoir, majmua, memuar, voqea, doimo, mushoira, badiiy, inshoot, matbaa, mudofaa, mutolaa, manfaat, murojaat, taalluqli, taassurot, taassuf, teleekran*. Qator kelgan unlili so‘zlar boshqa tillardan kirib kelganligi tufayli bunday so‘zlardagi qator unlilarni og‘zaki nutqda yo *bir cho‘ziq unliga aylantirish* (masalan, *muallim – maolim, maorif – moorif*) yoki *qator kelgan unlilar o‘rtasiga ayrim undoshlarni qo‘shish* yo‘li bilan tilimizga moslashtirishga harakat qilinadi (masalan: *doim – doyim, shou – shovu*).

2-topshiriq. Quyida berilgan qoidalar bilan tanishing. Berilgan so‘zlarda nuqtalar o‘rniga mos unlilarni qo‘yib, ko‘chiring.

I tovushi bilan, bir, kir, qirg‘oq, zirapcha, likopcha kabi so‘zlarda qisqa talaffuz etilsa ham, yozuvda *i* harfi bilan yoziladi.

Kunduz, qovun, tovuq kabi so‘zlarda ikkinchi bo‘g‘indagi *u* tovushi *i* kabi aytilsa ham, *u* yoziladi.

 *E* harfi kecha, ekran, ne‘mat kabi so‘zlarda to‘liq talaffuz qilinadi. Telefon, teatr, okean, material kabi so‘zlarda *i* ga monand aytiladi, lekin *e* yoziladi.

O‘ tovushli ko‘l, o‘s, cho‘l, jo‘ra, mo‘tabar kabi so‘zlarda torroq, bo‘ri, xo‘roz, ro‘mol, qo‘rimoq kabi so‘zlarda esa kengroq eshitiladi, ammo har vaqt bir xil shaklda yoziladi.

Mo‘tadil, mo‘jiza, mo‘tabar kabi so‘zlardagi tutuq belgisi yozuvda tushirib qoldiriladi.

Obr...li, ...htiyotkor, er...nchoq, epch...l, ...jar, o‘tk...r, q...rqoq, m...hribon, j...shqin, z...ravon, k...ngilchan, sek...n, s...rgap, q...rqinchli, t...g‘ri, o‘y...nqaroq, t...rakzor, ...kologiya, o‘q...mishli, mehr...bon, eg...zak, t...ntak, ell...k, eht...yotkor, o‘ch...rg‘ich, b...rg, mavq..., ...simlik, q...shloq, qirg‘ov...l, chirmov...q, x...rmon, tov...sh, uyq..., kulg..., do...m.

3-topshiriq. Berilgan juftliklardan to‘g‘ri yozilgan so‘zlarni aniqlang.

tabiyat	tabiat	voqea	voqeya
morif	maorif	sanitariya	sanetariya

zooinjiner	zooinjener	veterenar	veterinar
Tabiy	tabiiy	profilaktika	pirafelaktika
vakum	vakuum	medetsina	meditsina

4-topshiriq. Berilgan qator va qo'sh unlili so'zlarda nuqtalar o'rniga mos harflarni qo'yib yozing va rus tiliga tarjima qiling.

Manf...t, matb..., mutol..., mudof..., muroj...t, t...jjub, t...lluq, t...ssub, t...ssurot, bad...y, t...m, m...sh, m...llim, m...ttar, m...llif, tab...t, z...magazin, m...vin, g...log, j...z, m...sh, shij...t, s...dat.

5-topshiriq. Nuqtalar o'rniga u va o' harflarida mosini qo'yib ko'chiring.

VETERINARIYA XIRURGIYASI

Hayvonlarda ...chraydigan xir...rgik kasalliklarining nazariy asoslarini, asosiy tushunchalarini, xirurgik kasalliklarini aniqlash, davolash va oldini olish tamoyillarini ...rgatadigan fan. Xirurgik kasalliklarning ishlab chiqarish jarayonida oldini olish va ularga qarshi k...rashishning samarali yangi chora-tadbirlarini ...tkazishda xirurgik kasalliklarga qiyosiy tashxis qo'yish, xirurgik operatsiya ...tkazishda kerakli ...s...lni tanlash, xirurgik kasal hayvonlarni k...ratsiya qilish, kasal hayvonni davolagandan keyin kelib chiqadigan asoratlarning oldini olish k...nikmalariga ega bo'lishi xirurgik kasalliklarga t...g'ri tashxis q...yish uchun ...m...miy va x...s...siy tekshirish ...s...llarini q...llash, kasal hayvonni qabul qilish va rasmiylashtirish, operatsion ...s...llar va dori vositalarni q...llash, k...p ...chraydigan barmoq va k...z kasalliklarini davolash va oldini olish tadbirlarini t...zish va ...tkazish, xirurgik asboblarni va ...sk...nalarni tartib va qoidalariga rioya qilib ishlatish malakalariga ega b...lishi va ularni amaliyotga tatbiq etish k...nikmasini hosil qilishdan iborat.

Qo'shimcha o'qish uchun

O'ZBEKISTON JAHONGA YUZ TUTMOQDA

O'zbekistonning mustaqil respublika bo'lganiga ko'p vaqt bo'lgani yo'q. Shu o'tgan qisqa tarixiy davrda respublikani suveren davlat sifatida qaror toptirish yuzasidan ulkan ishlar amalga oshirildi. Hozir O'zbekistonni 165 ta davlat tan olgan. Dunyodagi 120 dan ortiq mamlakat bilan rasmiy diplomatik munosabatlar o'rnatilgan. Toshkentda 35 ta mamlakat o'z elchixonalarini ochgan.

O'zbekiston 1991-yil 2-martda Birlashgan Millatlar Tashkiloti a'zoliciga qabul qilindi.

Shuningdek, O'zbekiston bir qator yetakchi xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlarning ham to'la huquqli a'zolidir. Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari bilan o'zaro munosabatlarni yanada yaxshilashga intilish O'zbekiston tashqi siyosatining muhim yo'nalishi hisoblanadi. O'zbekiston rahbariyati Osiyo, Yevropa va Tinch okeani mamlakatlarining ko'pchiligida rasmiy xizmat safarida bo'lib, o'zaro hamkorlik to'g'risida bitim tuzdilar. Janubiy Koreyaning DAEWOO nomi bilan mashhur bo'lgan korporatsiyasi tomonidan Asakada qurilgan avtomobil zavodi ana shu hamkorlikning samarasidir.

Respublikamiz milliy mustaqillikka erishgach, o'z iqtisodiyotini to'g'ri izga solish, mamlakatni qishloq xo'jaligi mamlakatidan sanoati rivojlangan davlatga aylantirish yuzasidan o'ziga xos dasturi asosida ish olib bormoqda. Bozor iqtisodiyotiga o'tish, albatta, ayrim qiyinchiliklarga olib keladi. Ammo xalqimiz mehnatkash, taraqqiyotga intiluvchan xalq va bu qiyinchiliklarni yengishga qodir.

Biz yashayotgan zaminda tarixda ulug' allomalar, sarkardalar yashab o'tganlar. Biz Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'beklar avlodimiz va kelajakda o'zimiz orzu qilgan rivojlangan davlatni barpo qilamiz. Shu bois, farzandlarimizni kelajakka ishonch bilan qaraydigan, mustaqil fikrlay oladigan, ilm va fan cho'qqilarini egallashga intiladigan qilib tarbiyalash bizning hozirgi kundagi eng asosiy vazifalarimizdan biridir.



Matn yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. O'zbekistonning tarixi, buguni va ertasi haqidagi o'z tasavvuringizni bayon eting.
2. Siz Vatanimizning taraqqiyotiga o'z hissangizni qanday qilib qo'shmoqchisiz?
3. Ushbu matn Vatanimiz mustaqilligining dastlabki yillari haqida. Siz matnni so'nggi yillarda erishgan yangi yutuqlarimiz haqidagi ma'lumotlar bilan to'ldirgan holda so'zlab bering.



SUHBAT

Vatan tuyg'usi ustuvor yurtda vatanfurushning bozori kasoddir.
(Murod Xidir)

Uyga topshiriq. ***“Ozod va obod diyorim”*** mavzusida kichik hikoya yozing.



3-MAVZU: “MENING UNIVERSITETIM”.

GRAMMATIKA: O‘ZBEK TILINING TOVUSHLAR TIZIMI:

UNDOSH TOVUSHLAR VA ULARNING IMLOSI.

Topshiriq. Matnni o‘qing va munosabat bildiring.

MENING UNIVERSITETIM

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti (SamDVMCHBU) dastlab agrar soha bo‘yicha mutaxassislar tayyorlaydigan oliy o‘quv yurti sifatida 1929-yilda O‘zbekiston davlat paxtachilik instituti va O‘zbekiston zooveterinariya instituti bazasida tashkil etilgan. 1933-yildan O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi instituti, 1961-yildan Samarqand qishloq xo‘jaligi instituti nomi bilan faoliyat yuritgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 8-maydagi qaroriga muvofiq Samarqand veterinariya meditsinasi instituti sifatida tashkil topdi. 2022-yil 31-martdagi PQ №187-sonli “Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlashni tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori bo‘yicha Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi, Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligining Samarqand veterinariya meditsinasi instituti negizida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti tashkil topdi.

Universitetda Veterinariya profilaktikasi va davolash, Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi, Zootexnologiya va mahsulotlarni qayta ishlash texnologiyalari, Biotexnologiya, Agrotexnologiya, Iqtisodiyot, Qo‘shma ta‘lim dasturlar fakultetlari, magistratura, doktorantura bo‘limlari, 30 ga yaqin kafedra mavjud.

Universitet qoshida akademik litsey va texnikumlar, ta‘lim muassasasining Toshkent va Nukus filiallari, Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi, Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazi, “O‘quv tajriba xo‘jaligi” DUK faoliyat ko‘rsatadi. Bundan tashqari, maxsus vivariy, dala uchastkalari, o‘quv tajriba xo‘jaligi, parrandachilik bo‘yicha mikroferma, veterinariya poliklinikasi, jahon qorako‘l teri namunalari maxsus muzeyi, universitet muzeyi, ARM va ilmiy kutubxona mavjud.

Doktorantura, dissertatsiyalar himoyasi bo‘yicha 2 ixtisoslashgan ilmiy kengash bor. O‘z bosmaxonasiga ega. Darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari va „Ilmiy ishlar to‘plamlari“ nashr etadi.

Universitet veterinariya meditsinasi (faoliyat turlari bo'yicha), veterinariya farmatsevtikasi, veterinariya diagnostikasi va laboratoriya ishlari, veterinariya sanitariya ekspertizasi, zootexnologiya (turlari bo'yicha), biotexnologiya, o'simlikshunoslik (yaylov cho'l o'simlikshunosligi, dorivor o'simliklar), agronomiya (yem-xashak ekinlari), chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyasi, iqtisodiyot, buxgalteriya hisobi va audit ta'lim kabi bir necha yo'nalishlar bo'yicha mutaxassislar tayyorlaydi.

Lug'at

tubdan – в корне, коренным образом

chorvachilik – скотоводство, животноводство

oziq-ovqat – продовольствие

xavfsizlik – безопасность

malaka – навык, квалификация

ixtisoslashtirmoq – специализировать

qorako'l – каракуль

➤ *Matn yuzasidan savollar*

1. Tahsil olayotgan ta'lim muassasasi dastlab qachon tashkil etilgan?
2. Oliy ta'lim muassasasiga qachon nechanchi raqamli qaror bilan universitet maqomi berildi?
3. Universitetda qanday fakultetlar mavjud?
4. Qaysi hududlarda universitet filiallari faoliyat yuritadi?
5. Universitetda qaysi yo'nalishlar bo'yicha mutaxassislar tayyorlanadi?



NAZARIY MA'LUMOT

Tayanch tushunchalar: o'zbek tilida tovushlar: undosh tovushlar; rus va o'zbek tilida undoshlarning ifodalanishidagi farqli jihatlar; undosh tovushlar tizimi; talaffuzi va imlosi farqlanuvchi undoshlarning xususiyatlari; qator va qo'sh undoshli so'zlar talaffuzi va imlosi.

Og'iz bo'shlig'ida tovush paychalarini titratib yoki titratmay o'tib, og'iz bo'shlig'ida turli to'siqlarga uchrab chiqishidan hosil bo'ladigan nutq tovushlari undosh tovushlar sanaladi. Undosh paydo bo'lish o'rni, tarkibi va boshqa sifati bilan unli tovushdan farqlanadi. Undosh tovushlar uzoq cho'zilish xususiyatiga ega emas, urg'u qabul qilmaydi

Hozirgi o'zbek adabiy tilida undosh tovush 24 ta: **b, d, f, g, h, j (jo'ja), j (jurnal), k, l, m, n, p, q, r, s, t, v, x, y, z, g', sh, ch, ng.**

Undosh tovushlar lab, til va bo'g'izda hosil bo'lib, portlovchi-sirg'aluvchilik, jarangli-jarangsizlik, shovqinli va ovozdorlik xususiyatlariga ega.

Bir bo'g'inida yonma-yon ikki xil undosh kelgan so'zlar **qator undoshli** so'zlardir. Qator undoshli so'zlar talaffuzida quyidagi holatlar kuzatiladi:

1) to'liq talaffuz qilinadi va yoziladi: *qirq, ko'rk, ont*;

2) qator undoshlardan biri talaffuzda tushib qolsa ham, yozuvda ifodalanadi: *farzand* (*farzan* kabi aytiladi, lekin *farzand* yoziladi), *go'sht, do'st*;

3) qator undoshlar o'rtasida, oldida yoki ulardan keyin bir unli qo'shib aytilsa ham, yozilmaydi: *qadr* (*qadir* aytiladi, *qadr* yoziladi), *ilm, muhr*;

4) qator undoshlar yoki ulardan biri boshqa undosh kabi talaffuz qilinishi mumkin, lekin aslicha yoziladi: *barg* (*bark* aytiladi, lekin *barg* yoziladi), *jilt, bahs*.

Tarkibida yonma-yon bir xil undoshlar kelgan so'zlar qo'sh undoshli so'zlardir. Qo'sh undoshli so'zlar talaffuzida quyidagi holatlar kuzatiladi:

1) qo'sh undosh qismlari aniq talaffuz qilinadi va shunday yoziladi: *katta, alla, sodda, zarra*;

2) qo'sh undoshlar bir undoshdek talaffuz etiladi, lekin qo'sh undosh bilan yoziladi: *kasallik, yovvoyi, tanaffus, tashabbus, muvaffaqiyat; gramm, metall*.



MUSTAHKAMLASH

1-topshiriq. Yuqorida berilgan "Mening universitetim" deb nomlangan matn ustida ishlang va quyidagi shartlarni qanoatlantiruvchi so'zlarni terib yozing, bu birliklarning to'g'ri yozilishini eslab qoling:

1) talaffuzi va imlosi farqlanuvchi undoshlar uchraydigan so'zlar: *Samarqand*

2) qator undoshli so'zlar: *ekspertiza*

3) qo'sh undoshli so'zlar: *mutaxassis*

2-topshiriq. Quyida berilgan qoidalar bilan tanishing. Berilgan so'zlarda nuqtalar o'rniga mos unlilarni qo'yib, ko'chiring.



J harfi *jo'ja*, *jajji* kabi so'zlarda til oldi, jarangli tovushni ifodalaydi. Bu tovush *ch* tovushiga moyil aytiladi. *Jurnal*, *jirafa*, *sajda* kabi so'zlarda esa *dj* til oldi, jarangli tovushni ifodalash uchun qo'llaniladi, jarangsiz jufti *sh* tovushidir.



Sh, sh harflar birikmasi bitta (til oldi, jarangsiz undosh) tovushni ifodalaydi.

Eslatma: *S* va *h* harflari yonma-yon kelib, alohida tovushlarni ifodalaganda, ular orasiga tutuq belgisi (') qo'yiladi: *Is'hoq* (*ism*), *as'hob* (*suhbatdoshlar*), *mus'haf* (*sahifalar*).

Ch, ch harflar birikmasi ham bitta (til oldi, jarangsiz) tovushni ifodalaydi.



So'z oxirida *g* (jarangli) va *k* (jarangsiz) undoshlari o'rtasidagi farq yo'qolib, har ikki undosh bir xil *k* holida talaffuz qilinsa ham, yozuvda *g* va *k* harflari orqali yoziladi: *dialog*, ...

K undoshi bilan tugagan asosga jo'nalish kelishigi qo'shimchasi qo'shilsa, bu qo'shimcha *-ka* tarzida aytiladi va shunday yoziladi. Masalan: *bilakka*, *tilakka* kabi.

G undoshi bilan tugagan so'zlarga jo'nalish kelishigi qo'shimchasi qo'shilsa, asos va qo'shimcha qanday aytilishidan qat'i nazar, o'zgarmaydi. Masalan: *bargga*, *pedagogga*.

I. Alo...ida,...ola, vo...a, ar...eolog, asla...a, pa...ta, a...ir, a ...il, ba...t, ba...o, ...isobchi, ba..s, ba...odir, va...ima, gav...ar, giyo..., gazet...on, go..., guvo..., gul...an, Sho..imardon.

II. 1.Kelmoq i...tiyor bilan, ketmoq ijozat bilan. 2.Mehmon izzatda, mezbon ...izmatda. 3.Mehmon..onang tor bo'lsa ham, me..ri diling keng bo'lsin. 4.Su...bat sevmagan tegirmon qurdirar, mehmon sevmagan bolasini urar.

3-topshiriq. Quyida berilgan so'zlar juftligidan imlo qoidalariga mos yozilgan birliklarni aniqlang.

Sabab – sabap, javob – javop, zarb – zarp, kelib – kelip, g'arb – g'arp, insof – insop, balanroq – balandroq, xursanchilik – xursandchilik, daraxt – darax, do'slik – do'stlik, sutchi – suchchi, so'zsiz – so'ssiz, ischil – izchil, zog'cha – zoxcha, balig' – baliq, mimbar – minbar, manmanlik – mammanlik.

4-topshiriq. “Talabalik – oltin davrim” mavzusi yuzasidan quyidagi SWOT usuli asosida fikr bildiring. Bunda siz tahsil olayotgan oliy ta’lim muassasasi talaba-yoshlari hayotidan misollar keltirishingiz mumkin.

Kuchli tomonlar	Zaif tomonlar
Imkoniyatlar	Kamchiliklar



MUHOKAMA UCHUN

O‘zbek tilining undosh tovushlari rus tilining undosh tovushlaridan farq qiladi.

O‘zbek tilidagi o‘, q, g‘, h undoshlariga rus tilida muqobil tovushlar yo‘q.

Согласный звук «**К**» - глубокозаднеязычный (chuqur til orqa), близкий к русскому «**К**».

Қалам (**qalam**) – карандаш

қадам (**qadam**) – шаг

Қора (**qora**) – черный

қум (**qum**) – песок

Қаттиқ (**qattiq**) – твердый, крепкий

қизил (**qizil**) – красный

Согласный звук «F» - более глубокий, чем русский «г». «F» скользит между основанием языка и нёба:

Гунча (**g‘uncha**) – бутон

ғор (**g‘or**) – пещера

Ғалла (**g‘alla**) – зерно

ғам (**g‘am**) – горе

Ғазал (**g‘azal**) – газель

ғоя (**g‘oya**) – идея

Согласный звук «X» - мягко скользящий.

Ҳаёт (**hayot**) – жизнь

ҳақиқат (**haqiqat**) – правда

Ҳаво (**havo**) – воздух

ҳайкал (**haykal**) – монумент

Ҳосил (**hosil**) – урожай

баҳо (**baho**) - оценка

В узбекском языке есть один носовой звук (burun tovushi), который в орфографии передается стечением букв – «нг»

Онг (**ong**) – разум

минг (**ming**) – тысяча

Бонг (**bong**) – колокол

тенг (**teng**) – равный

Тонг (**tong**) – рассвет

кенг (**keng**) – широкий

Согласный звук «Ж» - орфоэпия этого звука мягче чем в русском языке:

Жаҳон (**jahon**) – мир

Жаҳонгир (**Jahongir**) – имя собств.

Жон (**jon**) – душа

жонажон (**jonajon**) - родной

Произношение звука «Ж» в заимствованных словах не изменяется:

Абажур (**abajur**) – абажур

журнал (**jurnal**) – журнал

Жаргон (**jargon**) – жаргон

инженер(**injener**) – инженер

В узбекском языке звук (Щ) произносится как «щч» или «ч»:

Щедрин – шчедрин (**shchedrin**) борщ – боршч (**borsh**)

Щетка – чўтка (**cho'tka**)

мещан – мешчан (**meshchan**)

В узбекской орфографии (на письме) и орфоэпии (на слух.) русский гласный «ы» произносится через «И»:

Выставка – виставка (**vistavka**) мышьяк – мишьяк (**mishyak**)

Сыр – сир (**pishloq**)

румын – румин (**rumin**)

Согласный звук «Ц» произносится твёрдо, употребляется в заимствованных словах. В латинской орфографии русская буква ц передается в разных словах по-разному:

Цирк – **sirk**

цемент – **sement**

Центнер – **sentner**

милиция - **militsiya**

5-topshiriq. Rus tilidagi u harfini quyidagi so'zlardagi nuqtalar o'rniga qo'yib ko'chiring.

...irk, konstitu...iya, ...irkul, motiva...iya, abza..., ...i...eron, kon...epsiya, kon...entra...iya, emul...iya, akro...entrik, meta...entrik, submeta...entrik.



SUHBAT UCHUN MAVZU

“Hayvonlar – bizning do‘stimiz” mavzusida suhbat qiling.

Uyga topshiriq. “Men tanlagan soha” mavzusida matn yarating.



4-MAVZU: “VETERINARIYA ASOSLARI”. GRAMMATIKA: O‘ZBEK TILIDA BO‘G‘IN VA UNING TURLARI. BO‘G‘INGA AJRATISH VA KO‘CHIRISH QOIDALARI.

Topshiriq. Matnni o‘qing, savollarga javob bering.

VETERINARIYA ASOSLARI

Veterinariya – veterinariya tibbiyoti hayvonlar kasalliklarini o‘rganuvchi fanlar majmuyi hamda hayvonlar kasalliklarining oldini olish va ularni yo‘qotish, aholini odam va hayvonlar uchun umumiy bo‘lgan kasalliklardan muhofaza qilishga qaratilgan tadbirlar tizimi.

Veterinariya shartli ravishda 3 guruhga ajratiladigan fanlarni o‘z ichiga oladi: 1) veterinariya-biologiya fanlari — hayvonlarning sog‘lom va kasal organizmlari tuzilishi va hayot faoliyatini, kasallik qo‘zg‘atuvchilarini, dori moddalarining organizmga ta‘sirini o‘rganadi (hayvonlarning normal va patologik anatomiyasi, fiziologiyasi, hayvonlar biokimyosi, veterinariya mikrobiologiyasi, virusologiya, mikologiya, fiziologiya va boshqalar); 2) klinik fanlar - hayvonlar kasalliklarini, ularni aniqlash usullarini, kasalliklarning oldini olish va ularni bartaraf etishni o‘rganadi epizootologiya va infeksiyon kasalliklar, parazitologiya, invazion kasalliklar, ichki yuqumli bo‘lmagan kasalliklar, xirurgiya, akusherlik va ginekologiya (sun‘iy qochirish bilan birga) va boshqalar; 3) veterinariya-sanitariya fanlari — hayvon organizmiga tashqi omillar ta‘sirini, hayvonlar yashaydigan muhitni yaxshilash muammolarini (zoogigiyena), shuningdek hayvonlardan olinadigan mahsulotlar va xomashyo sifati masalalarini o‘rganadi (Veterinariya sanitariyasi, Veterinariya sanitariya ekspertizasi).



Veterinariya mutaxassislari olib boradigan tadbirlar (profilaktika, davolash, epizootiyaga qarshi kurash, veterinariya-sanitariya tadbirlari)

chorvaga kasalliklar yetkazadigan zarar hajmini qisqartirish imkoniyatini yaratadi, chorva bosh sonini saqlab qolishni va chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirishni ta'minlaydi. Hayvonlar va odam uchun umumiy bo'lgan kasalliklarga qarshi kurash, hayvonot mahsulotlari sifatini nazorat qilish odamlarning kasalliklarga chalinishini kamaytirishga yordam beradi.

Lug'at

oldini olmoq – предупреждать, предотвращать

muhofaza qilmoq – охранять, защищать

tadbir – мера, мероприятие

tizim – система

kasallik qo'zg'atuvchilari – патогены

ta'sir – влияние, воздействие, действие, эффект

ichki yuqumli bo'lmagan kasalliklar – внутренние неинфекционное заболевание

sun'iy qochirish – искусственное оплодотворение

tashqi omil – внешний фактор, причина

xom ashyo sifati – качество сырья

qisqartirmoq – сокращать, укорачивать, уменьшать

zarar hajmini qisqartirmoq – ...уменьшить урон

chorvachilik mahsulotlari – продукция животноводства

sifatni nazorat qilish – контроль качества

➤ Matn yuzasidan savollar

1. Veterinariya sohasi nima bilan shug'ullanadi?
2. Veterinariya biologiya fanlariga qaysi fanlar kiradi?
3. Klinik fanlar nimani o'rganadi?
4. Veterinariya-sanitariya fanlari qaysilar?
5. Veterinariya-sanitariya fanlari qaysi masalalar ustida ish olib boradi?



NAZARIY MA'LUMOT

Tayanch tushunchalar: bo'gin va uning turlari: ochiq va yopiq bo'gin; bo'gin tarkibi; qator va qo'sh undoshli so'zlarni bo'g'inga ajratish; bo'g'inga ajratish va bo'gin ko'chirishdagi farqlar; bo'gin ko'chirish qoidalari.

BO'G'IN VA UNING TURLARI

So'zning bir nafas zarbi bilan aytiladigan tovush yoki tovush birikmasidan iborat qismi **bo'gin** deyiladi. Masalan, *adolat* so'zida uch bo'gin bor: *a-do-lat*. Birinchi bo'gin tovushdan, qolgan ikkitasi tovush

birikmasidan iborat. O‘zbek tilida bo‘g‘in unlisiz tuzilmaydi. So‘zda qancha unli bo‘lsa, shuncha bo‘g‘in bo‘ladi.

Bo‘g‘in **unli yoki undosh bilan tugashiga qarab ikkiga bo‘linadi**: a) ochiq bo‘g‘in; b) yopiq bo‘g‘in. Unli bilan tugagan bo‘g‘in ochiq bo‘g‘in deyiladi: *o-na, o-ta, o-pa*. Undosh bilan tugagan bo‘g‘in yopiq bo‘g‘in deyiladi: *mak-tab, rah-bar, shax-mat*. Bir bo‘g‘in bittadan to‘rttagacha, o‘zlashma so‘zda beshtagacha tovushdan iborat bo‘ladi: *o-na, bosh, sport*.

Taqqoslang!

Слоги в русском языке Слог – это звук или несколько звуков, которые произносятся одним толчком выдыхаемого воздуха	
Число слогов в слове соответствует количеству гласных звуков	
Типы слогов	
§	§
Открытый – слог, который кончается гласным звуком <i>Сны, ры-ба-ки</i>	Закрытый – слог, который кончается согласным звуком <i>Мор - ской, мель - ник</i>



MUSTAHKAMLASH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. *Matnni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni bo‘g‘inga bo‘ling va uning turini ayting.*


Veterinariya **entomologiyasi** (grekcha entoman-hasharot, Logos) **hasharotlar dunyosini** o‘rganuvchi fan bo‘lib, shundan veterinariya entomologiyasi hayvonlar sog‘ligi uchun zararli bo‘lgan hasharotlarni va ularga qarshi kurash usullarini o‘rganadi. Hasharotlar **hayvon organizmida** parazitlik qilib yoki yuqumli hamda **invazion** kasalliklarning **qo‘zg‘atuvchilarini** tashuvchisi sifatida zarar keltiradi. Ayrim hasharotlar **gelmintlarning** oraliq xo‘jayinlari bo‘lib xizmat qilsa, boshqa turdagilarga esa hayvonot dunyosi **mahsulotlarning** sifatini buzadi. Hasharotlar tomonidan qo‘zg‘atiladigan kasalliklar **entomozlar** deb nomlanadi.

2-topshiriq. Gaplarni o‘qing. Ochiq bo‘g‘inli so‘zlarni aniqlang va rus tiliga tarjima qiling.

Veterinariya oliygohlari talabalarida veterinariya qonunchiligi, veterinariya xizmatini tashkiliy tuzilishi, veterinariya xizmatining turlari, veterinariyada yuritiladigan jurnallar, hisob-kitob hujjatlari, hayvonlarni identifikatsiya qilish, ularni hisobga olish va hisobdan chiqarish tartibi, mutaxassislarning ish uslublari va veterinariya tadbirlarining iqtisodiy samaradorligini aniqlash, veterinariya tadbirlarini rejalashtirish va tashkillashtirish, veterinariya ta‘minotini tashkil qilish, veterinariya xizmatini tashkil qilish, veterinariya sanitariya nazorati, xorijiy davlatlarda veterinariya xizmatini tashkil qilish bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni shakllantiradigan fan.

3-topshiriq. Quyidagi kabi “Baliq skeleti” chizmasini shakllantirib, quyida berilgan shartlar bo‘yicha sohangizga oid atamalar bilan to‘ldiring.

Baliq skeletining yuqori suyagida kichik muammo ifodalanadi, pastda esa uning mavjudligini tasdiqlovchi dalillar yoziladi.



- 1.Faqat ochiq bo‘g‘inli so‘zlar.
- 2.Faqat yopiq bo‘g‘inli so‘zlar.
- 3.Ochiq bo‘g‘in bilan tugagan so‘zlar.
- 4.Yopiq bo‘g‘in bilan tugagan so‘zlar.
- 5.Tarkibida birgina ochiq bo‘g‘in mavjud bo‘lgan so‘zlar.
6. Tarkibida birgina yopiq bo‘g‘in mavjud bo‘lgan so‘zlar.
- 7.Ochiq+yopiq+ochiq+yopiq ko‘rinishidagi bo‘g‘inli so‘zlar.

4-topshiriq. Matndagi ochiq bo‘g‘inli so‘zlarni toping va ostiga chizing.

XROMOSOMA KASALLIKLARI

Xromosomalar soni yoki tuzilishining o‘zgarishi bilan kechadigan irsiy kasalliklar. Xromosomalardagi u yoki bu o‘zgarishlar mutatsiyalarning bir turi hisoblanadi. Agarda xromosoma mutatsiyalari jinsiy hujayralar yoki urug‘langan tuxum hujayralari bo‘linishining

birinchi bosqichlarida yuzaga kelsa, ular rivojlanayotgan organizmning ko'pgina hujayralariga o'tadi, natijada qator rivojlanish nuqsonlari kuzatiladi. Xromosomasida me'yordan tashqari o'zgarishlar bor embrionlar tug'ilgunga qadar nobud bo'ladi, o'lik tug'ilgan chaqaloqlarning 6%i xromosomalarida buzilishlar borligi aniqlangan.

5-topshiriq. Matndagi faqat yopiq bo'g'inlardan iborat sozlarni toping va daftaringizga yozing.

VETERINARIYA UCHASTKASI – davlat veterinariya xizmatining tashkiliy tuzilmasidagi eng quyi va asosiy amaliy ijrochi davlat veterinariya muassasasi hisoblanib, tegishli tuman, shaharlarning belgilangan hududida davlat veterinariya nazorati, veterinar klinik ishlari, hamda amaliy veterinariya xizmati ko'rsatish vazifalarini bajarishadi. Veterinariya uchastkalarida mazkur uchastka mudiri rahbarlik qilib, ushbu lavozimdagi mutaxassisga davlat veterinariya inspektori maqomi beriladi. Veterinariya uchastkalarining joylashgan hududiga hamda bajariladigan veterinariya xizmati ish hajmiga qarab shtatlar soni 1-3 nafargacha bo'ladi.



SUHBAT UCHUN MAVZU

Siz sohangizni qanday tushunasiz?

Uyga topshiriq. Quyidagi rasmlarda ko'rsatilgan hayvonlar haqida qiziqarli ma'lumotlar yozib keling. Sohaga doir so'zlardagi bo'g'nlarga e'tibor qarating.





5-MAVZU. “VETERINARIYA TARIXIDAN”. GRAMMATIKA: O‘ZBEK TILINING ASOSIY IMLO QOIDALARI: ASOS VA QO‘SHIMCHALAR IMLOSI.

Topshiriq. Matnni o‘qing

VETERINARIYA TARIXIDAN

Veterinariya, veterinariya tibbiyoti, baytariya (lotincha: *veterinarius* — hayvonlarni parvarish qiluvchi, hayvonlarni davolovchi) — hayvonlar kasalliklarini o‘rganuvchi fanlar majmuyi hamda hayvonlar kasalliklarining oldini olish va ularni yo‘qotish, aholini odam va hayvonlar uchun umumiy bo‘lgan kasalliklardan muhofaza qilishga qaratilgan tadbirlar tizimi.

Hayvonlarni kasalliklardan muhofaza qilish va davolash ishlari ularni xonakilashtirish davridan boshlangan. Odamlar hayvonlarni qo‘lga o‘rgatgan va ulardan xo‘jalik maqsadlarida foydalangan davrdan boshlab hayvonlarni davolab ham kelganlar. Davolash bilan cho‘pon, otboqar va boshqa chorvadorlar shug‘ullangan.

O‘zbekistonda 1929-yil ochilgan Samarqand qishloq xo‘jaligi institutida veterinariya mutaxassislari tayyorlana boshladi. Viloyatlardagi qishloq xo‘jaligi va zooveterinariya texnikumlarida veterinariya feldsherlari tayyorlandi. 1959-yil Samarqand viloyatida biologik preparatlar tayyorlaydigan kombinat ishga tushirildi. 1976-yil Samarqandda zararli bo‘g‘imoyoqlilarga qarshi kurash O‘rta Osiyo laboratoriyasi tashkil etildi (O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, u O‘zbekiston veterinariya-sanitariyasi va akarologiyasi ilmiy tadqiqot institutiga aylantirildi). Veterinariya sohasidagi ilmiy tadqiqot ishlari O‘zbekiston veterinariya instituti (Samarqand viloyati)da olib boriladi.

Akademik K.I.Skryabin nomidagi O‘zbekiston veterinariya ilmiy tadqiqot instituti (O‘zVITI) — Markaziy Osiyodagi yirik ilmiy tadqiqotlar muassasasi. Samarqand viloyatining Toyloq qishlog‘ida joylashgan (1959-yildan). Dastlab Turkiston Yer ishlari xalq komissarligi veterinariya boshqarmasi qoshidagi o‘lka veterinariya-bakteriologiya laboratoriya tarzida 1924-yilda Toshkentda tashkil etilgan. 1926-yilda Veterinariya-bakteriologiya institutiga aylantirildi. 1934-yildan hozirgi nomda. 1978-yilda K.I.Skryabin nomi berilgan. Institut ilmiy tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlari: chorva mollari o‘rtasida tarqalgan

yuqumli, invazion va yuqumsiz kasalliklarini o'rganish va ularga qarshi kurash, turli vaksinalar va davolash preparatlari yaratish, O'zbekistonning issiq iqlim sharoitida chorvachilikni rivojlantirish uchun muhim veterinariya-sanitariya tadbirlarini ishlab chiqish va boshqalardan iborat.

O'zbekiston Respublikasining "Veterinariya to'g'risida"gi Qonuni (1993-yil 3-sentabr)ga binoan mamlakatda davlat veterinariyasi, idoraviy va xususiy Veterinariya xizmati tashkil topdi.

Mamlakatimiz veterinariya sohasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining № O'RQ-397-sonli qarori bilan 2015-yil 29-dekabrda tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Veterinariya to'g'risida"gi Qonuni dasturulamal bo'lib hisoblanadi.

Lug'at

tibbiyot – медицина

kasallik – болезнь

muhofaza qilish – охранять, защищать

xonakilashtirish – одомашнивать, приручать

cho'pon – пастух

otboqar – коннох

chorvador – скотовод

mutaxassis – специалист

zararli – вредный, убыточный

bo'g'imoyoqli – членистоногие

muassasa – учреждение, заведение

boshqarma – управление

yuqumli – инфекционный, заразный

yuqumsiz – неинфекционный, незаразный

iqlim – климат

dasturilamal – правило, наставление, инструкция, программа

➤ Matn yuzasidan savollar

1. Veterinariya so'zi qaysi tildan olingan va qanday ma'no beradi?

2. Veterinariya tizimi nimalar bilan shug'ullanadi?

3. Hayvonlarni kasalliklardan muhofaza qilish va davolash ishlari qachon va nima maqsadda paydo bo'lgan?

4. Dastlab davolash ishlarini kimlar olib borgan?

5. O'zbekistonda veterinariya xizmatlari bilan shug'ullanadigan qanday tashkilot va muassasalar faoliyat yuritadi?

6. O'zbekiston veterinariya ilmiy tadqiqot instituti qayerda joylashgan va qachon faoliyatini boshlagan?

7. O'zbekiston Respublikasining "Veterinariya to'g'risida"gi Qonuni qachon qabul qilingan?



NAZARIY MA'LUMOT

Tayanch tushunchalar: o'zbek tilining asosiy imlo qoidalari: asos va qo'shimchalar imlosi; so'z tarkibi; asos morfema; qo'shimcha morfema; asosga qo'shimcha qo'shilishi natijasida kuzatiladigan tovush o'zgarishlari; tovush almashinishi; tovush tushishi; tovush ortishi.

Morfemika tilshunoslikning so'z tarkibi, ya'ni ma'noli qismi haqidagi bo'limi bo'lib, yunoncha morphe-forma, shakl so'zidan olingan. Asos va qo'shimcha so'zning ma'noli qismi deyiladi. Masalan, **paxtakorlarga** so'zi *paxta*, *-kor*, *-lar*, *-ga* qismidan iborat. Ajratilgan har bir tarkibiy bo'lak – so'zning ma'noli qismi. Ma'noli qism **morfema** ham deyiladi. Paxta mustaqil lug'aviy ma'noga ega. U bu ma'noni qolgan qisimsiz ham anglati olishi bilan ajralib turadi. Shuning uchun u **asos** morfema deyiladi. Boshqa qismlar (*-kor*, *-lar*, *-ga*) esa ajralgan holda mavhum bo'lishi, o'zaksiz mustaqil ma'no anglatmasligi va mustaqil holda qo'llanmasligi bilan farqlanadi. Bular – **qo'shimcha morfemalar**. Asos qism so'z yasovchi qo'shimcha olishi bilan asosdosh so'z vujudga keladi: *gul* – *gulchi*, *guldon*, *gulli*, *gulsiz*, *gulband* kabi.



Hozirgi o'zbek adabiy tilida so'zga qo'shimcha qo'shilganda o'zakda fonetik o'zgarishning quyidagi ko'rinishlari kuzatiladi:

Tovush tushishi: *sariq*+*-ay* = *sarg'ay*, *past*+*-ay* = *pasay*, *og'iz*+*-aki* = *og'zaki*, *o'yin*+*-a* = *o'yna*, *o'rin*+*-ash* = *o'rnash*, *ayir*+*-im* = *ayrim*,

ayir+-il + ayril, buyur+-uq = buyruq; ikki+-ov = ikkov, olti+-ala = oltala, yeti+-ovlon = yettovlon; men+-ning = mening, sen+-ni = seni; burun+-i = burni, shahar+-im = shahrim, o'g'il+-ing = o'g'ling.

Tovush orttirilishi: *isi+-q = issiq, qot+-iq = qattiq, tib+-iy = tibbiy, his+-iy = hissiy, shu+-cha = shuncha, bu+-day = bunday; u+-ga = unga, shu+-da = shunda, bu+-dan = bundan, haq+-i = haqqi, parvo+-i = parvoyi, obro'+-ing = obro'ying.*

Tovush almashishi:

a-o: *tara-q = taroq, so'ra-q = so'roq, qiyna-v = qiynov, so'ra-v = so'rov;*

o-a: *son+-a = sana, ong+-la = angla, yosh+-a = yasha, ot+-a = ata;*

i-u: *tinti+-v = tintuv, o'qi+-v = o'quv, sovi+-q = sovuq, quri+-q = quruq;*

q-g': *qishloq+-i = qishlog'i, yutuq+-im = yutug'im, buyruq+-i = buyrug'i;*

k-g: *yurak+-i = yuragi, eshik+-im = eshigim, tilak+-ing = tilaging;*

Asosni ajrata bilish, so'z tarkibidagi tovush o'zgarishini fahmlash so'zni to'g'ri yozishga imkon beradi.



MUSTAHKAMLASH

1-topshiriq. Berilgan parchadagi so'zlarni asos va qo'shimchalarga ajrating.

Hayvonlarni kasalliklardan muhofaza qilish va davolash ishlari ularni xonakilashtirish davridan boshlangan. Odamlar hayvonlarni qo'lga o'rgatgan va ulardan xo'jalik maqsadlarida foydalangan davrdan boshlab hayvonlarni davolab ham kelganlar. Davolash bilan cho'pon, otboqar va boshqa chorvadorlar shug'ullangan.

2-topshiriq. Tovush o'zgargan so'zlarni guruhlang!

Parvoyim, shundan, seniki, meni, ko'ngli, sanoq, ishlov, mavqeyi, shahrimiz, varag'i, pasaymoq, obro'yim, o'quvchi, qishlog'ingiz, hushyorligim, bulog'i, tilakka, qo'g'irchoqqa, sinov, qaynoq, sovuq, anglamoq, atamoq

tovush
tushishi

tovush
ortishi

tovush
almashishi

...

...

...

3-topshiriq. *“Veterinariya tarixidan” matni asosida tuzilgan lug‘atdagi so‘zlarni quyidagi jadval asosida ikki guruhga ajrating.*

Bor asosli so'zlar	Asos va asosli, asos va qo'shimchali so'zlar
• cho‘pon • ...	• kasallik • ...

4-topshiriq. *Qavs ichidagi savollar yordamida kerakli so‘z va so‘z birikmalarini zarur kelishik qo‘shimchalari bilan qo‘llang. Gaplarni daftaringizga yozing. Yasama so‘zlar imlosiga e‘tibor qarating.*

1.Talabalar (qayerdan?) qaytishdi. 2.Qoramolchilik, yilqichilik va qorako‘lchilik kafedrası mudiri G.Rahimov (qayerdan?) qaytdi. 3.Talabalar (qayerga?) jo‘natildi. 4.Zoomuhandis (qayerga?) jo‘natildi. 5.Talabalar ishlab chiqarish amaliyotini (qayerda?) o‘tashdi. 6. Zootinjengriya fakulteti talabalari (qayerda?). 7. Texnologiya fakulteti binosida (nima?) o‘tkazildi.

5-topshiriq. *Matnni rus tiliga tarjima qiling.*

Farosat va farosatsizlik

Farosatli va farosatsizlikni har qadamda uchratish mumkin. Suhbatda ham, ko‘cha-ko‘yda yurganda ham, kattalar bilan muomalada ham, o‘qishga, ishga munosabatda ham, kiyinish, yurish-turishda ham. Farosatlilik kishilarda hurmat, mehr, iliqlik, yaxshi kayfiyat, ishonch, e'tiqod, ixlos kabi tuyg‘ular uyg‘otsa, farosatsizlik, befahmlilik uning aksidir. U kishiga nisbatan nafrat, g‘azab, gumon, shubha paydo qiladi.

Lug‘at

farosatli – проницательный

iliqlik – теплота

kayfiyat – настроение, самочувствие

ishonch – вера

e'tiqod – вера, убеждение

ixlos – искреннее чувство, преданность

tuyg‘u - ощущение

befahmlilik – невнимательность

nafrat – ненавистник

g‘azab – гнев

gumon – сомнение

shubha – подозрение



Sabrning boshi achchiq, oxiri esa shirindir.

Uyga topshiriq. Quyidagi rasmdan foydalangan holda “Insonning tabiatga ta’siri” mavzusida matn tuzing.



6-MAVZU. “KASBIM – FAXRIM”.

**GRAMMATIKA: O‘ZBEK TILINING ASOSIY IMLO
QOIDALARI: QO‘SHIB, AJRATIB, CHIZIQCHA BILAN
YOZISH IMLOSI.**

Topshiriq. Matn bilan tanishib chiqing.

KASBIM – FAXRIM

Har bir kasbning o‘ziga yarasha sir-asrori bo‘ladi. Dunyoda kasblar ko‘p va xilma-xil. Qadim-qadimdan odamlar ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik, kosibchilik kabi ishlar bilan shug‘ullanib kelishgan. Jamiyat rivojlangan sari ortib borayotgan ehtiyoj va talabni qondirish uchun kasblar ham ko‘payib bormoqda. Bugungi kunda jamiyatimizni to‘quvchi, matbaachi, dizaynchi, tikuvchi, g‘isht teruvchi, harf teruvchi, o‘qituvchi, tarbiyachi, uchuvchi, xonanda, rassom, temirchi, yozuvchi, veterinar va hokazo kasblarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Agar kishi o‘z sevgan kasbida ishlayotgan bo‘lsa, u hech qachon har ertalab o‘zini ishga ketyapman, deb hisoblamaydi. O‘z sevgan kasbi bilan shug‘ullanish kishiga zavq, xursandchilik, shijoat, rag‘bat hamda ma’naviy ozuqa beradi. O‘zi yoqtirgan ishni qilayotgan kishi vaqt

qanchalar tez o'tib ketganligini sezmay qoladi, u hech qachon bajarayotgan ishidan charchamaydi.

Bugun dunyo bo'ylab qanchadan qancha kishi zavod-fabrikalarda, idoralarda, avtomobillarda, ish maydonlarida ish vaqtining tezroq tugashini intizorlik bilan kutib, tushlik vaqtining tezroq kelishi ilinjida soatga ma'yus termulib o'tirishadi. Bu toifadagi kishilar, o'z xatti-harakatlaridan ma'lumki, o'zlari yoqtirgan mashg'ulotni o'z kasblari sifatida tanlashmagan. Ya'ni, ular o'zlariga yoqmaydigan kasb bilan shug'ullanuvchi kishilardir.

Ba'zilar «Kishi bajarayotgan ishidan katta daromad olsa bo'ldi-da, kasb kishiga katta pul keltirsa bo'lgani, uning qilayotgan ishi o'ziga yoqishi ikkinchi darajali», deb hisoblashadi. Ammo hech bir kishi kasbidan zavqlana olmas ekan, o'z bajarayotgan faoliyati orqali katta daromadga erisha olmaydi. Balki biror kishi shug'ullanayotgan kasb katta foyda keltiradigan ishdir, balki kimlardir shu kasb ortidan katta daromadga erishayotgandir, ammo bu kasbning egasida o'z ishiga nisbatan qiziqish va zavqlanish bo'lmasa, u hech qachon o'z kasbidan barakat topa olmaydi.

Shundan kelib chiqqan holda bugun haqiqiy hayotda kasbidan zavqlana olganlarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotganini, o'z kasbini yomon ko'rganlarning esa kunni zerikarli bekorchilik bilan o'tkazishayotganligini ko'rishimiz mumkin. Bunday sharoitda o'z kasbini sevgan, qilayotgan ishidan zavqlana olgan oddiy poyafzal ta'mirlovchisi bugungi kunda milliardlab foyda ko'rish mumkin bo'lgan ilg'or tashkilotda yetuk mutaxassis sifatida ishlovchi, ammo o'z kasbini yomon ko'radigan, qilayotgan ishidan zavq topa olmaydigan kishidan ancha ko'proq foyda ko'rishi mumkin.

Ishoning, kasb – bu faqat pul topish usuli emas, balki hayotingizning katta qismini mazmunli o'tkazish vositasi sifatida ham katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Agar Siz hozirgi yoshingizda kelajakda shug'ullanishingiz uchun kasb tanlayotgan bo'lsangiz, faqatgina bu kasbdan Sizga keladigan moddiy daromadni emas, balki undan olishingiz kerak bo'lgan ma'naviy ozuqani ham hisobga oling. Bordi-yu Siz allaqachon biror kasbga ega bo'lsangiz, ammo bu kasb Sizning sevimli kasbingiz bo'lmasa, qilayotgan ishingizdan zavqlana olmasangiz, o'z bajarayotgan ishingizda xursandchilik, ma'no topishga intiling. Bajarayotgan ishingizdan zavqlanishni o'rganing. Agar buning iloji bo'lmasa, kasbingizni imkon

qadar o‘zingiz zavqlanib ishlaydigan faoliyat turiga o‘zgartirishga harakat qiling.

Unutmang, Siz kasbingizda jon saqlashingiz emas, balki yashashingiz kerak. Shundagina qilayotgan ishingiz Sizning haqiqiy sevimli kasbingiz hisoblanadi!

Lug‘at

sir-asror – тайна

talabni qondirish – удовлетворить нужду

zavq – удовольствие, наслаждение

shijoat – смелость, отвага

rag‘bat – стимул - склонность

intizorlik – ожидание, томление

ilinj – надежда

ma‘yus – отчаявшийся, унылый

ikkinchi darajali – второстепенный

foйда keltirmoq – приносить пользу

zavqlanish – наслаждаться, восторгаться

bekorchilik – безделье, праздность

ilg‘or – авангардный, передовой



Matn yuzasidan savollar

1. “O‘z kasbining ustasi” deganda nimani tushunasiz?
2. Kasb va hunarning farqini ayta olasizmi?
3. Kasb tanlashda nimalarga e‘tibor qaratish kerak?
4. Qanday paytlarda tanlangan kasb bo‘yicha ulkan yutuqlarga erishish mumkin?
5. Qaysi kasb egalarini alohida hurmat qilasiz va anima uchun?
6. Oila a‘zolaringiz qaysi kasb egalari?
7. Kasb etikasi nima?
8. Tanlangan kasbingizda qanday yangiliklar yaratmoqchisiz?



NAZARIY MA‘LUMOT

Tayanch tushunchalar: o‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari: qo‘shib yozish; o‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari: chiziqcha bilan yozish imlosi; o‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari: ajratib yozish imlosi; qo‘shma so‘zlar, juft va takror so‘zlar imlosi.

Qo‘shib yozish. Quyidagi birliklar qo‘shib yoziladi: Xona, noma, poya, bop, xush, ham, baxsh, kam, umum, rang, mijoz, sifat, talab kabi so‘z yordamida yasalgan qo‘shma ot va qo‘shma sifat: qabulxona,

tabriknoma, taklifnoma, bedapoya, ommabop, xushxabar, hamsuhbat, orombaxsh, kamquvvat, bug'doyrang, umumxalq, sovuqmijoz, devsifat, suvtalab kabi.

-(a)r (inkori -mas) qo'shimchasi bilan tugaydigan qo'shma ot va qo'shma sifat: *o'rinbosar, otboqar, cho'lquvar, ishyoqmas, qushqo'nmas* kabi.

Takror taqlid so'zga qo'shimcha qo'shish bilan yasalgan ot va fe'l: *pirpirak* (pir-pir+ak), *hayhayla* (hay-hay+la), *gijgijla* (gij-gij+la) kabi.

Narsani (predmetni) boshqa biror narsaga nisbatlash (qiyoslash), o'xshatish yo'li bilan bildiruvchi qo'shma ot va qo'shma sifat: *karnaygul, qo'ziqorin, otquloq, oybolta, devqomat, sheryurak, bodomqovoq, qirg'iyko'z* kabi.

Narsani uning rangi, mazasi, o'zidagi biror narsasi va shu kabi belgisi asosida bildiruvchi qo'shma ot: *olaqarg'a, qizilishton, achchiqtosh, mingoyoq* kabi.

Narsaning biror maqsad, ish uchun mo'ljallanganligini bildiruvchi qo'shma ot: *kirsovun, qiymataxta, tokqaychi, oshrayhon, ko'zoynak, molqo'ra, nosqovoq* kabi.

Narsani joyga nisbat berish asosida bildiruvchi qo'shma ot: *tog'olcha, cho'lyalpiz, suvilon, qashqargul* kabi.

Marosim, afsona kabini bildiruvchi qo'shma ot: *kiryuvdi, kelintushdi, qoryog'di, Urto'qmoq, Ochildasturchon* kabi.

Qaratuvchili birikmaning bir so'zga aylanishi bilan yuzaga kelgan qo'shma ot: *mingboshi, so'zboshi, olmaqoqi* kabi.

Ikkinchi qismi turdosh ot bilan yoki obod so'zi bilan ifodalangan joy nomi: *Yangiyo'l, To'rtko'l, Mirzaobod, Xalqobod* kabi. Lekin ikkinchi qismi atoqli ot bo'lgan joy nomi ajratib yoziladi: *O'rta Osiyo, Ko'hna Urganch, O'rta Chirchiq* kabi.

Rus tilidan aynan o'zlashtirilgan yoki so'zma-so'z tarjima qilish yo'li bilan hosil qilingan qo'shma so'z: *kinoteatr, radiostansiya, fotoapparat, elektrotexnika, teleko'rsatuv, yarimavtomat, bayramoldi, suvosti* kabi.

Qisqartmaning barcha turi va ularga qo'shiladigan qo'shimcha: *SamDU, ToshDUning* kabi. Lekin yonma-yon kelgan ikki qisqartma ajratib yoziladi: *O'zXDP MK* (O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi markaziy kengashi) kabi.

Bir tovush ikki yoki undan ortiq tovush tarzida aytilsa, bunday holat harfni takror yozish bilan ko'rsatiladi: *yo'o'q, nimaa, himm, uffff* kabi.

Chiziqcha bilan yozish. Quyidagi holda so'z chiziqcha bilan yoziladi:

Juft soʻz va takror soʻz qismi: *el-yurt, mehr-shafqat, qovun-tarvuz, omon-eson, kecha-kunduz, yozin-qishin, asta-sekin, uch-toʻrt, oʻn-oʻn beshta (10-15ta), bilinar-bilinmas, bordi-keldi, kuydi-pishdi, don-dun, oz-moz, mayda-chuyda, aldab-suldab, oʻylab-netib, soʻramay-netmay, kiyim-kechak, adi-badi, ikir-chikir, duk-duk, taq-tuq, qop-qop, ming-ming (mlng-minglab), bitta-bitta (bitta-bittalab), baland-baland, chopachopa, Ishlay-ishlay, yaqin-yaqinlargacha, hamma-hammasi, uy-uyiga, ich-ichidan* kabi.

Eslatma:

- juft soʻzdan qoʻshimcha yordamida yasalgan soʻz ham chiziqcha bilan yoziladi: *baxt-saodatli, xayr-xoʻshlashmoq* kabi;

- juft soʻz qismi orasida -u (-yu) bogʻlovchisi kelsa, undan oldin chiziqcha qoʻyiladi va juft soʻz qismi ajratib yoziladi: *doʻst-u dushman (doʻst-dushman), kecha-yu kunduz (kecha-kunduz)* kabi;

- yetakchi va koʻmakchi feʼl bir xil shaklda boʻlsa, chiziqcha bilan yoziladi: *yoʻzdi-oldi, borasan-qoʻyasan, uxlabman-qolibman* kabi.

Belgini kuchaytiruvchi *qip-qizil, yam-yashil, dum-dumaloq, kuppa-kunduzi, toʻppa-toʻgʻri, bab-barobar* kabi soʻz shakli chiziqcha bilan yoziladi (lekin *oppoq* soʻzi qoʻshib yoziladi).

Soʻzning -ma, ba- yordamida birlashgan qismi chiziqcha bilan yoziladi: *koʻchama-koʻcha, uyma-uy, rang-barang, dam-badam* kabi. Lekin mustaqil ishlatilmaydigan qism qatnashsa, bunday soʻz qoʻshib yoziladi: *roʻbaroʻ, darbadar* kabi.

Rus tilidan aynan yoki soʻzma-soʻz tarjima qilish yoʻli bilan olingan soʻzlasiga muvofiq chiziqcha bilan yoziladi: *unter-ofitser, kilovatt-soat* kabi.

-chi,-a (-ya),-ku,-u (-yu),-da,-e,-ey (-ey) yuklamasi chiziqcha bilan yoziladi: *sen-chi, boraylik-chi, sen-a, kutaman-a, bola-ya, mingta-ya, keldi-ku, kelgan-u, yaxshi-yu, yaxshi-da, qoʻy-e, yashang-e, oʻgʻiim-ey, keldi-ey* kabi. Ammo -mi,-oq (-yoq),-ov (-yov),-gina (-kina,-qina) yuklamasi oʻzidan oldin kelgan soʻzga qoʻshib yoziladi: *keliboq, oʻziyoq, koʻrganov, koʻrdiyov, mengina, qoʻshiqqina* kabi.

Tartib son arab raqami bilan yozilsa,-nchi qoʻshimchasi oʻrniga chiziqcha (-) qoʻyiladi: *7-sinf, 5-“A” sinfi, 3-, 7-, 8-sinf oʻquvchilari, 60-yillar, 1991-yilning 1-sentabri* kabi. Tartib sonni koʻrsatuvchi rim raqamidan keyin chiziqcha yozilmaydi: *XX asr, X sinf* kabi.

Ajratib yozish. Quyidagi holda qismlar ajratib yoziladi:

Qoʻshma feʼlning qismi ajratib yoziladi: *sarf qil, taʼsir et, tamom boʻl, sotib ol, olib kel, olib chiq, miq etma* kabi.

Ko‘makchi fe‘l va to‘liqsiz fe‘l mustaqil fe‘ldan ajratib yoziladi: *aytib ber, olib ko‘r, so‘rab qo‘y, ko‘ra qol, bera boshla, yiqila yozdi; ketgan edi, ketgan ekan, ketgan emish* kabi. Lekin mustaqil fe‘l bilan yordamchi fe‘l orasida tovush o‘zgarishi bo‘lsa, bunday qism qo‘shib yoziladi: *aytaver (ayta ber), borojadi (bora oladi), bilarkan (bilar ekan)* kabi.

Ko‘makchi ajratib yoziladi: *shu bilan, soat sayin, borgan sari, bu qadar, kun bo‘yi* kabi. Lekin bilan ko‘makchisining *-la* shakli, uchun ko‘makchisining *-chun* shakli chiziqcha bilan yoziladi: *sen-la, sen-chun* kabi.

Hamma, har, hech, bir, qay, u, bu, shu, o‘sha so‘zi o‘zidan keyingi yoki oldingi so‘zdan ajratib yoziladi: *hamma vaqt, har kirn, hech qaysi, qay kuni, u yerda, shu yoqdan, o‘sha yoqqa* kabi. Lekin *birpas, biroz, birato‘la, birvarakayiga, birmuncha, buyon* so‘zi qo‘shib yoziladi. Shuningdek, *qay* so‘zi *yoq, yer* so‘zi bilan ishlatilganda *bir y* tovushi tushsa, bu so‘z qo‘shib yoziladi: *qayoqqa, qayerda* kabi.

Sifat oldidan kelib, belgining ortiq yoki kamligini bildiradigan *to‘q, jiqqa, tim, liq, lang, och* kabi so‘z ajratib yoziladi: *to‘q qizil, jiqqa ho‘l, tim qora, liq to‘la, lang ochiq, och sariq* kabi.

Murakkab son qismi ajratib yoziladi: *o‘n bir, besh yuz, qirq ming olti yuz bir, bir ming yetti yuz sakson beshinchi* kabi.

Yildan yilga, tomdan tomga kabi birinchi qismi chiqish kelishigida, ikkinchi qismi jo‘nalish kelishigida bo‘lgan birikma ajratib yoziladi.

Belgining ortiq darajasini *bildiruvchi ko‘pdan ko‘p, tekndan tekin, yangidan yangi, ochiqdan ochiq, qizigandan qizidi* kabilar ajratib yoziladi.

Izofali birikma ajratib yoziladi. Bunda izofa undosh bilan tugagan so‘zlarga *i* shaklida, unli bilan tugagan so‘zga *yi* shaklida qo‘shiladi: *dardi bedavo, nuqtayi nazar, tarjimai hod* kabi. Lekin izofa yozilmaydigan so‘z, shuningdek, qismidan biri yoki har ikkisi o‘zbek tilida mustaqil ishlatilmaydigan so‘z qo‘shib yoziladi: *gulbeor (guli beor), dardisar* kabi.



MUSTAHKAMLASH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. Quyidagi topshiriqlarni bajaring.

✓ Yuqorida berilgan matn tarkibida chiziqcha bilan yozilgan so‘zlarni ajratib ko‘chiring hamda ularni rus tiliga tarjima qiling.

✓ Yuqorida berilgan matndan qo‘shib va ajratib yozish qoidasiga mos keladigan so‘zlarni terib yozishga harakat qiling va rus tiliga tarjima qilib, imlosini solishtiring.

2-topshiriq. Qavs ichidagi soʻzlarni chiqarib, amaldagi imlo qoidalarini asosida toʻgʻri yozing.

Qimmat (baho), Besh (ariq), hech (nima), erk (sevar), ming (oyoq), xom (tok), sof (dil), kul (rang), ish (yoqmas), laylak (qor), mosh (rang), hech (qachon), har (doim), koʻz (oynak), shirin (soʻz), baland (parvoz).

3-topshiriq. Quyidagi gaplarni oʻqing. Tarkibidagi qoʻshib yoziladigan va ajratib yoziladigan soʻzlar qoidasiga mos keluvchi birliklarni toping hamda shu soʻzlarni rus tiliga tarjima qiling.

1. Shirinsuxan, oqkoʻngil insonlar mevali daraxtga oʻxshaydi: hamma ulardan bahra oladi.
2. Nodon, kaltafahm odamdan yaxshi gap chiqmaydi.
3. Mehnatsevar, zahmatkash insonlar odamlarning koʻrki, ishyoqmaslar esa ularning ogʻriq joyidir.
4. Toshbagʻir odamdan yaxshilik kutma.
5. Sofdil va jonkuyar insonlar bilan bu dunyo oboddir.
6. Balandparvoz, quruq gapirgan odamning gapi bemaza qovunga oʻxshaydi.

4-topshiriq. Matnni oʻzbek tiliga oʻgiring. Qoʻshma soʻzlar imlosiga diqqat qiling. Inson hayotida talabalikda orttirilgan doʻstlarning oʻrni haqida suhbatlashing.

Что такое дружба?

Когда учишься в школе, кажется, что взрослая жизнь будет в каком-то другом мире. От настоящего не останется ничего. А на самом деле всё иначе. Друзья молодости оказываются самыми верными. Круг знакомых увеличился, но настоящие друзья – старые.

Молодость – это время сближения. Об этом нужно помнить и друзей беречь, потому что настоящая дружба очень помогает и в горе, и в радости. В радости ведь тоже нужна помощь. Неразделённая радость – не радость. А когда же наступит пора несчастий, пора утрат, опять нельзя быть одному. Горе человеку, если он один. Поэтому берегите молодость до глубокой старости.

5-topshiriq. Berilgan maqollar va topshiriqlardagi tovush oʻzgarishiga uchragan soʻzlarni aniqlab, qanday tovush oʻzgarishi yuz berganini tushuntiring.

1. Oʻnta boʻlsa, oʻrni boshqa, qirqta boʻlsa, qilgʻi.
2. Dushmanga sira boʻyningni egma.
3. Tepdim, terakka chiqdim.
4. El ogʻziga elak tutib boʻlmas.
5. Qoʻrqqanga qoʻsha koʻrinar.
6. Otdan baland, itdan past.
7. Sogʻliging – boyliging.
8. Mehnatdan kelsa boylik, turmush boʻlar

chiroyli. 9. Keladigan eshigingni qattiq yopma. 10. Qochoqqa shafqat yo‘q, qo‘rqoqqa hurmat.



Umumiy va xususiy kasbiy fazilatlar haqida fikr-mulohazalaringizni ayting.

Uyga topshiriq. “Ta’lim va biz” mavzusida kunimizda uchraydigan muammolar haqida matn yarating



**7-MAVZU. “VETERINARIYA YO‘NALISHLARI”.
GRAMMATIKA: O‘ZBEK TILINING ASOSIY IMLO
QOIDALARI: BOSH HARFLAR IMLOSI.**

Topshiriq. Matn bilan tanishib chiqing. O‘z tanlagan sohangiz haqida gapirib bering.

VETERINARIYA YO‘NALISHLARI

Veterinariya meditsinasi sohasida mutaxassislar tayyorlashda oliy ta’lim muassasalarida bir qator yo‘nalishlar bo‘yicha qabul jarayonlari amalga oshiriladi. Veterinariya medisinasi texnikumlari, oliy ta’lim muassasalarining bakalavr va magistratura bosqichlarida, jumladan, veterinariya medisinasi, veterinariya biotexnologiyasi, veterinariya diagnostikasi va laboratoriya ishlari, veterinariya farmatsevtikasi, veterinariya-sanitariya ekspertizasi kabi yo‘nalishlarda talabalar zamonaviy bilim olib, o‘z ko‘nikma va malakalarini oshirib boradilar. Bo‘lajak mutaxassislar hayvonalar anatomiyasi, fiziologiyasi hamda biokimyosi, biofizika, lotin tili va veterinariya atamaları, veterinariya mikrobiologiyasi va



immunologiyasi, epizootologiya va infeksiyon kasalliklar, ichki yuqumsiz kasalliklar, parazitologiya va invatsion kasalliklar, ekzootik va dekorativ hayvonlar kasalliklari haqidagi ilmlarni nazariy egallab, amaliy va laborator sharoitlarda ularni qo'llab, o'z tajribalarini orttirib boradilar.

Lug'at

soha – поприще, арена, отрасль

yo'nalish – направление

zamonaviy – современный

bilim – знание

ko'nikma – навык, сноровка

malaka – квалификация

nazariy – теоретический

amaliy – практический

tajriba – опыт



Matn yuzasidan savollar

1. Veterinariya sohasining qanday yo'nalishlari mavjud?
2. Siz qaysi yo'nalishda tahsil olasiz?
3. Siz tahsil olayotgan yo'nalish boshqa yo'nalishlardan qaysi jihatlari bilan farqlanadi?
4. Oliy ma'lumotli bo'lgach, qayerlarda mehnat faoliyatini olib borishingiz mumkin?
5. Ushbu yo'nalishning istiqboli uchun nimalar qila olasiz?



NAZARIY MA'LUMOT

Tayanch tushunchalar: o'zbek tilining asosiy imlo qoidalari: bosh harflar imlosi, atoqli otlarning bosh harf bilan yozilishi; tarkibli otlarning qismlarini yozishda bosh harflarning ishlatilishi; qisqartma otlarda bosh harflar imlosi.

Bosh harflar imlosi

1. Kishilarning ismi, otasining ismi, familiyasi, taxallusi bosh harf bilan yoziladi: *Sobirov Zokirjon Shukurjonovich, Abdurauf Fitrat* kabi.

2. Mamlakatlar, shaharlar, qishloqlar, shaharchalar, daryo, dengiz, tog', tepa, adir nomlari ham bosh harf bilan yoziladi: *Hindiston, Muborak, Urgut, Tentaksoy, Qo'ng'irtog', Qashqadaryo, Qora dengiz* va hokazo. Birikmaning ikkinchi (yo uchinchi) so'zlari atoqli ot bo'lsa, tabiiyki, ular ham bosh harf bilan yoziladi: *Markaziy Farg'ona, Katta Andijon kanali*.

3. Korxona, tashkilot, muassasa nomlari, adabiyot va san'at asarlari, sanoat va oziq-ovqat mahsulotlari, transport vositalarining nomlari bosh

harf bilan yoziladi: «*Sharq*» nashriyot-matbaa konserni, «*O‘zqishloqxo‘jmashxolding*» kompaniyasi, «*Damas*» avtomobili, *Ko‘kdumaloq kompressor stansiyasi*, *Xorazm chanqovbosti ichimliklar zavodi*, *Qizilqum fosforit kombinati*, «*Amudaryo*» jurnali, «*Shaytanat*» asari va hokazo.

4. Muhim tarixiy sanalar va bayramlar nomi bosh harf bilan yoziladi: *Mustaqillik kuni*, *Navro‘z bayrami*, *Xotira kuni*.

5. Oliy darajadagi davlat tashkilotlari, xalqaro birlashmalar nomi bosh harf bilan yoziladi: *O‘zbekiston Respublikasi*, *O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Raisi*, *Yevropa Ittifoqi Kengashi* kabi.

6. *Mudofaa vazirligi*, *Davlat test markazi*, «*Umid*» jamg‘armasi, *Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi* kabi tashkilotlar nomining birinchi harfi bosh harf bilan yoziladi.

7. Oliy darajadagi unvonlar va mukofotlar nomi tarkibidagi so‘zlar har biri bosh harflar bilan yoziladi: «*O‘zbekiston Qahramoni*» unvoni, «*Oltin Yulduz*» medali. Shuningdek, «*Sog‘lom avlod uchun*» ordeni, «*Shuhrat*» medali singari mukofotlarning birinchi so‘zi bosh harf bilan yoziladi.

8. Har bir gap bosh harf bilan boshlanadi: *Har qanday intilish, izlanish, ijod xalq manfaatlariga xizmat qilsagina u qadrlidir.* (A.Oripov)

9. She‘rlarda har bir misra bosh harf bilan boshlanadi: *Endi sen chorlasang, toki tanda jon, Labbay deyajakman, Vatan – onajon.* (A.O.)

10. Gap tamom bo‘lgandan keyin qo‘yilgan nuqta, so‘roq, undov belgilaridan keyin, shuningdek, ko‘p nuqtadan so‘ng keladigan gap bosh harf bilan boshlanadi: *Kim? Chaqir!*

11. Hurmat ma’nosida qo‘llangan Siz va *O‘zingiz* olmoshlari.

12. So‘zlarning birinchi harflaridan tuzilgan qisqartma otlar: *MDH*, *BMT*, *AQSH*. Qisqartma tarkibidagi bo‘g‘inga teng qismning birinchi harfi: *O‘zMU*, *ToshDTU* kabi.



MUSTAHLAKLASH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. *Quyidagi qisqartma otlar bilan tanishing va yoyilmasini eslab qoling. Bosh harflar imlosi bilan bog‘liq xatolik kuzatilgan o‘rinlarni aniqlang va to‘g‘rilang.*

DAN – Davlat Avtomobil nazorati, DTM – Davlat Test markazi, DTS – Davlat Ta’lim standartlari, BMT – Birlashgan Millatlar Tashkiloti, IIB – Ichki ishlar boshqarmasi, YTRK – Yoshlar Teleradio kompaniyasi, O‘zROAK – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasi, O‘zAS – O‘zbekiston Adabiyoti va san’ati, AES – atom elektr stansiyasi,

ToshDTU – Toshkent davlat texnika universiteti, YXHT – Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik tashkiloti, JIMT – Jahon Intellektual Mulk tashkiloti, IHT – Iqtisodiy Hamkorlik tashkiloti, O‘zDJTU – O‘zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti, TAI – Toshkent Aviatsiya instituti, XDP – Xalq demokratik partiyasi, AJ – aksionerlik jamiyati, QK – qo‘shma korxona, FTDQ – Fan va texnika davlat qo‘mitasi.

2-topshiriq. Berilgan so‘zlardan juft so‘zlar hosil qiling va ma’nolarini rus tiliga o‘g‘irgan holda tushuntiring.

Namuna: o‘g‘il va qiz - o‘g‘il-qiz

Katta va kichik, asbob va uskuna, kampir va chol, kun va tun, ota va ona, soya va salqin, kelish va borish, oldi va berdi, oldi va sotdi.

3-topshiriq. Mashqni davom ettiring.

Daryo nomlari: Sirdaryo, Oqdaryo, Qoradaryo...

Joy nomlari: Chuqursoy, Kengsoy, Oqtepa...

Shaxs nomlari: Gulchehra, Manguberdi...

Narsa-buyum nomlari: teshikkulcha, tokqaychi...

4-topshiriq. “O‘zbekiston daryolari” matnini davom ettiring. Matndagi atoqli otlarni jadvalga mos holda yozib boring va tuzilishini izohlang. Matnni davom ettiring.

O‘zbekiston daryolari

O‘zbekiston O‘rta Osiyoda joylashgan. O‘rta Osiyo qadimiy vaqtlarda Movarounnahr deb atalar edi. Bu ikki daryo oralig‘i degan ma‘noni bildiradi. Bu daryolar Sirdaryo va Amudaryo bo‘lib, ular O‘zbekiston hududidan oqib o‘tadi va Orol dengiziga borib quyiladi. Bulardan tashqari O‘zbekistonda yana Chirchiq, Zarafshon, Oqdaryo, Qorasuv, Bo‘zsuv kabi daryolar va anhorlar ham bor. Bizning shahrimiz yaqinidan...

Sodda	Yasama	Qo‘shma
Orol	O‘zbekiston	Qorasuv

5-topshiriq. Berilgan parchada nechta gap borligini aniqlang. Matnni bosh harflar imlosiga amal qilgan holda to‘g‘rilab ko‘chiring.

qadimiy madaniyat markazlaridan biri samarqand 2500-yildan ortiqroq tarixga ega arxeologik qazilmalardan ma‘lum bo‘lishicha samarqand dastlab siyob daryosi sohilida qad ko‘targan u so‘g‘diyona (so‘g‘d) davlatining poytaxti bo‘lib so‘g‘dcha smarakansa (ulug‘ shahar) deb yuritilgan yunonlar uni marokanda deb atashgan („u kim? bu nima?“ bolalar ensiklopediyasidan)

„Hayvonlar – bizning do‘stimiz“
Uyga topshiriq. Quyidagi rasm asosida hikoya matni yarating.



8-MAVZU. “VETERINARIYA TERMINLARI”. GRAMMATIKA: LEKSIKOLOGIYA. SO‘ZNING BIR VA KO‘P MA’NOLILIGI.

Topshiriq. Matnni o‘qing, o‘rganing.

VETERINARIYA TERMINLARI

Ma’lum bir fan yoki kasb-hunar doirasida aniq bir ma’noni ifodalash uchun qo‘llaniladigan so‘zlarga atama deyiladi. Atamalar ilmiy atamalar va kasbiy atamalarga bo‘linadi. Ma’lum bir fan doirasida qo‘llaniladigan atamalar ilmiy atamalar hisoblanadi. Ma’lum kasb-hunar doirasida aniq bir ma’noni ifodalash uchun qo‘llaniladigan so‘zlarga kasbiy atama deyiladi.

Veterinariya sohasida qo‘llanadigan asosiy tushunchalar veterinariya terminlari sanaladi. Veterinariya sohasida qo‘llanadigan ilmiy terminlar qoida, izoh talab qiladi: *konstitutsiya* - hayvonlar organizmining tashqi ta’sirga javob qaytarish xususiyati; *kuydirgi* - o‘tkir kechadigan, septik, abortiv, karbunkulyoz, ichak, o‘pka va lokalangina shaklida namoyon bo‘ladigan, o‘ta og‘ir, infeksiyon kasallik; *parazitizm* (yunoncha “parasites” – “tekinxo‘r”, “hamtovoq”) har xil turga mansub organizmlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning bir ko‘rinishi; *isitma* - organizmning

patogen faktorlarning ta'siriga umumiy himoya-moslashish javob berish reaksiyasi.

Veterinariyaga oid kasbiy atamalar maxsus qoida talab qilmaydigan, shu soha vakillari nutqida qo'llanadigan birliklardir: bint, burun qisqichlari va halqalari, burama qisqichlar, Perkussion bolg'acha, plessimetr, stetoskop, fonendoskop, auskultatsiya uchun choyshab, termometr, vazelin, paxta.

Veterinariya terminlari o'z (*muhandislik, ishlov berish, oziqlantirish, moddalar almashinuvi*) va o'zlashma (*fiziologiya, patologik, zooteknologiya, biotexnologiya*), tub (*ildiz, ombor, genetika, seleksiya*) va yasama (*buyrakusti bezi, sezgi organi, irsiyat*) bo'lishi mumkin.

Lug'at

ilmiy – научный

kasbiy – профессиональный

qisqich – клещи, зажим, щипцы, пинцет

halqa – кольцо, звено, цепи, круг

bolg'acha – молоток

choyshab – простыня

paxta – вата

ishlov berish – обрабатывать

oziqlantirish – подкормка, питание

moddalar almashinuvi – обмен веществ

ildiz – луковица, корень

ombor – склад

buyrakusti bezi – надпочечная железа

sezgi organlari – органы чувств

irsiyat – наследственность



Matn yuzasidan savollar

1. Termin deb nimaga aytiladi?
2. Terminlar necha xil bo'ladi?
3. Ilmiy va kasbiy terminlarning farqi nimada?
4. Tibbiyotga oid ilmiy terminlarning qaysilarini veterinariya sohasida ham ishlatish mumkin?
5. Qanday kasbiy terminlar faqat veterinariya sohasida qo'llanadi?



NAZARIY MA'LUMOT

Tayanch tushunchalar: leksikologiya bo'limi; so'z va uning ma'nolari; atash ma'nosi (leksik ma'no); bir ma'noli (monosemantik) va ko'p ma'noli (polisemantik) so'zlar; so'zlarning o'z va ko'chma ma'nosi.

SO‘Z TANLASH VA QO‘LLASH

Leksikologiya grekcha „lexis“ – „so‘z“, logos – „ta’limot“ so‘zidan olingan bo‘lib, „so‘z haqida so‘z“, „so‘z haqida ta’limot“ demakdir. **Leksikologiya** so‘zning lug‘aviy ma’nosi, lug‘aviy ma’no turi, ma’no munosabati, so‘zning shakl va ma’no munosabati, lug‘at tarkibidagi faol va nafaol so‘z, tarixiy jihatdan o‘zbek tili leksikasi, so‘zning hissiy va uslubiy xususiyati kabini o‘rganadi.

So‘zlar atash (lug‘aviy), grammatik va uslubiy ma’nolarga ega. So‘z anglatgan tushuncha shu so‘zning atash ma’nosidir. Masalan: *piyola* – choy ichishga mo‘ljallangan idish; **leksikologiya** – so‘z ma’nolarini o‘rganuvchi bo‘lim.

Nutqda so‘zni to‘g‘ri tanlash va qo‘llash nutq madaniyatining muhim shartlaridan hisoblanadi. Fikrni tinglovchiga tushunarli va aniq yetkazishda so‘zni to‘g‘ri tanlash lozim. **So‘z tanlashda** quyidagilarga e’tibor beriladi: so‘zning lug‘aviy ma’nosini bilgan holda tanlash; tanlangan so‘zni aniq talaffuz eta olishni nazarda tutish; so‘zning suhbatdoshlarga tushunarli bo‘lishini hisobga olish; so‘zning ma’no xususiyatlariga asoslanib, uni nutq maqsadiga muvofiq tarzda tanlash.

Tilda bitta ma’noga ega so‘zlar bir ma’noli so‘zlardir. *O‘n, Tashkent, cho‘lyalpiz* singari aniq bir ma’noni ifodalash uchun qo‘llanilgan so‘zlar bir ma’noli so‘zlar sanaladi. Atamalar, kasb-hunarga oid so‘zlar faqat bir ma’noni ifodalash uchun qo‘llanadi.



So‘zlar ikki va undan ortiq ma’noni ifodalasa, ko‘p ma’noli sanaladi. Avval bir ma’noda qo‘llangan so‘zning boshqa ma’nolarda ishlatilishi ko‘p ma’nolilikni vujudga keltiradi. Nutqiy jarayonda ikki va undan ortiq ma’noda qo‘llanuvchi so‘zlarga ko‘p ma’noli so‘zlar deyiladi. Masalan, *kitob* so‘zi ko‘p ma’noli so‘z: 1) „varaqdan tashkil topgan va muqovalangan, bosma yoki qo‘lyozma holidagi o‘quv quroli“; 2) „katta hajmli asarning qismi, bo‘limi“. Yoki *qo‘zichoq* so‘zi „qo‘yning bolasi“ va „aziz farzand“ ma’nosiga ega.

So‘z bir necha ma’noni bildirar ekan, uning birinchi va keyinchalik anglatgan ma’nosini farqlash kerak. Shu nuqtayi nazardan ma’noning ikki xili mavjud: a) o‘z (bosh) ma’no; b) ko‘chma (hosila) ma’no. So‘zlarning nutq jarayoniga bog‘liq bo‘lmagan atash ma’nosi o‘z ma’no sanaladi. So‘zning nutqda boshqa so‘zlarga bog‘lanib hosil qiladigan yondosh ma’nosi ko‘chma ma’no hisoblanadi. Masalan: *qushning qanoti* – o‘z ma’noda, *ota-onaning qanoti* – ko‘chma ma’noda.



MUSTAHKAMLASH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. *Quyida berilgan soʻzlarni oʻz va koʻchma maʼnoda qoʻllab, gap tuzing.*



2-topshiriq. *Berilgan birikmalarni koʻchiring. Koʻchma maʼnoda qoʻllangan soʻzlarning tagiga chizing.*

Iliq tabassum, shirin xotira, koʻngil koʻchalari, koʻngil bogʻlamoq, baxt chirogʻi, ishq oʻti, kino yulduzlari, togʻ bagʻri, gʻam buluti, arraning tishi, makkajoʻxorining sochi, gʻor ogʻzi, umr daftari, taqdir oʻyini.

3-topshiriq. *Quyidagi ilmiy maʼlumotlar bilan tanishing. Har bir bandni qanoatlantiruvchi misollar topib, 5 tadan yozing.*

Qoʻllanishiga koʻra		Atamalar ikki yoʻl bilan hosil boʻladi:	
atama		Umumxalq tilidagi soʻzlardan maʼnosini maxsuslashtirish orqali: ot, ildiz, hol, feʼl; kichik korxona, jamoʻa xoʻjaligi, tadbirkor, qoʻshma korxona	Boshqa tillardan ilmiy tushuncha uchun atama olish orqali: <i>kasr, musbat, manfiy, kompyuter, fermer, dizayn, birja, diler, aksiya, audit, auditor, fonema, valentlik, element, sinus, kosinus.</i>
Ilmiy – maʼlum bir fan doirasida qoʻllaniladi	Kasbiy – maʼlum kasb-hunar doirasida aniq bir maʼnoni ifodalash uchun qoʻllaniladi		

4-topshiriq. „Bir kuni...“. Talabalik hayotingizda oʻzingiz guvohi boʻlgan sohangiz bilan bogʻliq voqealar haqida soʻzlab bering.

5-topshiriq. Texnika taraqqiyotining zararli va foydali jihatlari haqida fikringiz. Talabalar ikki guruhga boʻlingan holda foydali va zararli jihatlarni sanashadi.



SUHBAT UCHUN MAVZU

Chin inson deganda kimni tushunasiz?

Uyga topshiriq. „*So‘zning qudrati*“ mavzusida kichik hikoya yarating.



9-MAVZU. “O‘ZBEKISTON QO‘RIQXONALARI”. GRAMMATIKA: TILNING LEKSIK BOYLIGINING RIVOJLANISHI: ICHKI MANBA VA TASHQI MANBA.

Topshiriq. Matn ustida ishlash.

O‘ZBEKISTON QO‘RIQXONALARI

Qo‘riqxona – belgilangan qonunlarga muvofiq, davlat tomonidan ajratilgan, alohida ilmiy yoki madaniy ahamiyatga ega bo‘lgan (tipik yoki noyob landshaft, o‘simliklar va hayvonotning dunyosi, foydali qazilmalar va b.), tabiiy obyekt joylashgan yer (hudud) yoki suv kengliklari; to‘laligicha xo‘jalik ishlaridan xoli tabiiy majmua.

XX asrning 90-yillarida BMTning “Milliy bog‘lar va ular maqomidagi qo‘riqxonalar ro‘yxati”ga 2618 ta alohida qo‘riqlanadigan hududlar kiritilgan. Qo‘riqxonalarda tabiiy majmuaga zarar yetkazadigan yoki tabiiy obyektlarga xavf tugdiradigan har qanday faoliyat (ov qilish, baliq tutish, daraxt kesish, foydali qazilmalarni kavlash, o‘t o‘rish, mol boqish va b.), shuningdek, qo‘riqxona faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan sanoat va qishloq xo‘jaligi obyektlari qurilishi ham taqiqlanadi. Qo‘riqxona hududiga ma‘muriyatning ruxsatisiz begona odamlar kiritilmaydi.

O‘zbekistonda qo‘riqxonalarning tashkil qilinishi, faoliyati, ta‘minoti va muhofazasi O‘zbekiston Respublikasining 2004-yil 3-

dekabrda "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi Qonuni bilan tartibga solinadi. Qo'riqxonalarda reja asosida ilmiy tadqiqot ishlari olib boriladi, tabiat yilnomalari, ilmiy hisobotlar (yillik, besh yillik) tuziladi, tavsiyanomalar, qo'riqxona hududi va milliy bog'larda qo'riqxona tartibiga rioya qilish talab va qoidalari ishlab chiqiladi.



O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining Ovchilik xo'jaliklari, qo'riqxonalar va milliy bog'lar boshqarmasi, Geologiya va mineral resurslar davlat qo'mitasi tasarrufida 9 ta davlat qo'riqxonasi bor: Zomin tog'-o'rmon davlat qo'riqxonasi, Badayto'qay davlat qo'riqxonasi, Qizilqum davlat qo'riqxonasi, Zarafshon davlat qo'riqxonasi, Surxon davlat qo'riqxonasi, Hisor davlat qo'riqxonasi, Chotqol biosfera qo'riqxonasi, Kitob davlat geologiya qo'riqxonasi, Nurota davlat qo'riqxonasi. O'zbekistonda, shuningdek, milliy bog' va buyurtma qo'riqxonalar faoliyat olib boradi. Ularda kamyob va davlat muhofazasiga olingan o'simlik va hayvonlarni topish mumkin.

Lug'at

kenglik – ширь, широто, просторность

maqom – статус, мотив

qo'riqxona – заповедник

ma'muriyat – дирекция

ta'minot – обеспечение

muhofaza – защита

ilmiy tadqiqot ishlari – научно-исследовательская работа

yilnoma – хроника, летопись

hisobot – отчёт

tavsiyanoma – рекомендация

tasarruf – владение, обладание, распоряжение

kamyob – редкий



Matn yuzasidan savollar

1. Qo‘riqxona qanday joy?
2. BMT tomonidan qayd etilgan qo‘riqlanadigan hududlar soni nechta?
3. O‘zbekistonda qo‘riqxonalarning faoliyatini yo‘lga qo‘yish qaysi me‘yoriy hujjat asosida amalga oshiriladi?
4. Qo‘riqxonalarda qanday tadbirlar amalga oshiriladi?
5. O‘zbekiston hududida nechta qo‘riqxona mavjud?



NAZARIY MA’LUMOT

Tayanch tushunchalar: o‘zbek tilining lug‘at boyligi; o‘z va o‘zlashgan so‘zlar; o‘zbek tilining boyish manbalari: ichki manba va tashqi manba; sohaga oid o‘zlashma so‘zlar; atamashunoslik; ilmiy va kasbiy atamalar.

O‘zbek tili leksikasi fan, texnika va san’atning rivoji bilan bog‘liq holda yildan-yilga boyib bormoqda. Boyish asosan ikki manbaga asoslanadi:

1.O‘zbek tilining ichki imkoniyatlari (ichki manba). Bunda tilning o‘z ichki imkoniyatlari asosida boyishi nazarda tutiladi. Ichki manba ham ikki ko‘rinishga ega: 1)so‘z yasash orqali yangi so‘zlar hosil qilinadi: *sinf dosh*, *limonzor*, *chorvachilik*, *davolash*, *MDH*, *SamDVMCHBU* va b. 2) shevalardan so‘z olish: *oyi*, *bolish*, *dugona*, *et*, *shoti*.

2. Boshqa tillardan so‘z olish (tashqi manba)

O‘zbek xalqi qadim zamonlardan buyon boshqa xalqlar bilan aloqada bo‘lib kelgan Bu tilimizda ham aks etgan. Qarindosh bo‘lmagan tildan kirib kelgan so‘z o‘zlashma, olinma yoki o‘zlashma qatlam deyiladi: *kitob*, *daftar*, *non*, *ma’rifat*, *telefon*, *komputer*. O‘zbek tilidagi o‘zlashma so‘zning asosiy qismini fors-tojik, arab tilidan o‘zlashgan hamda ruscha-baynalmilal (xalqaro) so‘z tashkil qiladi. Boshqa tillardan o‘zbek tiliga kirib o‘zlashib qolgan so‘zlarga olinma so‘zlar deyiladi. Masalan: *radio*, *televizor*, *tramvay*, *kollej*, *litsey*. So‘zlar bir tildan ikkinchi tilga xalqlar o‘rtasidagi siyosiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa aloqalar natijasida o‘zlashadi.

O‘zbek tilidan boshqa tillarga ko‘plab so‘zlar o‘tgan. Masalan, rus tiliga *chugun*, *tovar*, *kirpich*, *utyug*, *aliy*, *bumaga*, *topor*, *yarlik*, *bara*, *karakuli*, *arık*, *xirman*, *dengi*, *altin*, *izumrud*, *jemchug*, *bazar*, *kazna*,

chulok, karman, tulup, sarafan, kaftan, yapancha, tyubeteyka, xalat, kolbasa, kavardak, shurpa, plov, kumis, ayran, jir, arbuz, vishnya, uryuk, ayva, kumach, churek, xalva, alcha, injir, Barsunov, Baskakov, Tolmachov, Turgenev, Saltikov, Potivandv, Arakcheyev, Chirikov, Saratov, yessentuki, Berdichev, Arbatskaya kabi soʻzlar oʻtgan.

Veterinariyaga oid juda koʻplab soʻzlar, birliklar oʻzbek tiliga boshqa tildan kirib kelgan soʻz hisoblanadi: veterinariya, sanitariya, ekspertiza, parazitologiya, virus, mikrobiologiya va h.k.



MUSTAHHKAMLASH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. *Talabalik hayotingizda faol qoʻllanadigan soʻzlarga misol yozing. Ularni boyish manbasiga koʻra qaysi turga mansubligini ayting.*



Masalan:

universitet, rektor,
fakultet, dekan,
hemis, semestr,
guruh, yoʻnalish,
stipendiya,
davomat, ...

2-topshiriq. *Quyidagi gaplarni oʻzbek tiliga tarjima qiling. Qoʻriqxonalar haqidagi maʼlumotlarni yodda saqlang.*

1. Принято считать, что первый закон об охране окружающей среды и защите дикой природы был принят на Шри-Ланке в III веке до н. э. И тогда же царём Деванампиятисса был основан первый в мире природный заповедник.

2. Существуют 654 биосферных заповедника в 120 странах мира.

3. Самый большой заповедник — Пантанал (Бразилия), площадь 195000 квадратных километров.

3-topshiriq. *Quyidagi matnni internet maʼlumotlari asosida davom ettiring.*

O‘zbekistonda birinchi qo‘riqxona 1929-yilda Turkistonning g‘arb qismida tashkil qilingan bo‘lib, 8000 gektar (ga) maydoniga ega. Keyinchalik yer maydoni 15600 ga kengaytirilgan. U hozirda Zomin nomini olgan.



4-topshiriq. Maqollarni ikkinchi ustundagi jufti bilan birlashtiring.

Bilmaganin so‘rab o‘rgangan olim,	kulfat seni chetlab o‘tadi.
Boshqalarga yordam bersang,	olam seniki.
Yaxshi so‘z eshitmoqchi bo‘lsang,	hech kimga dushmanlik qilma.
Qatra-qatra yig‘ilib, daryo bo‘lur	Yomonning yomonligi tegar tor yerda.
Olim bo‘lsang,	yomon gap aytma.
Agar do‘stim ko‘p bo‘lsin desang,	orlanib so‘ramagan o‘ziga zolim.
Yaxshining yaxshiligi tegar har yerda,	oz-ozdan o‘rganib, dono bo‘lur.

5-topshiriq. Quyida berilgan sohaga oid matnni o‘qing. Matn tarkibidagi o‘zbek tiliga boshqa tillardan kirgan so‘zlarni toping va izohini yozing.

Vitaminlar

Vitamin so‘zi yunoncha Vita so‘zidan olingan bo‘lib, “hayot” degan ma‘noni bildiradi. Ularni 1880 yilda rus olimi N. Lunin hamda 1912-yilda esa K.Funk kashf etganlar. Tarkibida turli-tuman organik moddalar saqllovchi vitaminlar fermentlar komponentlari bo‘lib hujayrada katalizator rolini o‘ynaydi. Organizmda vitaminlar yetishmasa modda almashinish jarayoni buziladi. Agar ular mutlaqo bo‘lmasa organizmning hayotiy funksiyalari buziladi. Hozirgacha 40 ga yaqin vitaminlar

aniqlangan, ularning hammasi toza holda sanoatda ishlab chiqilmoqda va oziq-ovqat ratsionida ishlatilmoqda. Vitaminlarning nomlari yunon alfavitining bosh harflari bilan belgiladi. Shu sababli, ularni A, V, C, D vitaminlari deb aytiladi. Vitaminlar o'simliklarning ma'lum bir qismlarida joylashadi. Masalan B (B₁ B₂ va boshqalar) guruh vitaminlar ko'pincha urug' murtagi va po'stida yoki javdar, bug'doy kabi o'simliklarning yosh maysalarida bo'ladi. S vitamini namatak, limon, qora smorodina, mevalarida hamda piyoz va sarimsoq o'simligining piyoz boshlarida, E vitamini o'simlik yog'larida bug'doy, makkajo'xori maysalarida, sitrus o'simliklari va pomidor mevasida, K vitamini chayon o'ti bargida, sabzi ildizmevasida ko'p bo'ladi.

Kishilarning butun asab sistemasining buzilishi organizmda V vitamini yetishmaganligidandir. Bu guruh vitaminlar (B₁ B₂ B₃) pivo achitqisi zamburug'ining tarkibida ham ko'p. Kishi organizmi uchun eng muhim vitaminlarga B₂, B₆ va B₁₂-lar kiradi. V₁₂ vitamini kamqonli kasalliklarni davolashda ishlatiladi. Qon tarkibidagi eritrotsitlar V₁₂ vitamini yetarli bo'lgandagina to'la hosil bo'ladi. C vitamini kishilarni singa kasalligidan xalos etadi. A vitamini hayvonlar jigarida provitamin yoki karotindan hosil bo'ladi. Karotin esa Daur namatagi (Rosa dahuriCa), ryabina mevalarida hamda sebarga, ismaloq, chayon o'ti barglarida va kamroq miqdorda pomidor, yejevika, chernika, maymunjon, qoraqat, olcha, o'rik, shaftoli mevalarida bo'ladi.



SUHBAT UCHUN MAVZU

So'z erkinligi bizning mamlakatimizda...

Uyga topshiriq. O'zbek tilidagi o'zlashma so'zlarni toping va jadvalni to'ldiring.

Texnikaga oid so'zlar	Ta'limga oid so'zlar	Sportga oid so'zlar	Veterinariyaga oid so'zlar	Transportga oid so'zlar	Ijtimoiy tarmoqlarga oid so'zlar



10-MAVZU. “O‘ZBEKISTONNING HAYVONOT VA NABOTOT DUNYOSI”.

GRAMMATIKA: SINONIMLAR VA ULARNING TURLARI: LEKSIK, FRAZEOLOGIK VA MORFOLOGIK SINONIMLAR.

Topshiriq. Matn ustida ishlash.

O‘ZBEKISTONNING HAYVONOT VA NABOTOT DUNYOSI

O‘zbekistonning hayvonot dunyosi. O‘zbekistonning hayvonot dunyosi xilma-xil bo‘lib, O‘rta Osiyodagi boshqa mamlakatlar singari subtropik mintaqalarga xos turlarga ega. Respublikada sut emizuvchilarning 6 turkumi: *hasharotxo‘rlar* (6 tur), *ko‘lqanotlilar* (19 tur), *tovuqsimonlar* (2 tur), *kemiruvchilar* (42 tur), *yirtqichlar* (23 tur) va *juft tuyoqlilar* (8 tur)ga mansub 100 tur uchraydi.

O‘zbekiston qushlarning 24 turkumiga mansub 410 ga yaqin turi bor, ulardan 184 turi chumchuqsimonlar turkumiga kiradi.

Sudralib yuruvchilarning 58 turi mavjud, jumladan, toshbaqalarning 1 turi (cho‘l toshbaqasi) ma‘lum. Tangachilar turkumining 58 (kaltakesaklar-38, ilonlar-20) turi uchraydi. Ilonlarning 5 turi: *kapcha ilon*, *qalqontumshuq ilon*, *qo‘lborilon*, *charx ilon*, *cho‘l qora ilon*ni zaharli hisoblanadi.

Suvda hamda quruqlikda yashovchilarning 3 turi: yashil qurbaqa (turon qurbaqasi va osiyo tog‘lari qurbaqasi kenja turlari), *ko‘l baqasi* va *danatin qurbaqa* uchraydi.

Mamlakat suv havzalarida baliqlarning 106 turi tarqalgan. Ular 2 katta guruhga bo‘linadi. Birinchi guruhga daryo va soylarida qadimdan yashab kelayotgan mahalliy baliqlar (*amudaryo guldor balig‘i*, *shirmohi*, *turkiston mo‘ylovkori*, *zog‘ora baliq*, *laqqa* va boshqalar), ikkinchi guruhga esa, asosan, suv omborlarda iqlimlashtirilgan baliqlar (*issiqko‘l guldor balig‘i*, *pelyad*, *oq amur*, *orol moybalig‘i*, *sharq oqchasi*, *kumush tovon baliq*, *oddiy do‘ngpeshona*, *oq sla*, *ilonbosh* va boshqalar) kiradi.

Hasharotlar juda xilma-xil bo‘lib, 16000 dan ortiq turi tarqalgan. Hasharotlarning 40 ga yaqin turkumi ma‘lum. Ulardan *tog‘riqanotlilar* (300 dan ortiq tur), *tengqanotlilar* (shiralar - 330-350, jizildoqlar - 600-700 tur), *tangacha qanotlilar* (1500 ga yaqin tur), *qattiqqanotlilar* (2000 ga yaqin tur), *pardaqanotlilar* (1500 ga yaqin tur), *ikkinqanotlilar* (3500-4000 tur), *chala qattiqqanoqlilar* (600-700 tur) keng tarqalgan.

Respublika faunasida o‘rgimchaksimonlardan chayonlarning 10 ga yaqin, falangalarning 20 ga yaqin, o‘rgimchaklarning bir necha yuzlab

turi uchraydi. O'rgimchaksimonlardan, ayniqsa, *kanalar* xilma-xil bo'ladi. Suv havzalarida kanalarning 20 dan ko'proq turi tarqalgan. 100 dan ortiq tur *kanalar* odam va hayvonlarda parazitlik qiladi. Bir hujayralilar ham juda xilma-xil bo'ladi. Suv havzalarida soxta oyoqliklar, xivchinlilar, infuzoriyalar ko'p uchraydi. Chuchuk suv havzalarida to'garak chuvalchanglar (120 dan ko'proq tur) bor. Quruqlikda yashovchi qorinoyoqli mollyuskalarning 171 turi ma'lum.



Tabiatni muhofaza qilishning asosiy vazifasi o'simlik olami va hayvonot dunyosini turlarining hilma xilligini genofondini saqlab qolish hisoblanadi



O'simliklar dunyosi. O'zbekiston o'simliklar dunyosi xilma-xil bo'lib, xalq xo'jaligida muhim ahamiyatga ega. So'nggi yillarda O'zbekiston Fanlar akademiyasi Botanika institutida olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, o'lkada 166 oilaga mansub 4500 ga yaqin yuksak o'simlik turlari borligi ma'lum bo'ldi. Bularning aksariyat qismini *qoqio'ldoshlar* (260 ga yaqin tur) *karamdoshlar*, *yalpizdoshlar*, *sho'radoshlar*, *loladoshlar*, *chinniguldoshlar*, *yoronguldoshlar*, *govzabondoshlar*, *ra'nodoshlar* kabi yirik oilalarning vakillari tashkil etadi.

O'zbekiston florasida paydo bo'lishi, tarqalishi, tur, turkum va oilalarining umumiy o'xshashligi jihatidan Markaziy Osiyodagi boshqa mamlakatlar, xususan, Eron, Afg'oniston o'simliklar dunyosiga juda yaqin turadi.

O'zbekistonda o'simliklar o'smaydigan joy yo'q. Ularni tekislikdagi qumli cho'llardan tortib, qorli baland tog'largacha bo'lgan turli rel'yef va tuproq sharoitida uchratish mumkin.

Lugʻat

hayvonot dunyosi – животный мир

nabotot dunyosi – растительный мир

xilma-xil – разнообразный, различный, всевозможный

singari – как, точно, словно, вроде

mintaqa – пояс, регион, зона

tadqiqot – исследование

oʻlka – край

aksariyat – большинство

Matn yuzasidan savollar

1. Hayvonot dunyosi deganda nimani tushunasiz? Unga nimalar kiradi?
2. Nabotot dunyosi deganda nimani tushunasiz? Unga nimalar kiradi?
3. Oʻzbekiston subtropik mintaqa sifatida qaysi hududlarga xos hayvonot va nabotot dunyosiga ega?
4. Hayvonot dunyosida qanday turkum va turlarni bilasiz? Turkum va turlarning farqi qanday?
5. Oʻsimliklar dunyosining qanday oilalarini bilasiz?



NAZARIY MA'LUMOT

Tayanch tushunchalar: soʻzlarning shakl va maʼno munosabatiga koʻra turlari: sinonim, antonim, omonim, paronim soʻzlar; til birliklarida sinonimlik hodisasining yuzaga chiqishi: leksik, frazeologik va morfologik sinonimlar; sinonim (maʼnodosh) soʻzlarning tildagi ahamiyati.

SOʻZNING SHAKL VA MAʼNO MUNOSABATIGA KOʻRA TURLARI

Soʻz shakl va maʼno munosabatiga koʻra maʼnodosh, zid maʼnoli, shakldosh va talaffuzdosh soʻzlarga boʻlinadi.

Qarama-qarshi maʼnoli soʻzlarga zid maʼnoli soʻz (antonim)lar deyiladi: *yaxshi – yomon, baland – past, katta – kichik, bormoq – kelmoq, oldin – keyin, koʻp – kam*.

Aytilishi va yozilishi bir xil boʻlib, turli atash maʼnolarini bildirgan soʻzlarga shakldosh soʻz (omonim)lar deyiladi: *yoz, oʻt, ol, yon, bor, til, soch, tut, tik, yosh, qoʻy, koʻk* va b.

Faqat bir tovushi bilan farqlanuvchi, lekin bir xil talaffuz qilinadigan soʻzlarga talaffuzdosh soʻz (paronim)lar deyiladi: *xush – xoʻsh, yod – yot, xiyla – hiyla, ahil – ahl, ijobiy – ijodiy, asr – asir* va boshqalar.

Bir umumiy maʼnoni ifodalovchi ikki va undan ortiq soʻzlarga maʼnodosh soʻz (sinonim)lar deyiladi. Masalan, *odam, inson, kishi*,

bashar; yel, bo‘ron, sabo, nasim; katta, buyuk, ulug‘; gapirdi, aytdi, so‘zladi, dedi, uqtirdi, bayon etdi va b.

Ma‘nodosh so‘zlar bir ma‘noni xilma-xil so‘zlar orqali turli nozik ma‘no qirralari bilan ifodalashda, so‘z sehrini namoyish etishda, nutqni bezashda, ta‘sirchanligini ta‘minlashda katta ahamiyatga ega.

Sinonimlar til boyligi bo‘lib, avvalo, shaxs va predmetlarning eng nozik ma‘no bo‘yoqlarini ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan: *Men buyuk yurt o‘g‘lidirman, Men bashar farzandiman.* (E.V.)

Ikkinchidan, sinonimlar gapdagi takrorga yo‘l qo‘ymaydi. O‘rinsiz takror nutqqa putur yetkazadi.

Sinonimlar badiiy uslub vositasi bo‘lib, adabiy tilni boyitish manbalaridandir.

Sinonimlar nutqni ravon va ta‘sirli qiladi: *Shu qadar chiroyli, shu qadar go‘zal! Minglab gulistondan afzaldur bu joy. Minglab gulistonga, minglab chamanga Bahuzur ko‘rk bo‘lur undagi chiroy.* (U.)

Ma‘noni kuchaytirish va ta‘kidlash uchun sinonimlar birin-ketin qo‘llanadi: *Ajoyib husndor, go‘zal fasl bu! Sadoqatli, qadrdon, oshno-yu, do‘st-u yorim bor.* (Habibiy)

Sinonimiya quyidagiga bo‘linadi: **a) lug‘aviy (leksik) sinonimiya**, ya‘ni so‘z ma‘nodoshligi: *ish, yumush; gapirmoq, so‘zlamoq; b) ibora (frazologik) ma‘nodoshligi*: *boshi osmonga yetdi, terisiga sig‘madi; d) qo‘shimcha (affiks) ma‘nodoshligi*. Bu o‘z o‘rnida ikkiga bo‘linadi: **1) so‘z yasovchi qo‘shimcha ma‘nodoshligi**: -ser, -don; -siz, -be; **2) grammatik shakl ma‘nodoshligi**: -yap, -yotir, -moqda kabi; **3) sintaktik ma‘nodoshlik**: *Usta dedi: - O‘qimishli odamning aqli to‘liq bo‘ladi, dunyoning bordi-keldisidan xabardor bo‘lib turasan. – Usta o‘qimishli odamning aqli to‘liq bo‘lishi, dunyoning bordi-keldisidan xabardor bo‘lib turishini aytdi. Har kim ekanini o‘radi. -Kim nima eksa, shuni o‘radi. Qayerga suv kelsa, shu yerda hayot bo‘ladi. -Suv kelgan yerda hayot bo‘ladi.*



MUSTAHLKAMLASH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. Berilgan gaplarda nutqalar o‘rniga qavs ichidagi so‘zlardan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. Egilganga egilgin boshing yerga tegguncha, kekkayganga kekkaygin boshing ...ka yetguncha (osmon, ko‘k, samo).
2. Do‘st achitib gapiradi, ... kuldirib (yov, g‘anim, dushman).
3. ... do‘st ayrilmas (o‘lchovli, sanoqli, hisobli).

4. ... sharofati bilan yurtimizda ko‘plab bog‘lar barpo qilindi (mustaqillik, ozodlik, hurlik) .
5. Uning dastxati ... (chiroyli, go‘zal, suluv) ekan.
6. Shahrimizda birin-ketin... (buyuk, katta, azim) binolar qad ko‘tarmoqda.

2-topshiriq. Gaplarda keltirilgan so‘zlardan to‘g‘rilarini tanlab ostiga chizing.

- 1.Navro‘z bayrami arafasida universitet hovlisiga ko‘plab daraxt nihollari o‘tkazildi / o‘tqazildi.
- 2.Bu yerlar azaldan boyning *tasarrufida* / *tasavvurida* edi.
- 3.Besh *asirkim* / *asrkim* nazmiy saroyini Titratadi zanjirband bir *sher* / *she’r*.
- 4.Talabalar berilgan topshiriqni o‘z vaqtida bajarishga *muvaqqat* / *muvaffaq* bo‘ldilar.
- 5.Dardiga *da’vo* / *davo* izlab kirmagan eshigi qolmadi.

3-topshiriq. Ustozingiz yordamida berilgan sinonim so‘zlarning ma’nolarini farqlarini aniqlang.

Ko‘rkam, go‘zal, chiroyli, sohibjamol, barno, suluv;
 avaylamoq, ayamoq, ehtiyot qilmoq, ardoqlamoq, e‘zozlamoq;
 botir, jasur, dovyurak, qo‘rqmas, shijoatli, mard;
 butunlay, butkul, batamom, tamomila, tamom, mutlaqo, paqqos, birato‘la;
 xursandlik, shodlik, baxtiyorlik, mamnunlik, masrurlik.

4-topshiriq. Quyidagi rasmlardan foydalanib omonim, sinonim va antonim so‘zlar toping va ular ishtirokida gaplar tuzing.





5-topshiriq. “Zumrad va Qimmat” ertagidagi Zumradning ijobiy xislatlari va Qimmatning salbiy xususiyatlari quyidagicha davom ettiring.

Zumrad
Mehnatsevar

Qimmat
dangasa



SUHBAT UCHUN MAVZU

Agar deputat bo‘lsam...

Uyga topshiriq. Quyida keltirilgan so‘zlarning ma’nodoshlarini toping va jadvalni to‘ldiring.

Yog‘du, noma, inson, yalqov, manglay, tafovut, noto‘g‘ri tanbal, maktub, tag‘in, yanglish, ishtirok etmoq, kishi, ishyoqmas.

xato noto‘g‘ri yanglish

dangasa

nur

peshana

xat

qatnashmoq

yana

odam

farq



11-MAVZU. “KITOB MUTOLAASI – MA’NAVIY KAMOLOTGA ERISHISH YO’LI”. GRAMMATIKA: TILNING PAREMIOLOGIK FONDI.

Topshiriq. Matn ustida ishlash.

KITOB MUTOLAASI – MA’NAVIY KAMOLOTGA ERISHISH YO’LI

Har birimiz, qaysi kasb egasi bo‘lmaylik, imkon va sharoitimizdan kelib chiqib, kitob bilan muayyan darajada muloqotda bo‘lamiz. O‘lchovli hayotimizning ma‘lum bir qismini shunga sarf qilamiz. Mutolaa borasida ham har bir kishi o‘zi uchun zarur bo‘lgan, yangi kuch hamda ruhiy ta’sir baxsh eta oladigan kitoblarnigina topa bilishi maqbul. Mingta loqayd o‘quvchidan o‘nta yaxshi kitobxon afzal. Shunchaki mutolaa – bu diqqatni to‘plashga majbur etuvchi mashg‘ulot va ovunish uchungina o‘qish – o‘z-o‘zini aldashdir. Loqayd kishilar uchun, umuman, biror narsadan ovunishning hojati yo‘q. Aksincha, ular hamma joyda diqqat-e’tiborli bo‘lishlari, qayerda nima ish bilan mashg‘ul bo‘lishmasin, nima haqda fikr yuritishlaridan qat’i nazar, o‘zlarini butun vujudlari bilan voqealar girdobida his etmoqlari zarur.

Hayot qisqa, uning poyonida hech kimdan o‘qilgan kitoblar soni so‘ralmaydi. Biror foydasi bo‘lmasa, o‘qishga vaqt sarflash aqllilik belgisi emas, aksincha, koni ziyon emasmikin? Hayotda bosgan har bir qadaming kabi o‘qishdan ham biron natija kutiladi. Fikr-mulohaza qilmasdan o‘qish – xushmanzara tabiat qo‘ynida ko‘zni bog‘lab yurmoq demakdir. Biz o‘zimizni va turmushimizni unutish uchun emas, balki hayot jilovini yanada ongliroq ravishda anglash uchun o‘qishimiz kerak. Kitobga dimog‘dor o‘qituvchiga qaragan qo‘rqoq o‘quvchi singari emas, balki eng baland cho‘qqini zabt etmoqqa shaylangan shiddatkor alpinist kabi yondashmoq talab etiladi.

Hermann Hesse, *olmon adibi, Xalqaro Nobel mukofoti sovrindori*
yoshlikjurnali.uz

Lug‘at

Mutolaa – внимательное, вдумчивое чтение

baxsh etmoq – дарить, одарять, даровать

maqbul – приятный, приемлемый, угодный, желательный

loqayd – равнодушно, апатично, беззаботно

afzal – лучший, преимущественный, предпочтительный

Shunchaki – просто так, не всерьёз

ovunish – утешаться, успокаиваться

girdob – пучина, водоворот, омут, вихрь

royon – конец, край, предел

jilov – повод, поводья

dimog‘dor – высокомерный, горделивый, надменный

zabt etmoq – завоёвывать, оккупировать, захватывать

yondashmoq – подходить, приближаться



Matn yuzasidan savollar

1. Kitob nima uchun insonni kamolotga boshlovchi vosita hisoblanadi?
2. Qanday qilib kitob o‘qishni sevimli mashg‘ulotga aylantirish mumkin?
3. Loqayd kitobxon deganda qaysi toifadagi kishilarni tushunasiz?
4. Yurtimizda kitobxonlikni rivojlantirish uchun qanday ishlar amalga oshirilmoqda?
6. Nima uchun bugungi kunda aksariyat insonlar kitob o‘qishga e’tiborsiz munosabatda bo‘lishadi?



NAZARIY MA’LUMOT

Tayanch tushunchalar: Paremiologiya. Parema turlari. Tilning paremiologik fondi. Iboralar va ularning nutqdagi ahamiyati. Ibora va tasviriy ifodalarning farqi. Maqollar va ularning nutqimizdagi o‘rni. Hikmatli so‘zlar.

BARQAROR BIRIKMALAR

Nutqiy jarayonda fikrimizni bayon qilish uchun so‘zlar yordamidangina emas, balki bir necha so‘zlarning barqaror bog‘lanishidan hosil bo‘lgan birikmalardan ham foydalanamiz. Masalan, Toshkentdagi istiqlo davrida qurilgan inshootlarni ko‘rib, *og‘zim ochilib qoldi*.

Ikki va undan ortiq so‘zlarning o‘zaro barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutq jarayoniga tayyor holda olib kiriluvchi, til egalari xotirasida imkoniyat sifatida mavjud bo‘lgan til birliklari **barqaror birikmalar** deyiladi.

Barqaror birikmalarni o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limi paremiologiya (lot. parema – barqaror, logos – ta’limot), barqaror birikma parema deyiladi. Barqaror birikmalar quyidagi guruhlariga bo‘linadi: **1. Frazologizmlar. 2. Maqollar. 3. Aforizmlar.**

Ma’no yaxlitligiga ega bo‘lgan va nutqiy jarayonga qadar ikki va undan ortiq so‘zlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi ko‘chma ma’nodagi barqaror birikmalarga **frazologizmlar** deyiladi. Masalan, *qulog‘i ding bo‘lmoq-hushyor*

bo'lmoq, qovog'i osilmoq-xafa bo'lmoq, og'zining tanobi qochdi-quvonmoq kabi.

Grammatik jihatdan gap holida shakllangan, xalq donishmandligi natijasida vujudga kelgan barqaror birikmalar **maqollar** sanaladi. Masalan: *Shamol bo'lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi. Bolta tushguncha, to'nka dam oladi.*

Grammatik jihatdan gap holida shakllangan, xalqning turmush tajribasiga tayanib ma'lum bir shaxs tomonidan yaratilgan qisqa, obrazli barqaror birikmalarga **hikmatli so'zlar (aforizmlar)** deyiladi. Masalan: *Odami ersang demagil odami, Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami.* (A.Navoiy)



MUSTAHKAMLASH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. Ko'chiring. Iboralarning ostiga chizing. Ma'nosi qaysi so'zga to'g'ri kelishini ayting.

1. Ba'zan dovon oshishingga ko'zing yetmay, yuraging orqangga tortib ketadi.
2. Yog'liq ovqatlarning damini kesish uchun, odatda, choy ichiladi.
3. O'z zimmangizga olgan vazifani bajarishda astoydil bo'ling.
4. Rabbimning marhamatiga loyiq yashamoq, dunyo noz-ne'matlariga shukur keltirmoq, dard yopishganida sabr-toqatli bo'lmoq, baxtli onlarida es-hushini yig'ishtirib olmoq chinakam mo'minning fazilatidir.
5. Kasbingiz sirlarini ipidan ignasigacha chuqur o'rganing, shunda muvaffaqiyatlar eshigi ochiladi.


2-topshiriq. Maqollarni davom ettiring

Buzoqning yugurgani
Yaxshi otga bir qamchi.....
Bemaza buzoq
Yer haydasang kuz hayda.....
It hurar
Baliq boshidan
Tekinga mushuk
Bo'rining yesa ham og'zi qon.....
Ayrilganni
Qush uyasida
Chumchuq so'ysa ham

3-topshiriq. Quyida berilgan maqollar va matallarning ma'nosini sharhlang.

1.Do'sting bo'lsa bog'ing chamandir, Do'sting bo'lmagani-fe'ling yomondir. 2.Arslon izidan qaytmas, yigit so'zidan. 3.To'g'ri o'zadi, egri to'zadi. 4.Saxiy bilan baxil bir buloqdan suv ichmas. 5.Ko'z qayerda bo'lsa, mehr ham o'sha yerda. 6.Er yigitning quvvati-el quvvati. 7.Ayolning sarishtasi-odamning farishtasi. 8.To'g'ri yurdim yetdim murodga, Egri yurdim qoldim uyatga. 9.Ko'ngli qoraning yuzi qora. 10.Yaxshiga qora yuqmas, yomonga el boqmas.

4-topshiriq. Rebuslarni yeching. Hosil bo'lgan iboralarni bilib oling.

1  dan 

2  i 4
 ning  ini 

5-topshiriq. “Hunar hunardan unar” maqolining izohini so‘zlab bering. Maqollar zamirida qanday ma’nolar yashirinligi haqida fikr yuriting.



SUHBAT UCHUN MAVZU

Jamiyatning bir bo‘lagiman.

Uyga topshiriq. Universitet binolari va hovlisidagi afishalarda yozilgan hikmatli so‘z va maqollardan namunalar yozib keling (aynan qayerdan yozganingizni ko‘rsating).



12-MAVZU. “VETERINARIYA SOHADAGI YUTUQLAR”. GRAMMATIKA: SO‘Z YASALISHI.

Topshiriq. Matn ustida ishlash

VETERINARIYA SOHADAGI YUTUQLAR

Mamlakatimizda veterinariya sohasini rivojlantirish uchun keyingi yillarda hukumatimiz juda ko‘p ishlarni amalga oshirdi.

Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi tarkibidagi veterinariya boshqarmasi ajratilib, Vazirlar Mahkamasi qoshida alohida qo‘mita etib tashkil qilindi.

Veterinariya mutaxassislarini tayyorlashga ham katta e‘tibor berildi. Oldin bitta fakultetda umumiy veterinariya vrachlari tayyorlangan bo‘lsa, hozir bir nechta fakultetda tarmoqlar bo‘yicha veterinariya mutaxassislari tayyorlanmoqda.

2022-yil 31-mart kuni Prezidentimizning PQ-187 sonli qarori bilan institut “Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti”ga aylantirildi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda ozuqa bazasini mustahkamlash, go‘sht yetishtirishni kengaytirish maqsadida chorva mollari va parrandalar bosh sonini barqaror oshirishni ta‘minlash, veterinariya xizmatlari sifatini yaxshilashga alohida e‘tibor qaratib kelinmoqda.

Ayniqsa, sohada innovatsion usullardan keng foydalanish, sifatli ozuqa bazasini mustahkamlash, epizootik osoyishtalik va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta‘minlashda ilmiy yondashuvni ta‘minlash borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Lug‘at

hayvonot dunyosi – животный мир

nabotot dunyosi – растительный мир

xilma-xil – разнообразный, различный, всевозможный

singari – как, точно, словно, вроде

mintaqa – пояс, регион, зона

tadqiqot – исследование

o‘lka – край

aksariyat – большинство

Matn yuzasidan savollar

1. Veterinariya sohasini rivojlantirishga nima uchun alohida e‘tibor qaratilmoqda?

2. Veterinariya sohasida amalga oshirilayotgan ishlardan namunalar sanab bera olasizmi?
3. Institutning universitetga aylantirilishi qanday imkoniyatlar eshigini ochadi?
4. Innovatsiya deganda nimani tushunasiz?
5. Xalqaro hamkorlik veterinariya sohasini rivojlantirishda qanday ahamiyatga ega?



NAZARIY MA'LUMOT

Tayanch soʻzlar. Soʻz yasalishi. Tub va yasama soʻzlar. Morfologik (affiksatsiya) va sintaktik (kompozitsion) usul bilan soʻz yasalishi. Soʻz yasash asosi. Faol soʻz yasovchi qoʻshimchalar.

Soʻzlar yasalishiga koʻra tub va yasama soʻzga boʻlinadi. Tub soʻz deb soʻzning turli shakllarida asosdagi lugʻaviy maʼnosi saqlanib qolgan birliklarga aytiladi. Masalan: vatan – vatanimiz, doʻst – doʻstlar – doʻstlaring – doʻstlaringdan, katta – kattaroq, koʻk – koʻkish – koʻkishroq. Yasama soʻz deb yasovchi vosita (soʻz yasovchi qoʻshimcha yoki asos) yordamida hosil qilingan yangi maʼnoli birlikka aytiladi. Masalan: vatan – vatandosh, doʻst – doʻstlik, katta – kattalashmoq, koʻk – koʻkarmoq.

Oʻzbek tilida ikki xil usulda yangi soʻz yasaladi: 1. Morfologik (yoki affiksatsiya) usul – yasovchi qoʻshimchalar orqali: *ishchi, aqlli*. **2. Sintaktik (yoki kompozitsiya) usul** – soʻzlarning qoʻshilishi orqali: *belbogʻ, yozib qoʻymoq*.

Qoʻshimcha qoʻshilayotgan soʻz asos, hosil boʻlgan soʻz **yasalma** deyiladi. Soʻzda soʻz yasovchi qoʻshimcha birdan ortiq boʻlishi mumkin: *dard-mand-lik, darmon-siz-lan-moq, til-shunos-lik, tekis-la-gich, ba-davlat-lik, be-maʼni-garchilik, bos-qin-chi, vafo-dor-lik, no-tin-ch-lik, be-oʻxsha(o)-v-lik*.

Bir asosdan yasalgan soʻz **asosdosh** soʻz deyiladi. Masalan, *gulla, gulchi, guldori, guldor* kabi. Turli grammatik qoʻshimcha olgan bir soʻz koʻrinishlari oʻzakdosh sanalmaydi: *kitob, kitobning, kitobni, kitobdan, kitobda* kabi.

Ikki mustaqil soʻzning birikib yasalishidan qoʻshma soʻz hosil boʻladi: *sadarayhon, sotib oldi, tuyaqush, soddadil, biroz, bir nafas, birpas*. Juft va takror soʻz yangi lugʻaviy maʼno anglatrsa, yasama soʻz hisoblanadi: *bordi-keldi (aloqa), issiq-sovuq (ahvol), quyuq-suyuq (ovqat); yoʻl-yoʻl, yor-yor, izma-iz*.

MUSTAHKAMLASH

1-topshiriq. Berilgan soʻzlardan asosdosh soʻzlar yasang, soʻngra ulardan ot, sifat va feʼl shakllarini hosil qilib, har qaysisini alohida guruhlariga ajratib yozing.

Gul, qalam, bil, yoz, aql, suv, ish, shifo, huquq, oʻqi.

2-topshiriq. Maqollarni oʻqing. Soʻz yasovchi qoʻshimchalar yordamida yasalgan soʻzlarni aniqlab, ularni izohlang.

Daraxt ildizi bilan kuchli, inson-doʻstlari bilan. Qalbaki doʻst ochiq dushmanidan yomon. Yoʻldoshini tashlagan yoʻlda qolur. Yiqilganda boʻlmasa tirak, vafosiz doʻst nimaga kerak? Rejasiz ish-qolipsiz gʻisht. Hushyorlik-mustahkam qoʻrgʻon. Ezgulikning cheki yoʻq. Bahorgi harakat-kuzgi barakat. Goʻzallik ilm-u maʼrifatda. Mard maydonda bilinadi, nomard-ishda. Doʻstlik barcha boylikdan afzal. Qoʻrqoqda uyat boʻlmas. Aqlli oʻzini ayblar, aqlsiz-doʻstini. Oʻqigan oʻqdan oshar, nodon turtkidan shoshar. Qoʻyni qassob soʻysin, oshni oshpaz pishirsin. Nomard non ustida ham nolishini qoʻymas. Itni qopagʻon qilgan egasi. Novvoyga non aziz, tegirmonchiga-un. Yer-don, dehqon-xazinabon.

3-topshiriq. Quyidagi rasmlar asosida qoʻshma va sodda yasama soʻzlar hosil qiling. Ular ishtirokida gaplar tuzing.



4-topshiriq. Ushbu kichik matnlarni oʻqing. Har bir soʻzni asos va qoʻshimchalarga ajrating. Qoʻshimchalarning turini koʻrsatgan holda quyida berilgan jadvalni toʻldiring.

Asos	Soʻz yasovchi qoʻshimcha	Shakl hosil qiluvchi qoʻshimcha

VETERINARIYA-SANITARIYA EKSPERTIZASI - hayvonlardan olinadigan mahsulotlarni tekshirib, ularni veterinariya-sanitariya jihatdan baholaydi. Soʻyilgan hayvonlar tanasi va aʼzolarining oziq-ovqat sifatida yaroqli ekanligini, veterinariya-sanitariya qoidalari asosida tekshiradi, shuningdek, ichak xomashyosi va yarim fabrikatlarni kolbasa ishlab chiqarish uchun yaroqli ekanligini ham tekshiradi.

VETERINARIYA-SANITARIYA NAZORATI - veterinariya-sanitariya qoidalarining bajarilishini nazorat qiluvchi tizim. Veterinariya-sanitariya nazorati faoliyati hayvonlarni yuqumli kasalliklardan himoya qilish va odamlarning hayvonlardan o'tadigan kasallik qo'zg'atuvchilari bilan zararlanishining oldini olishga qaratilgan.

5-topshiriq. Matnni o'qing. Matndagi so'zlarni sodda, yasama, qo'shma, juft so'zlarga ajrating va yasalishini aniqlang.

Kamtarlik insonga xos eng go'zal fazilatlardan biridir. Kamtar deganda ko'z oldimizda mehnatsevar, xushmuomala, xushfe'l, kamgap, shirinso'z, rostgo'y kishi namoyon bo'ladi. Kamtar inson katta-kichikni doimo hurmat qiladi. U oddiy va ozoda kiyinadi, ortiqcha pardoz-andozlarga berilmaydi.

Kamtar kishi odobli, yaxshi xulqli bo'ladi, ota-onasi, qarindosh-urug'lari, do'st-birodarlari bilan suhbatlashganda, bahs-munozaralarda hech qachon qo'pollik qilmaydi, ular orasida doimo obro'-e'tiborga ega bo'ladi. Shuning uchun xalqimiz orasida "Kamtarga- kamol, manmanga-zavol" degan naql bor.



Matn yuzasidan savollar

1. Qishloq xo'jaligi sohasini rivojlantirishga nima uchun alohida e'tibor qaratilmoqda?
2. Qishloq xo'jaligi sohasida amalga oshirilayotgan ishlardan namunalar sanab bera olasizmi?
3. Institutning universitetga aylantirilishi qanday imkoniyatlar eshigini ochadi?
4. Innovatsiya deganda nimani tushunasiz?
5. Xalqaro hamkorlik qishloq xo'jaligi sohasini rivojlantirishda qanday ahamiyatga ega?



SUHBAT UCHUN MAVZU

Korrupsiya nimadan boshlanadi?

Uyga topshiriq. Otangiz yoki onangizga maktub yozing. Maktubda yozilgan qo'shma, juft va takroriy so'zlar ostiga chizing.



13-MAVZU. “DAVRIMIZNING VETERINARIYA SOHASIDAGI GLOBAL MUAMMOLARI”. GRAMMATIKA: MUSTAQIL SO‘Z TURKUMLARI.

Topshiriq. Matnni o‘qing, munosabat bildiring. DAVRIMIZNING VETERINARIYA SOHASIDAGI GLOBAL MUAMMOLARI

Chorvachilikni rivojlantirishda, ular hayvonlar orasida kasallikning oldini olishda veterinariya xizmatining o‘rni beqiyos. Mamlakat hududlarini hayvonlarning yuqumli kasalliklari kirib kelishidan himoya qilishni ta’minlash, amaliyotga hayvonlarni davolashning va profilaktikasining zamonaviy usullarini joriy etish, mahalliy va xorijiy fan yutuqlarini tatbiq etish asosida veterinariya dori vositalarining yangi turlari va shakllarini ishlab chiqarishni tashkil etish, soha kadrlarini tizimli tayyorlash, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlashni tashkil etish muhim vazifa hisoblanadi. D.Imomova (parlament.uz)

Joriy yilning may oyida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida “Veterinariya va chorvachilikda innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarish va joriy etishning istiqboldagi vazifalari” mavzuida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazildi. Unda ishtirok etgan olimlar, professor-o‘qituvchilar sohadahi bir qator muammolar yuzasidan fikr-mulohazalarini bayon qilishgan. Quyida shularning ayrimlari bilan tanishasiz.

I. Keyingi yillarda O‘zbekistonning sug‘oriladigan va tog‘oldi-tog‘ hududlari biogeotsenozlarida qishloq xo‘jaligi hayvonlari uchun xavfli trematodalar keng tarqalgan. Ushbu hududlarda o‘pkali gastropod mollyuskalarining mavjudligi, shuningdek invaziya manbayi – trematodlarning ma’lum hududlarda yirik va mayda shoxli hayvonlar orasida keng tarqalishi kuzatilmoqda. (A.S.Daminov va boshq.)

II. Hozirgi kunda yangi tug‘ilgan buzoqlarning turli kasalliklar bilan kasallanishi dolzarb muammolardan biridir. Bulardan buzoqlar dispepsiyasi, ayniqsa, buzoqlar hayotining birinchi 10 kunligida ko‘p uchraydigan potologiya bo‘lib qolmoqda. (S.F.Fayziyeva va boshq.)

III. Parrandachilikni jadal rivojlantirishdek muhim muammoni muvaffaqiyatli amalga oshirishda parrandalarda uchraydigan infeksiyon kasalliklar, shu jumladan, pulloroz kasalligi katta to‘siq bo‘lmoqda. (B.B.Jaynarov va boshq.)

IV. Respublikamizning chorvachilik jadal rivojlanayotgan fermer xo'jaliklari sharoitida mahsuldor sigirlarda kobalt yetishmovchiligi kasalligining tarqalishi, iqtisodiy zarari, sabablari, kasallikni rivojlanish mexanizmlarini o'rganish, ertachi aniqlash va oldini olishning samarali usullarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy yetish bugungi kunda veterinariya fani va amaliyoti oldidagi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. (V.B.Abdumajitov va boshq.)

V. Mahsuldor sigirlarning gipokoboltoz kasalligining ertachi tashxisi va oldini olishni amaliyotga joriy etish bugungi kunda veterinariya fani va amaliyoti oldidagi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. (V.B.Abdumajitov va boshq.)

VI. Keyingi yillarda ko'pkariga qatnashadigan qorabayir zotli otlar o'rtasida barmoq bo'g'imlari yiringli yallig'lanishlarining ko'p uchrab, xo'jaliklarga katta iqtisodiy zarar yetkazmoqda, shuning uchun ham bu kasallikning etiologiyasini, davolash va oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish shu kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. (B.I.Kokilov va boshq.)

VII. Mamlakatimizda qorako'lchilik xo'jaliklarida, fermerlar va fuqarolarning shaxsiy xo'jaliklaridagi qo'ylar uchun o'ta xavfli infeksiyon kasalliklardan hisoblangan infeksiyon enterotoksemiya kasalligiga qarshi kurashish dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. (O.I.Klichov va boshq.)

VIII. Fermerlar xorijdan zotli qoramollarni olib kelishida veterinariya mutaxassislari bilan maslahatlashmaganligi, o'zining shart-sharoitidan kelib chiqqan holda saqlash sharoitini tashkil etganligi, arzon, ammo talabga javob bermaydigan ozuqalarni qo'llashi va o'z vaqtida tuyoqlarga ishlov bermasligi pododermatit yoki boshqa xildagi tuyoq kasalliklarining kelib chiqishiga zamin yaratadi. Bu holatlarni bartaraf etish asosiy muammolardan biri hisoblanadi. (X.H.Eshquvatov va boshq.)

IX. Yiringli yallig'lanish jarayonlarini davolashda va qarshi kurash tadbirlarini olib borishda sezilarli yutuqlarga qaramasdan, jarrohlik ishlarini amalga oshirishda rivojlanadigan infeksiyalar bugungi kungacha murakkab va dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. (B.D.Narziyev va boshq.)

X. Kasallikni dastlabki bosqichlaridayoq aniqlash uchun diagnostik testlarni ishlab chiqish, sabablari, kechish xususiyatlari, davolash va oldini olish usullarini ishlab chiqish veterinariya amaliyotida dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. (M.X.Xamidov va boshq.)

Lug'at

ta'minlamoq – обеспечивать, снабжать

joriy etish, tatbiq etish — внедрение

sugʻorilmoq — орошаться, поливаться

judal — стремительно, ускоренно, усиленно, быстро

yiringli — гнойный

yalligʻlanish — воспаление

Matn yuzasidan savollar

1.Global muammo deganda nimani tushunasiz?

2.Dunyoda qanday global muammolar bor?

3.Global muammolar bir-biriga bogʻliqmi?

4.Veterinariya sohasidagi muammolar nima uchun xavfli sanaladi?

5.Global muammolar xavfini kamaytirish kimlarga va nimalarga bogʻliq?



NAZARIY MA'LUMOT

Tayanch soʻzlar: morfologiya va sintaksis. Morfologiyaning oʻrganish obyekti. Soʻz turkumlari. Mustaqil soʻz turkumlari (ot, sifat, son, olmosh, ravish, feʼl soʻz turkumlari).

Grammatika atamasi yunoncha grammatike soʻzidan olingan boʻlib, "harf oʻqish va yozish sanʼati" degan maʼnoni bildiradi. Grammatika tilshunoslik sohasi sifatida soʻz turkumi, grammatik maʼno, shakl yasovchi qoʻshimcha, soʻz birikmasi va gap kabi masalani oʻrganadi. Grammatika tilshunoslikning **morfologiya** va **sintaksis** boʻlimlarini oʻz ichiga oladi. **Morfologiya** (grek.morhfos «shakl», logos «taʼlimot» soʻzlaridan olingan boʻlib), soʻz shakllari haqidagi taʼlimotdir. **Morfologiya** soʻzning grammatik maʼnosi, shakliy (morfologik) va vazifaviy (sintaktik) xususiyatiga koʻra guruhlanishi - turkumga ajratilishi, grammatik oʻzgarishi, grammatik qoʻshimcha haqidagi taʼlimot. **Sintaksis** ham grammatikaning bir qismi boʻlib, soʻzning oʻzaro erkin bogʻlanishi, bu erkin bogʻlanish natijasida hosil boʻlgan soʻz birikmasi va gap, uning turi va xususiyatini oʻrganadi.

Soʻz turkumi tasnifi. Soʻz quyidagi belgi asosida tasnif qilinadi:

1) soʻzning maʼnoviy xususiyati;

2)soʻzning morfologik xususiyati (grammatik shakllari);

3)soʻzning yasaliş xususiyati.


Soʻzni tasniflash uchun, avval har birining atash maʼnosini emas, balki umumiy maʼnosini hisobga olish kerak. Masalan, ot predmet, sifat predmet belgisi, ravish harakat belgi, son aniq miqdor, feʼl ish-harakat va holat maʼnosiga ega.

Soʻz turkumi.Oʻzbek tilida 12 ta soʻz turkumi boʻlib, u uch guruhga boʻlinadi:

1. **Mustaqil soʻz turkumi:** ot, sifat, son, olmosh, feʼl, ravish.
2. **Yordamchi soʻz turkumi:** koʻmakchi, bogʻlovchi, yuklama.
3. **Alohida olingan soʻz:** modal, undov, taqlid.

Soʻz turkumlari (12 ta)		
Mustaqil soʻz turkumlari	Yordamchi soʻz turkumlari	Oraliq soʻz turkumlari
6 ta	3 ta	3 ta
1) ot 2) sifat 3) son 4) olmosh 5) feʼl 6) ravish	1) koʻmakchi 2) bogʻlovchi 3) yuklama	1) undov 2) taqlid 3) modal

Mustaqil soʻz olamdagi narsa, hodisa, belgi, miqdor, harakat, holat kabini ataydi, yaʼni mustaqil lugʻaviy maʼnoga ega boʻlib, soʻroq oladi. Mustaqil soʻz turkumi sirasida faqat **olmosh** predmet-hodisa, belgi va miqdorni bildirar olmaydi, balki unga ishora qiladi. **Ot** narsaning, **sifat** belgining, **son** miqdorning nomini bildirgani va olmosh uni almashtirgani uchun bu toʻrt turkum **ism** atamasi bilan ham yuritiladi.



Yordamchi soʻz gap boʻlagi va qoʻshma gap tarkibidagi sodda gapni oʻzaro bogʻlaydi yoki ularga qandaydir qoʻshimcha maʼno yuklaydi. U lugʻaviy maʼnoga ega emas, soʻroqqa javob boʻlmaydi va yakka holda gap boʻlagi boʻlib kelmaydi. **Alohida soʻz** nisbiy mustaqil lugʻaviy maʼnoga ega. Ular goho soʻroqqa javob boʻlsa ham, oʻzining maxsus soʻrogʻiga ega emas. Gapda qandaydir sintaktik vazifani bajaradi. Lekin har biri oʻziga xos umumiy xususiyati bilan alohida-alohida turkumni tashkil etadi.



MUSTAHKAMLASH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1- topshiriq. Quyida mustaqil soʻz turkumlarining har biriga 5 tadan misol aralash holda berilgan. Ularni jadvalga ajratib joylashtiring.

Kuz, biz, ertalab, oʻtirmoq, oʻntacha, buyuk, bormoq, sakkizinchi, hech kim, chopmoq, chiroy, uchala, qani, foydalanmoq, uyqu, chiroyli, bugun, bari, mardlarcha, befoyda, soʻzlamoq, shirin, picha, foyda, uzun, mingta, har narsa, ohista, havo, oltov.

Feʼl	Ot	Sifat	Son	Ravish	Olmosh

2-topshiriq. Togʻay Murodning „Ot kishnagan oqshom“ asaridan olingan parcha bilan tanishing. Siz otlar haqida nimalarni bilasiz?

Buning magʻzi shuki, ot deganlari dev! Ot bepoyonlikni deydi. Ot masofa nimaligini bilmaydi. Ot qahraton qishda-da dasht-biyobonlarda chopib oʻsadi. Ana shunda dirkillagan ot boʻladi! Qoʻltiqlari choʻziladi, koʻkraklari enlik boʻladi! Uchqur keladi! Bedov ot boʻladi!

Men ikki kun ot sayladim. Oboqli dashti gala-gala ot! Dasht changitib chopib yuribdi! Bir yashar qulunlar, uch yashar toylar, toʻrt yashar gʻoʻnonlar, besh yashar doʻnonlar! Sagʻrisiga uy tiksa boʻladigan baytallar! Haybatli aygʻirlar!.. Birovini ushlab, old tuyoqlarini juftladim. Tuyoqlari orasidan musht urdim. Mushtim oʻtmadi. Bordi-yu oʻtsa, yaxshi ot boʻladi. Qoʻyib yubordim. Yana birovini koʻrdim. Durustgina-yu, faqat qorni yoʻq. Bor boʻlsa-da, juda tor. Buniyam qoʻyib yubordim, boʻlmaydi! Birodarlar, ot olsang, hoʻkiz qorindan ol, hoʻkiz olsang, ot qorindan ol! Orqa kezanagi bolaning bilagiday boʻlib turadigan ot yaxshi

keladi. Shundayini izladim. Yo'liqmadim. Qopqog'i enlik ot-da yaxshi bo'ladi. Bundayinga-da ko'zim tushmadi. Galani aylanib yurdim. Bir bo'zga ko'zim tushdi. Shuni ushladim. Tishlarini ko'rdim. Yoshi yettida bo'lsa-da, hali oziqli tishi chiqmabdi. Aslida, besh yoshida chiqadi. Demak, endi chiqmaydi. Oziq tishsiz ot xosiyatli ot bo'ladi!

3-topshiriq. Quyidagi jadvalda berilgan so'z turkumiga mos keluvchi sohangizga oid atamalar toping va yozing.

OT

...

SIFAT

...

FE'L

...

Grammatika (grek. grammatika – «harf o'qish va yozish san'ati», «harf»)

So'z turkumlari

MORFOLOGIYA

(grek. morhfos – «shakl», logos – «ta'limot»)

SINTAKSIS

(yun. syntaxis – “yopishtirish, bog'lash”)

so'z turkumlari
va shakllari
haqidagi ta'limot

so'z birikmasi va
gap haqidagi
ta'limot

**Mustaqil
so'z
turkumlari**

Ma'nosi,
savoli bor,
gap bo'lagi
bo'la oladi

Ot, sifat, son,
olmosh,
ravish, fe'l

**Yordamchi
so'z
turkumlari**

Ma'nosi,
savoli yo'q,
gap bo'lagi
bo'la olmaydi

Bog'lovchi,
ko'makchi,
yuklama

**Oraliqdagi
so'zlar
turkumlari**

Ma'nosi,
savoli yo'q,
grammatik
vazifasi bor

Undov
so'zlar, taqlid
so'zlar, modal
so'zlar

4-topshiriq, Amir Temur o'gitlarini yod oling! So'zlarni turkumlarga ajrating.

- ☞ Kuch adolatdadir.
- ☞ Yaxshi odam yurt tuzar, Yomon odam yurt buzar.
- ☞ Yaxshini yomon kunda sina.
- ☞ Bugungi ishni ertaga qoldirma.
- ☞ Aqlli dushman nodon do'stdan yaxshiroq.
- ☞ Odamlarga ishon, ammo shubha qil.

- ☞ Menda biror kimsaning haqi bo'lsa, haqini hech vaqt unutmadi.
- ☞ Biror kimsa bilan tanishgan bo'lsam, uni hech vaqt nazarimdan qoldirmadi.
- ☞ Chin do'st uldirki, do'stidan hech qachon ranjmaydi, agar ranjisa ham, uzrini qabul qiladi.

5-topshiriq. Matnni rus tiliga tarjima qiling, yordamchi so'zlarni aniqlang.

Veterinarning vazifalari nimadan iborat

Veterinariya shifokorining asosiy vazifasi hayvonlarning farovonligini ta'minlashdir. U eng yaxshi tashxis qo'yishi, ko'rib chiqilayotgan hayvonning turli xil kasalliklarini davolashi va u davolagan kasal hayvonlarning to'liq tuzalib ketishi va eng yaxshi sifatga ega bo'lishini ta'minlashi kerak.

Bundan tashqari, veterinariya shifokori hayvonlarning egalariga mumkin bo'lgan kasalliklarning oldini olish yoki ularni davolash va yaxshi yechim topish uchun eng yaxshi yo'l bilan maslahat bera olishi kerak. Hayvonlarning g'amxo'rliqi va salomatligi haqida gap ketganda, u haqiqiy maslahatchi.

Vazifalardan yana biri turli kasalliklarni tekshirish yoki muayyan davolash usullarini ishlab chiqish bilan bog'liq. kasal hayvonlarning tiklanishiga yordam beradi.



SUHBAT UCHUN MAVZU

Yo'ldagi tirbandlik.

Uyga topshiriq. „Yoshlik – beboshlik“ mavzusida matn yarating.



14-MAVZU. “O‘ZBEKISTONDA VETERINAR MUTAXASSISLARNI TAYYORLOVCHI OLIY O‘QUV YURTLARI”.

GRAMMATIKA: KELISHIK QO‘SHIMCHALARI.

Topshiriq. Matn ustida ishlash.

O‘ZBEKISTONDA VETERINAR MUTAXASSISLARNI TAYYORLOVCHI OLIY O‘QUV YURTLARI

O‘zbekistonda ayni damda davlat, xususiy va xorijiy OTMlarni qo‘shib hisoblaganda 198 ta oliygoh faoliyat yuritadi. Mazkur oliy ta’lim dargohlarida kunduzgi, kechki, sirtqi, masofaviy ta’lim shakllarida turli

yo‘nalishlar bo‘yicha mutaxassislar tayyorlanadi. Veterinar mutaxassislar tayyorlovchi oliy ta‘lim muassasalari ham talabalarni qamrab olish va o‘qitish borasida samarali faoliyat yuritmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tasarrufida 3 ta oliy ta‘lim muassasasi veterinariya sohasi uchun mutaxassislar tayyorlab beradi: Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti (<https://ssuv.uz/>)da veterinariya meditsinasi (faoliyat turlari bo‘yicha), veterinariya farmatsevtikasi, veterinariya diagnostikasi va laboratoriya ishlari, veterinariya sanitariya ekspertizasi, veterinariya biotexnologiyasi yo‘nalishlari; Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali (<https://sdvunf.uz/>)da veterinariya meditsinasi (faoliyat turlari bo‘yicha), Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali (<https://svmitf.uz/>)da veterinariya meditsinasi (faoliyat turlari bo‘yicha), veterinariya farmatsevtikasi, veterinariya diagnostikasi va laboratoriya ishlari, veterinariya sanitariya ekspertizasi yo‘nalishlari bo‘yicha mutaxassislar tayyorlanadi.

Bundan tashqari, Toshkent davlat agrar universitetida (professional ta‘lim: veterinariya meditsinasi (faoliyat turlari bo‘yicha)), Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar institutida (veterinariya meditsinasi (faoliyat turlari bo‘yicha)) hamda Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar institutida (veterinariya meditsinasi (yirik shoxli molar kasalliklari)) veterinar mutaxassislar tayyorlaydigan yo‘nalish mavjud.

Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti veterinariya meditsinasi, veterinariya va sanitariya ekspertizasi, veterinariya diagnostikasi va laboratoriya ishlari, veterinariya farmatsevtikasi, zootexnologiya, veterinariya biotexnologiyasi, chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyasi yo‘nalishlarida kadrlar tayyorlovchi tayanch davlat oliy ta‘lim muassasasi etib belgilandi. (Kun/uz)

Lug‘at

ayni damda – одновременно

xususiy – частный

xorijiy – иностранный, зарубежный

oliygoh – ВУЗ

kunduzgi – дневной

kechki – вечерный
sirtqi – заочный
tayanch – опорный



NAZARIY MA'LUMOT

Tayanch tushunchalar. O'zbek tilida kelishik shakllari va ularning matnda ifodalanishi. Bosh kelishik. Qaratqich kelishigi. Tushum kelishigi. Jo'nalish kelishigi. O'rin-payt kelishigi. Chiqish kelishigi. So'zlarning kelishik qo'shimchalari bilan bo'g'lanishi. Kelishik qo'shimchalarining ma'nodoshligi.

KELISHIK SHAKLLARI. Ismlarni boshqa so'zlarga tobelantirib bog'lash uchun xizmat qiluvchi qo'shimchalar **kelishik shakllari** sanaladi. Kelishik shakllari doimo tobe so'zga qo'shiladi. O'zbek tilida oltita kelishik mavjud bo'lib, ularning har qaysisining o'z nomi va shakli bor.

Kelishik nomlari	Qo'shim-chalari	Misollar
Bosh kelishik	-	It hurar, karvon o'tar. (Maqol)
Qaratqich kelishigi	-ning	Kitobning varag'i.
Tushum kelishigi	-ni	Vatanimgni sev, tuprog'ini o'p. (E. Vohidov)
Jo'nalish kelishigi	-ga (-ka, -qa)	Betga aylanning zahri yo'q. (Maqol)
O'rin-payt kelishigi	-da	Yosh ko'nglimda orzularim mo'l. (A. Orip.)
Chiqish kelishigi	-dan	Kutubxonadan keldim.

Ismlarning kelishik qo'shimchalari bilan o'zgarishi **turlanish** deyiladi.

BOSH KELISHIK SHAKLI. Ismlarning bosh kelishik shakli maxsus qo'shimchaga ega emaSirrozBu shakl **kim? nima?, qayer?** so'roqlarining biriga javob bo'ladi va gapda ko'pincha ega, ot kesim, undalma vazifalarida keladi. Masalan: 1. Men 7-sinf o'quvchisiman. 2. O'zbekistorning poytaxti-Toshkent. 3. Toshkent, munchalar go'zalsan!

QARATQICH KELISHIK SHAKLI. Qaratqich kelishigi shaklidagi so'z-qaratqich, qaratqich bog'lanib kelgan so'z esa **qaralmish**

deyiladi. Qaratqich kelishigi qaratqichni qaralmishga tobelashtirib bog‘lab keladi va qaralmishda ifodalangan narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holatlarning qaratqich shaklidagi ismlarga qarashli ekanligini bildiradi. Qaratqich va qaralmish yonma-yon kelganda ko‘p hollarda qaratqich kelishigi tushib qolishi mumkin. Lekin qaratqich va qaralmish o‘rtasida boshqa so‘z qo‘llanilsa, qaratqich qo‘shimchasi tiklanadi. Masalan: *Maktabimizning chiroyli bog‘i*. Shuningdek, qaratqich kelishigi atoqli otlar, olmoshlar va sifatdoshlarga qo‘shilganda, tushib qolmaydi.

TUSHUM KELISHIGI SHAKLI. Tushum kelishigi shaklini olgan so‘z doimo o‘timli fe‘lga bog‘lanadi. Tushum kelishigidagi so‘z bilan o‘timli fe‘l yonma-yon turganda, ko‘pincha tushum kelishigi qo‘shimchasi tushib qoladi. Masalan: *Kitobni o‘qidim. - Kitob o‘qidim*. Tushum kelishigidagi so‘z bilan o‘timli fe‘l o‘rtasida boshqa bir so‘z ishlatilsa, tushum kelishigidagi so‘z atoqli ot, olmosh, yoki sifatdosh bo‘lsa, tushum kelishigi qo‘shimchasi tushib qolmaydi. Tushum kelishigidagi so‘z gapda doimo to‘ldiruvchi vazifasida keladi. Egalik qo‘shimchasini olgan ismlarga bog‘lanuvchi so‘z qaratqich kelishigi shaklida, o‘timli fe‘llarga bog‘lanuvchi so‘z tushum kelishigi shaklida keladi.

JO‘NALISH KELISHIGI SHAKLI. Jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi o‘rin-joy otlariga qo‘shilib, **qayerga?** so‘rog‘iga javob bo‘ladi va gapda o‘rin holi vazifasida keladi. Payt otlariga qo‘shilib **qachon?** so‘rog‘iga javob bo‘ladi va gapda payt holi vazifasini bajaradi. Shaxs va narsa otlariga qo‘shilib, **kimga? nimaga?** so‘rog‘iga javob bo‘ladi va gapda to‘ldiruvchi vazifasida qo‘llaniladi. Jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi **k, q** tovushlari bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilganda, **-ka, -qa** shaklida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi. **G‘** tovushi bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilganda **-qa** shaklida talaffuz qilinsa ham, **-ga** tarzida yoziladi.

O‘RIN-PAYT KELISHIGI SHAKLI. O‘rin-payt kelishigi qo‘shimchasi o‘rin-joy otlariga qo‘shilib, **qayerda?** so‘rog‘iga javob bo‘ladi va hokim qismda ifodalangan harakatning o‘rnini bildiradi. Bunday otlar gapda o‘rin holi vazifasida keladi. Payt otlariga qo‘shilib, **qachon?** so‘rog‘iga javob bo‘ladi va hokim qismda ifodalangan harakatning paytini bildiradi. Bunday so‘zlar gapda payt holi vazifasida keladi. Shaxs va narsa otlariga qo‘shilib, **kimda? nimada?** so‘roqlariga javob bo‘ladi. Bunday otlar gapda to‘ldiruvchi vazifasida keladi.

CHIQUISH KELISHIGI SHAKLI. Chiqish kelishigi qo‘shimchasi o‘rin-joy otlariga qo‘shilib, **qayerdan?** so‘rog‘iga javob bo‘ladi va o‘rin holi vazifasini bajaradi. Payt otlariga qo‘shilib, **qachon?** so‘rog‘iga javob

bo'ladi va payt holi vazifasida keladi. Shaxs va narsa otlariga qo'shilib, **kimdan? nimadan?** so'roqlariga javob bo'ladi va to'ldiruvchi bo'lib keladi. Ba'zan ayrim otlar, sifatdoslar va boshqa so'zlarga qo'shilib, **nima sababdan?** so'rog'iga javob bo'ladi va sabab holi vazifasida keladi. Ba'zan tushum kelishigi o'rnida chiqish kelishigi shakli ishlatilishi mumkin. Lekin ularning ma'nosida ma'lum farq bor. Tushum kelishigidagi so'z butunni, chiqish kelishigidagi so'z qismni bildiradi.

Kelishik qo'shimchasining uslubiy xususiyati. Kelishik qo'shimchasi o'zaro almashib qo'llanishi mumkin:

1)-ni va -dan almashishi: Qani, oshdan (ni) oling, mehmon. **2)-ni va -ga almashishi:** Gapingizga (gapingizni) tushunmadim. **3)-ni va -da almashishi:** Dalani (da) aylandim. **4)-ning va -dan almashishi:** kelganlarning biri-kelganlardan biri.

Kelishik va ko'makchi almashib qo'llanadi:

1)-ga ko'shimchasi o'rnida uchun ko'makchisi: Ukamga oldim-Ukam uchun oldim. **2)-da ko'shimchasi o'rnida bilan ko'makchisi:** Xatni qalamda yozdi-Xatni qalam bilan yozdi. **3)-dan ko'shimchasi o'rnida orqali ko'makchisi:** Xabarni radiodan eshitdik-Xabarni radio orqali eshitdik. **4)-ni ko'shimchasi o'rnida haqida ko'makchisi:** Akasi kelganini gapirdi-Akasi kelgani haqida gapirdi.

Kelishik qo'shimchalari va ko'makchilar sinonimiyasi Kelishik qo'shimchalari o'zaro yoki ko'makchilar bilan sinonim bo'lishi mumkin. Bu holda, albatta, ma'noda farq bo'ladi. Masalan: *kelganiga xursand bo'ldik-kelganidan xursand bo'ldik. Karvon dashtda kezib yurdi-karvon dashtni kezib yurdi. Mehmon choydan bir ho'pladi-mehmon choyni ho'pladi.* Bu misollarda jo'nalish kelishigi chiqish kelishigi bilan, o'rin-payt kelishigi tushum kelishigi bilan, chiqish kelishigi tushum kelishigi bilan sinonimdir. Ammo bu sinonimlar orasida semantik (ma'noviy) va grammatik farq bor. Kelishik qo'shimchalari ko'makchilar bilan ham sinonim bo'lishi mumkin: *Kitobni siz uchun oldim-kitobni sizga oldim. Choyni piyolada ichdi -choyni piyola bilan (piyola vositasi bilan) ichdi. Tong bilan safarga jo'naymiz-Tongda safarga jo'naymiz.* Keltirilgan jumalarda jo'nalish kelishigi uchun ko'makchisi bilan, o'rin-payt kelishigi bilan ko'makchisi bilan sinonimdir. Albatta, hamma kelishiklarni ham bir-biri bilan yoki ko'makchilar bilan almashtirib bo'lmaydi. Qaratqich kelishigini tushum kelishigi bilan almashtirish xato bo'ladi.



MUSTAHKAMLASH

1-topshiriq. Gaplarni o‘qing, kelishik shakli ishlatilgan so‘zlarga izoh bering. Gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

I. 1. Belgi bo‘lsa, odam yo‘ldan, aqli bo‘lsa, so‘zdan adashmaydi. (Mahmud Koshg‘ariy) 2. Tabiat kimga zakovat, aql-idrok, bilim bersa, u ezgu ishlar qilishga qo‘l uradi. (Yusuf Xos Hojib) 3. Arslon o‘z quvvati va shijoati bilan ovqat topib, kun kechirgani kabi inson ham qayda bo‘lmasin, o‘z aqli bilan kun kechiradi. («Otalar so‘zi») 4. Ishonch odamni buyuk ishlarga undaydi. 5. Harom yol bilan topilgan mol-u dunyo kishini oxiri halok etadi. (R.Tagor)

II. Jabr-zulmdan o‘zingni uzoq tut.Senda biron kishining haqi bo‘lsa, haqini unutma.Agar sizlar bir tan, bir jon bo‘lsangiz, sizga ado vat qilganlami yengasiz.Kimki senga do‘stlik qilsa, do‘stligi qadrini unutma.Unga muruvvat, ehson, izzat-u ikrom ko‘rsat.Ko‘p narsani bilib tursang-da, o‘zingni bilmaganga sol (Amir Temur).

2-topshiriq. Gaplarni o‘qing, kelishik shakli ishlatilgan so‘zlarga izoh bering.

SERPUSHTLIK - hayvonlarda har bir tur uchun xos bo‘lgan, tabiiy o‘lim o‘rnini qoplash uchun zarur bo‘lgan pusht qoldirish xususiyati. Serpushtlik hayvonlarning turli guruhida har xil. Uzoq yashaydigan va nasli haqida ko‘p g‘amxo‘rlik qiladigan hayvonlar bir yilda, ko‘pincha bir necha yilda 1 marta 1—2 tadan bolalaydi. Qisqa umr ko‘radigan hayvonlar (mas., kemiruvchilar) 1 yilda bir necha marta 10—15 tadan bolalaydi. Tuxum qo‘yib ko‘payadigan hayvonlar serpushtligi yuqori bo‘ladi. Ayrim hasharotlar bir necha yuz minglab, hatto mln. ta, oybaliq birdaniga 300 mln gacha tuxum qo‘yadi. **Serpushtlik** hayvonning yoshi, yil mavsumi, oziq xili va miqdori, iqlim sharoiti, populyatsiya zichligi va boshqa omillar ta’sirida o‘zgarib turadi. Serpushtlikni oshirish chorvachilikda katta ahamiyatga ega. Respublikamizda Ferula assafoetida o‘simligini qorako‘l qo‘ylar serpushtligiga ta’siri bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar G‘.X.Eshmatov tomonidan olib borilgan.

3- topshiriq. “Blits so‘rov”

	Savollar	O‘quv chining javobi		Javoblar
1	Tilda nechta shaxs bor, ular qaysilar?		2	-ning, -ni, -ga, -da, -dan qo‘shimchalari

2	Otlarda nechta kelishik bor, ular qaysilar?	5	Bosh kelishikning qo'shimchasi yo'q
3	Kelishik qo'shimchalari qaysilar? sanab bering.	1	Tilimizda 3 ta shaxs bor. I shaxs- so'zlovchi II shaxs- tinglovchi III shaxs- o'zga.
4	Salima.. tug'ilgan kini.. gullar sovg'a qilishdi. Nuqtalar o'rniga qanday kishilik qo'shimchasini qo'yish kerak?	3	Oltita kelishik qo'shimchalari bor. Ular bosh kelishigi, qaratqich kelishigi, tushum kelishigi, jo'nalish kelishigi, o'rin-payt kelishigi, chiqish kelishigi.
5	Qaysi kelishikning qo'shimchasi yo'q?	4	-ning, -ga qo'shimchalari qo'yiladi.

4-topshiriq. Quyidagi gaplarga mos kelishik qo'shimchasini qo'ying va o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Спишите, укажите окончания, род и падеж существительных

В тяжёл... рюкзаке, с тяжёл... рюкзаком, в старину... дворце, за старину... дворцом, перед высок... деревом, на высок... дереве, с горяч... чаем, в горяч... чае, над красив... цветком, на красив... цветке, в ближайш... озере, за ближайш... озером, о хорош... человеке, с хорош... человеком, в зиму... бору, перед зиму... бором, под хрупк... льдом, на хрупк... льду.

5-topshiriq. “Lisoniy qolip” metodidan foydalangan holda quyidagi matn asosida jadvalni to'ldiring.

SIRROZ (yun. **kirrhos** - sarg'ish, mallarang) - parenximatoz a'zolar (jigar, o'pka, buyrak va b.) biriktiruvchi to'qimalarining zo'r berib o'sishi oqibatida chandiqlanib bujmayishi va. *Jigar sirrozi* ko'proq uchraydi. Aslida **SIRROZ** nomi ham kasallangan jigarning sarg'ish tusga kirishidan olingan. Buyrak (nefrotsirroz), o'pka (pnevmonsirroz) va b. a'zolar ham **SIRROZ** bilann kasallanadi. **SIRROZ** yuqumli kasalliklar, *intoksikatsiya*, moddalar almashinuvining buzilishi, turli xil yallig'lanish oqibatida kelib chiqadi. **SIRROZ** bo'lgan a'zoda distrofik o'zgarishlar (q. *Distrofiya*) va nekroz (to'qimaning o'lishi) paydo bo'ladi. *Parenxima* o'lgan joyda biriktiruvchi to'qima o'sib,

chandiqlanadi, betartib *regeneratsiya* o‘choqlari hosil bo‘ladi. A‘zo, odatda kichrayib (kattalashuvi ham mumkin), qattiqlashadi va yuzasi g‘adir-budur bo‘lib qoladi (yana q. *Skleroz*).

So‘zlar	- ning	- ni	- ga	-da	-dan	Bog‘langan so‘zlar
to‘qimalari...	+					zo‘r berib o‘shishi
sarg‘ish tus...						kirishi
moddalar almashinuvi...						buzilishi
Parenxima o‘lgan joy...						biriktiruvchi to‘qima o‘sib, chandiqlanadi
yallig‘lanish oqibati...						kelib chiqadi
to‘qima...						o‘lishi
Sirrozo bo‘lgan a‘zo...						paydo bo‘ladi



SUHBAT UCHUN MAVZU

Yoqtirgan mashg‘ulotingiz.

Uyga topshiriq. „Men ko‘rgan so‘nggi badiiy film“. Sharhlang.



15-MAVZU. “TABIAT, INSON, SALOMATLIK”. GRAMMATIKA: EGALIK SHAKLLARI VA SON KATEGORIYASI.

Topshiriq. Matn ustida ishlang.

TABIAT, INSON, SALOMATLIK

Tabiat — odamning paydo bo‘lgunicha ham, odam ishtiroki bilan ham mavjud borliq. Umuman — bu dunyo, odam, koinot; jonsiz va jonli borliq. Tabiat odamga, jamiyatga bog‘liq bo‘lmagan qonuniyatga bo‘ysunadi. Odam — tabiatning bir qismi. Odam tabiat qonunlarini o‘zgartira olmaydi, faqat qonunlardan foydalanib, tabiat elementlarini, qismlarini o‘zlashtirishi mumkin.

Tabiat atamasi keng ma‘noda fizik, material olamni bildiradi. Kundalik turmushda „tabiat“ so‘zi ostida odam ta‘siri ostida ko‘p bo‘lmagan atrof-muhit va undagi hayot (yovvoyi tabiat) nazarda tutiladi.

Odamning tabiatga munosabati tarixda o'zgarib va rivojlanib bordi. Antik falsafada tabiatga stixiyali kuchlar (Demokrit), ideal dunyoning in'ikosi (Platon), uyg'un jarayon (Pifagor), mukammallik (Aristotel) deb qaralgan.

Tabiat cheksiz ma'lum narsalar: elementar zarralar, antizarralar, qum, tosh, tuproq, suv, havo, jonsiz va jonli mavjudot, planetalar, yulduzlar, galaktikalar va boshqa samoviy jismlar, fizik maydonlar majmuyidan iboratdir.

Tabiat resurslari, tabiiy boyliklar — jamiyatning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish maqsadlarida xo'jalikda foydalaniladigan hamda insoniyatning yashashi uchun zarur bo'lgan, uni o'rab turgan tabiiy muhitning barcha tabiat komponentlari, energiya manbalari. Tabiat resurslariga Quyosh energiyasi, Yerning ichki issiqligi, suv, yer, mineral boyliklar, foydali qazilmalar, o'simliklar, tuproqlar, hayvonot dunyosi kiradi.



Tabiat insonni yediradi, ichiradi, kiyintiradi. Shu bois unga «ona» so'zini qo'shib aytamiz. Tabiatning o'zi zargarga o'xshaydi. Uning bag'ridan unib chiqqan har bir giyoh, har bir daraxt, o'rmonlar, hayvonot olami o'ziga xos olamdır. Tabiat zararlanganda, insonlar zarar ko'radi, tabiat yaxshi bo'lsa, insonlarga foyda bo'ladi.

Yurtimizning har qarich yeri oltinga teng. Uning go'zal tabiati, musaffo havosi, zilol va shifobaxsh suvi har qanday kishini o'ziga maftun etadi. Mana shunday betakror go'zallikni asrab-avaylash, kelajak avlodga bus-butunligicha yetkazish har birimizning muhim burchimizdir. Bu tabiiy boylikka daxl qilishning oldini olish, tabiatni muhofaza qilish yumushlaridan hech qachon hormaylik.

Savollarga javob bering.

1. Tabiat haqidagi tushunchangiz?
2. Insoniyatning tabiatdagi o'ni qanday?
3. "Yovvoyi tabiat" tushunchasi siz uchun nimani anglatadi?
4. Tabiat resurslariga nimalar kiradi?
5. Ona tabiatni nima uchun ko'z qorachig'iday asrash kerak?

6. Robinzon Kruzoning kimsasiz oroldagi hayotida nimalar yetishmagan deb o'ylaysiz?



MUSTAHKAMLASH

1-topshiriq. Yuqorida keltirilgan matndan asosga egalik qo'shimchalari qo'shilganda tovush o'zgarishlari hosil bo'lgan so'zlarni aniqlang va yozing.

2-topshiriq. Matnda ko'plikni ifodalash uchun qanday vositalar qo'llangan aniqlang va yozing.



NAZARIY MA'LUMOT

Tayanch so'zlar. O'zbek tilida egalik shakllari va son kategoriyasi. Egalik qo'shimchalari va ularning ma'nolari. Son kategoriyasi: birlik va ko'plik shakllari. Ko'plik ma'nosi hamda ularning matnda ifodalanishi. Ko'plik qo'shimchasining uslubiy ma'nolari.

EGALIK SHAKLLARI VA ULARNING IMLOSI.

Otlarning uchta shaxsdan biriga qarashli ekanini bildirgan qo'shimchalarga egalik qo'shimchalari deyiladi: *kitobim, kitobing, kitobi kitobimiz, kitobingiz, kitob(lar)i*.

Quyidagi shakllar egalik qo'shimchalari sanaladi:

Qoida: -m, -im, -ng, -ing, -si, -i, -miz, -imiz, -ngiz, -ingiz, -lari – egalik qo'shimchalaridir. Egalik qo'shimchalari shaxs va narsa-buyumlarning qaysi shaxsga qarashlilikini bildiradi.

Shaxs	Birlik	Ko'plik
I	kitobim	kitobimiz
II	kitobing	kitobingiz
III	kitobi	kitoblari

Tilda 3 ta shaxs bor:

I shaxs – so'zlovchi.

II shaxs – tinglovchi.

III shaxs - oz'ga.

Egalik qo'shimchalari gapda so'zlarni bir-biriga bog'laydi.

Egalik qo'shimchalari so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalardir.

Ba'zi otlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda o'zakda quyidagicha tovush o'zgarishi yuz beradi. *unli tovush tushib qoladi;

*undosh tovush almashadi.

shahar		im		shahrim
burun	—		—	burnim
og'iz	—		—	og'zim
singil	—		—	singlim

Egalik qo'shimchasi qo'shilgan ot, albatta, o'zidan oldin kelgan otning qaratqich kelishigida kelishini talab qiladi: *kitobning varag'i*.

Egalik qo'shimchalari undosh bilan tugagan ismlarga **-im, -imiz, -ing, -ingiz, -i, -lari**; unli bilan tugagan ismlarga **-m, -miz, -ng, -ngiz, -si, -lari** tarzida qo'shiladi.

Viloyat, shahar, muassasa nomlariga qo'shilgandauchinchi shaxs egalik qo'shimchasi shaxsga qarashlilik ma'nosini emas, balki, xoslik, umundan ajratilganlik ma'nosini ifodalaydi, shuning uchun bunday birikmalarda oldingi qism qaratqich kelishigida qo'llanilmaydi: Orolning dengizi emas, Orol dengizi kabi. Bunday so'zlarda ular yaxlitlanib qolgan.O'z vazifasini yo'qotgan.

EGALIK QO'SHIMCHALI SO'ZLARNING IMLOSI. **K** va **q** harflari bilan tugagan so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda **k** undoshi **g** undoshiga, **q** undoshi **g'** undoshiga o'zgaradi: terak – teragi, qishloq – qishlog'i.

O'g'il, burun, shahar, singil kabi otlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda ikkinchi bo'g'indagi **i, u, a** unilari tushib qoladi va *o'g'li, burni, shahri, singlisi* kabi yoziladi. *Nok, chok* singari bir bo'g'inli, *idroq, ishtirok* singari ko'p bo'g'inli so'zlarga egalik qo'shimchalari qo'shilganda, asos qismda hech qanday o'zgarish bo'lmaydi.

Otlar birlik va ko'plik sonda qo'llanadi. Ko'plik otlarga **-lar** qo'shimchasini qo'shish orqali hosil qilinadi. Bola – birlik sonda, bolalar – ko'plik sonda. Son shakli otning doimiy grammatik kategoriyasi hisoblanadi.

O'zbek tilida quyidagi usullar orqali ko'plik hosil qilinadi:

1.Morfologik usul: *-lar qo'shimchasi orqali: bolalar, kitoblar.*

2.Leksik usul: *ko'plik bildiruvchi maxsus so'zlar orqali: ko'p odam, o'nta kitob.*

3.Leksik-morfologik usul: *ko'p odamlar, bir talay qo'ylar.*

-lar qo'shimchasi grammatik ko'plikdan tashqari quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

1.Hurmat. *Adamlar keldilar, oyimlar uydalar (bu o'rinda ko'plik qo'shimchasi egalik qo'shimchasi bilan birga qo'llanadi).*

2.Chama – taxmin. *Soat o'nlar bo'ldi.*

3. Birgalik, jamlash. *Alisherlar kelishdi.*

4.Tur – xil, nav. *Do'konga unlar, choylar keltirildi.*

5.Kuchaytirish. *Boshlarim og'rib ketdi.*

6. Kesatq, mazax ma'nosida. *"o'rta" baho oldilar, shekilli....*

Shuningdek, tilimizda *xalq, armiya, qo'shin, to'da, olomon* kabi so'zlar borki, ular birlikda hamko'plik ma'nosini beradi.



MUSTAHKAMLASH UCHUN MASHQLAR

3-topshiriq. *Matnni o'qing. Unga sarlavha qo'ying. Egalik va ko'plik qo'shimchalarini aniqlang.*

Tabiat – ulkan dorixona

Ma'lumotlarga ko'ra, yer yuzida 1,5 million hayvon va 500 mingga yaqin o'simlik turlari mavjud ekan. O'zbekistonda ular 4230 dan ortiq. Shulardan 770 tasida dorivorlik xususiyati bor. Ko'rinib turibdiki, tabiatning o'zi ulkan «dorixona»dir.

Yer yuzidagi ana shu o'simliklar yiliga 400 milliard tonna kislorod ishlab chiqaradi. Bu esa insoniyat va jamiki jonzotlarning yashashiga imkoniyat yaratadi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti xulosasiga ko'ra, o'limga olib boruvchi ekologik omillardan birinchisi — bu havoning ifloslanishi bo'lsa, ikkinchisi shovqin ekan.

4-topshiriq. “Yurtim” dedi, “tilim” dedi.

Chingizxon ham ming havasda:

“Shunday bo'lsa o'lim”, dedi!

Sug'd yozuvi, o'z yozuvim,

Turkiy tilim, o'zbek tilim.

Ushbu she'riy parchada qo'llangan egalik qo'shimchalari haqidagi to'g'ri fikrni belgilang.

A)to'rt o'rinda III shaxs birlik, bir o'rinda I shaxs ko'plik

B)uch o'rinda I shaxs ko'plik

C)besh o'rinda I shaxs birlik

D)olti o'rinda I shaxs birlik, bir o'rinda III shaxs birlik

5-topshiriq. **Ko'chiring. Nuqtalar o'rniga egalik qo'shimchalaridan mosini qo'yib, topishmoqlarni o'qing, javobini toping. Tovush o'zgarishlarining sababini tushuntiring.**

1.Chaqolmaysan tezda, qattiq po'chog'..., Chaqsang mag'zi mazali, yog'dir o'chog'....(.....) 2.Barmog'... bor-u, tirnog'... yo'q. (.....) 3.Oyog'... yo'q qochadi, Qanot... yo'q uchadi. (.....)



SUHBAT UCHUN MAVZU

Orzuingizdagi sayohat.

Uyga topshiriq. Testlarni yeching.

✦ Fonetik o'zgarishlar yuzasidan test savollari ✦

1. *Ayrim paytlarda ko'nglim onamni qo'msaydi – da, qanotim qayrilganini sezib, nafasim bo'g'zimga tiqiladi. Ushbu gapda egalik qo'shimchasi qo'shilganda fonetik o'zgarishga uchragan so'zlar soni nechta?*

- A) 1 ta
- B) 2 ta
- C) 3 ta
- D) 4 ta

2. *1) idrok; 2) terak; 3) ishtirok; 4) chok; 5) bolalik. Berilgan so'zlarning qaysi biriga egalik qo'shimchasi qo'shilganida asos qismda fonetik o'zgarish bo'ladi?*

- A) 1, 2, 3, 4
- B) 2, 5
- C) 1, 3, 4
- D) 1, 2, 5

3. *Yashil bo'yoq bilan bo'yalgan, ust tomoni qayrilgan o'ymakor panjarali, katta va og'ir darvozaga yetganida yigitning yuragi biroz o'ynab ketdi. Ushbu gapda egalik qo'shimcha qo'shilganda o'zgarish bo'lgan so'zlar miqdori nechta?*

- A) 1
- B) 2
- C) 3

D) *ushbu gapda fonetik yozuv asosida yozilgan so'zlar mavjud emas*

4. *“Quloq va ayiq” so'zlariga qaysi qo'shimcha qo'shilsa, asosda tovush tushadi?*

- A) *nisbat yasovchi qo'shimcha*
- B) *egalik qo'shimchasi*
- C) *so'z yasovchi qo'shimcha*
- D) *zamon yasovchi qo'shimcha*

5. *O'rtoq, taroq so'zlariga qaysi qo'shimcha qo'shilsa, asosda fonetik o'zgarish bo'ladi?*

- A) *egalik qo'shimchasi*
- B) *kelishik qo'shimchasi*
- C) *unli bilan boshlanuvchi qo'shimcha*
- D) *egali va kelishik qo'shimchalari*

6. *Qaysi qatorda egalik qo'shimchasi qo'shilganida so'z oxiridagi k va q tovushi o'zgarmaydigan otlar berilgan?*

- A) *koptok, pichoq, tirnoq*
- B) *idrok, nutq, axloq*

C) o‘rtoq, kelajak, qarmoq

D) o‘rik, tuproq, istak

7. Qaysi qatordagi so‘zlarda tovush tushish hodisasi yuz bergan?

A) qaynoq, yamoq, so‘roq

B) unga, shundagi, bunaqa

C) qishlog‘im, etigim, o‘rtog‘im

D) buyrug‘ing, o‘ynama, mening



16-MAVZU. “VETERINARNING KIYINISH MADANIYATI”. GRAMMATIKA: FE’LLARNING TUSLANISHI.

Topshiriq. Matnni o‘qing, tushunchangizni so‘zlab bering.

VETERINARNING KIYINISH MADANIYATI

Etika so‘zi yunoncha - ethos so‘zidan olingan bo‘lib, odat, udum, urf-odat, fe‘l-atvor degan ma‘nolarni bildiradi.

Veterinariya mutaxassislarining etikasi – bu veterinariya xodimlarining o‘z kasbini va xizmat burchini bajarish paytidagi huquqiy va axloqiy me‘yorlarining majmuasidir.

Veterinariya mutaxassisining etikasiga ishdagi xulq-atvor, muomala, insonlarga va hayvonlarga bo‘lgan munosabat, vrachlik burchi, vijdon, yaxshilik, yomonlik va boshqalar kiradi.

Veterinariya mutaxassislari doimo toza, ozoda maxsus xalat va qalpoqda yurishlari kerak. Xalat va qalpoq toza yuvilgan va dazmollangan bo‘lishi kerak.

Veterinariya xodimlari o‘tiradigan xona, hayvonlarni qabul qiladigan joylar supurilgan, tozalangan, yuvilgan, oqlangan bo‘lishi kerak.

Asbob-uskunalar yuvilgan, artilgan holda alohida joylarda, shkaflarda, usti toza material bilan yopilgan holda saqlanishi kerak.

Dori-darmonlar guruhlar bo‘yicha alohida-alohida saqlanishi kerak.

Veterinariya xodimlari kasal hayvonlarni qabul qilganda, kasal hayvon va uning egasiga qo‘pollik qilmasdan, xushmuomala bo‘lishlari lozim. Hayvonni tekshirish uchun kerakli asbob-uskunalar yuvilgan, tozalangan va sterillangan bo‘lishi kerak. Hayvonni tekshirib bo‘lgandan keyin, veterinariya xodimlari asboblarni va qo‘lini yaxshilab yuvishi

lozim. Agarda yuqumli kasalliklarga gumonsiralsa, qo'l va asboblar dezyuqumli eritmalar bilan yuviladi, kasal hayvonning tezagi, siydigi tozalanib, maxsus chuqurga tashlanadi, hayvon turgan joy dezinfeksiya qilinadi.



Kasallik kelib chiqishining oldini olish, kasal hayvonlarni davolash, insonlarni kasalliklardan, tabiatni iflosliklardan saqlash, davlatimizga chetdan yuqumli kasalliklar kelishining oldini olish veterinariya mutaxassislarining vrachlik burchidir.



Matn yuzasdan savollar

1. Veterinarning ish kiyimi tarkibiga nimalar kiradi?
2. Kiyinish madaniyatiga amal qilish uchun qanday talablarga amal qilish kerak?
3. Hayvonlarni davolash paytida qo'lqop va niqoblar tutishning shartlarini qanday?
4. Veterinarning yonida doimo qanday asboblar bo'lishi lozim?
5. Shifokor kiyimi va veterinary kiyinish madaniyatida qanday farqlar mavjud?



NAZARIY MA'LUMOT

Tayanch so'zlar. Fe'l so'z turkumi. O'timli va o'timsiz fe'llar. Fe'lning ma'no turlari. Ish-harakatning bajaruvchisini ifodalash. Fe'llarda shaxs-son shakllari. Fe'llarning tuslanishi.

Shaxs-son. Fe'ldan ifodalangan harakat-holatni bajaruvchi shaxsni, bu shaxsning bitta yoki ko'p ekanligini bildirib, fe'lni va boshqa mustaqil so'zni kesim sifatida shakllantiruvchi, ega bilan bog'lab keluvchi shakl shaxs-son shakli deyiladi. So'zning shaxs va sonda o'zgarishi tuslanish deyiladi. Hozirgi o'zbek tilida shaxs-son ko'rsatkichining 4 ta guruhi mavjud:

Fe'llarning tuslanishi

Fe'llarning shaxs-son qo`shimchalarini olishi tuslanish deyiladi.

Demak, shaxs-son qo`shimchalari tuslovchi qo`shimchalar deyiladi. Shaxs-son qo`shimchalari harakat-holat bajaruvchisini shaxsini va sonini ko`rsatuvchi qo`shimchalardir.

1) birinchi (-man,-san, -di/-ti, -miz, -siz(lar), -(lar)) guruhi -yap,-yotir,-moqda,-gan/-kan/-qan,-(i)b,-a/y,-moqchi ko`rsatkichidan keyin qo`shiladi: Men borganman. Men boryapman. Men boraman;

2) ikkinchi (-m, -ng; -k, -ngiz, -(lar)) guruh -di, edi, -sa ko`rsatkichidan keyin qo`shiladi: Men bordim. Men borgan edim. Men borsam;

3) uchinchi (-im, -ing, -i, -imiz, -ingiz, -(-lar)i) guruh o`tgan va hozirgi zamon ko`rsatkichi bilan yo`q so`zi orasida bo`ladi: Men borganim yo`q. Men borayotganim;

4) to`rtinchi guruh buyruq-istak mayli bilan birgalikda ifodalanadi: bor, boring, borsin, boray, boraylik kabi.

Shaxs	Birlik	Ko`plik
1-shaxs	Yozdim, yozaman, yozay(in)	Yozdik, yozamiz, yozaylik
2-shaxs	Yozding, yozasan, yoz(gin)	Yozdingiz, yozasiz, yozing(iz)
3-shaxs	Yozdi, yozadi, yozsin	Yozdilar, yozadilar, yozsinlar

Fe'lning shaxs-son shakllari



MUSTAHKAMLASH

1-topshiriq. O‘qing. Fe’llarning shaxs-son va zamon qo‘shimchalarini aniqlang. Bir zamon va shaxs-son qo‘shinichasi boshqa zamon va shaxs-son uchun qo‘llanilgan o‘rinlarni topib, uslubiy ma’nosini ayting.

1.Tarix sahifasiga ziynat bag‘ishlagan yana bir qancha nomlar.Hammasini sanab chiqib, ta’rif-tavsiflash uchun alohida kitob yozsang arziydi.(T.Po‘lat) 2.Havo ochilib ketgan, salqin shamol esar, televideniye minorasining qir uchida pufakday to‘lin oy osilib turardi.(O‘.H.) 3.O‘sha bekatga tezroq yetishga shoshilyapman.Oyoq olishim ildamlashyapti.Orqamga qaradim.Men bu shaharda bir yil yashadim.Bu shahar boshimni silab, menga bag‘ridari joy berdi.Non berdi...Bu mening kattakon yo‘ldagi birinchi qadamim bo‘lishiga ishonaman.O‘ylayapman.Bu o‘ylar ertangi porloq kunimning aniq rejalari bo‘lishiga ishonaman.(S.Ahm.) “Xush ko‘rdik!”-“Xushvaqt bo‘lgaylar”.(S.Ayniy)

2-topshiriq. Nuqtalar o‘rniga mos qo‘shimchalarni qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1.Yer haydasa...kuz hay da, kuz haydamasa..., yuz hay da.(Maqol)
2.Atirgul shunday chiroyli ediki, Oqiljon qarab to‘ymas ...(Farhod Musajon)
3.Men ham o‘zimni kulgidan to‘xtata olmadi...(N.Fozilov)
4.O‘zingni er bilsa..., o‘zgani sher bil.(Maqol)

3-topshiriq. Matnni o‘zbek tiliga o‘giring. Shaxs-son qo‘shimchalaiga diqqat qiling.

У нас иногда путают два понятия: образование и культурность. Конечно, в наше время человек, не имеющий никакого образования, не может стать и поистине культурным. Систематическое образование лучше всего получить в том или ином учебном заведении. Но, помимо образования, нужно ещё и самообразование, то есть постоянное накопление знаний, общекультурных навыков, развитие определённой способности восприятия, умения разбираться во всех тех областях духовной и материальной жизни, с которыми, может быть и не связана непосредственно работа человека.

4-topshiriq. Berilgan gapdagi zamon shakllarining ma’nolarini aniqlang.

1.Yur, ketdik. Qorning to‘qmi? – dedi Habibulla
2. Men ertaga ketyapman, Farhod.

3. Buvasi gapiradi, Mamadali tinglaydi.

5-topshiriq. Berilgan fe'llarga I va II shaxs-son qo'shimchalarini qo'yib, gaplarni to'ldiring, shaxsi ma'lum gaplarga aylantiring.

Foydalanish uchun fe'llar: chiqmoq, aniqlamoq, tuzmoq, tashkil etmoq, o'tmoq.

1. Matndagi topshiriq asosida o'zbek shoir va yozuvchilarining ro'yxatini ...

2. Tog'ning eng yuqori qismiga ...

3. Yagona mahsulot ishlab chiqarish uchun uyushgan korxonalar birlashmasini...

4. Daryoning boshlanadigan qismini ...

5. Yo'llarning kesishgan joyidan....



SUHBAT UCHUN MAVZU

Burgaga achchiq qilib ko'rpaga o't qo'yma.

Uyga topshiriq. *“Bo'sh o'tirma, bosh qotir.” mavzusida matn tuzing.*



17-MAVZU. “HUQUQIY MADANIYAT. VETERINARIYA SOHASIGA OID ME'YORIY HUJJATLAR”.

GRAMMATIKA: FE'LNING VAZIFA SHAKLLARI.

Topshiriq. Matn bilan tanishing.

HUQUQIY MADANIYAT


Huquq — davlat hokimiyati tomonidan belgilanadigan va qo'riqlanadigan, jamiyatda kishilarning o'zaro munosabatlarini va boshqalarni tartibga soladigan umummajburiy qonun-qoidalar, me'yorlar majmuasi.

U huquqiy munosabatlar va fuqaroning davlat tomonidan mustahkamlanadigan, kafolatlanadigan va muhofaza etiladigan asosiy huquqlarini o'z ichiga oladi.

Yurispridensiyada huquq tizimi 2 ga ajratiladi: xususiy huquq va ommaviy huquq. Fuqarolik huquqi xususiy huquqqa tegishlidir. Ommaviy huquqqa esa davlat, moliya, jinoyat, protsessual va xalqaro huquq kiritiladi.

Huquqiy ong – ijtimoiy ong shakli; jamiyat a’zolarining mavjud huquqiy munosabatlar va huquqni tushunishi, huquq-tartibot haqidagi tasavvurida o’z aksini topadi.

Huquqiy madaniyat deganda jamiyatning qonunchilik darajasi, mavjud qonunlardan aholining xabardorlik darajasi, fuqarolarning, mansabdor shaxslarning huquq me’yorlariga rioya qilishi va ularni bajarmagan shaxslarga nisbatan murosasiz bo’lishi tushuniladi. Huquqiy madaniyat kishilarning huquq to’g’risidagi bilimiga, qonunga bo’lgan hurmati, huquqiy me’yorlarni bajarishi, ularga amal qilmaganda huquqbuzarliklar sodir qilinsa, tegishli jazo choralari olishidir O‘zbekistonda demokratik huquqiy davlatni shakllantirish jamiyat, mansabdor shaxslar va fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirishni talab qiladi. Shuning uchun huquqiy davlatning muhim beligisi – bu huquqiy madaniyatdir.



Veterinariya sohasiga aloqador huquqiy-me’yoriy hujjatlar quyidagilar: 1.O‘zbekiston Respublikasining 1993-yil 3-sentabrda qabul qilingan “Veterinariya to’g’risida”gi 935-XII-sonli Qonuni.

2.O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 29-dekabrda qabul qilingan “Veterinariya to’g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi O‘RQ-397-son Qonuni.

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-martdagi “Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-5696-son Farmoni.

4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to’g’risida” 2019-yil 28-martdagi PQ-4254-son.

5.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to’g’risida”gi 532-son qarori.

6.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-martdagi “Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-187-son qarori.

7.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi atamalar komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-40-son qarori.

1.O‘zbekiston Respublikasining 1993-yil 3-sentabrda qabul qilingan “Veterinariya to‘g‘risida”gi 935-XII-sonli Qonuni.

2.O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 29-dekabrda qabul qilingan “Veterinariya to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi O‘RQ-397-son Qonuni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-martdagi “Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5696-son Farmoni.

4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2019-yil 28-martdagi PQ-4254-son.

5.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 532-son qarori.

6.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-martdagi “Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-187-son qarori.

7.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi atamalar komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-40-son qarori.



Matn yuzasidan savollar

1. Huquq deganda nimani tushunasiz?
2. Sizningcha, odamlarning qanday huquqlari bor?
3. Huquqlarni bilish nima uchun kerak?
4. Odamlarning huquqlari himoyalanganmi? Nimalar bilan?
5. Tasavvur qiling, siz shifoxonaga bordingiz. Shifokorlar sizni davolashdan bosh tortdi. Ularning ishi to‘g‘rimi?



Tayanch so'zlar. Fe'ning vazifa shakllari. Sof fe'l shakli va unda ifodalanadigan asosiy grammatik ma'nolar. Harakat nomi va uning yasalishi. Sifatdosh shaklini hosil qiluvchi qo'shimchalar. Ravishdoshlarning nutqda qo'llanishi. Ravishdosh shaklini hosil qiluvchi qo'shimchalar.

FE'LNING VAZIFA SHAKLLARI.

Fe'llar gapda boshqa so'zlar bilan bog'lanib, kesim, ega, aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol vazifasida kelishi mumkin. Buning uchun fe'l maxsus shakllarga ega bo'ladi. Turli xil gap bo'lagi vazifasida kelish uchun xoslangan fe'l shakllari **fe'ning vazifa shakllari** sanaladi.

Fe'llarning to'rt vazifa shakli mavjud:

- 1) **sof fe'l shakli:** *o'qidi*
- 2) **harakat nomi shakli:** *o'qish, o'qimoq*
- 3) **sifatdosh shakli:** *o'qigan*
- 4) **ravishdosh shakli:** *o'qib.*

Fe'ning otga xoslangan shakli **harakat nomi** deyiladi va fe'l asosiga *-sh, -ish, -(u)v, -moq* qo'shimchalarini qo'shish yo'li bilan yasaladi: *yasha+sh, kel+ish, ayt+uv, bil+moq.*

A yoki **I** bilan tugagan fe'l asoslariga *-v* qo'shimchasi qo'shilganda **a** unlisi **oga**, **I** unlisi **uga** aylanadi: *ishla – ishlov, o'qi – o'quv.*

Harakat nomi otlar kabi egalik, kelishik, ko'plik qo'shimchalarini oladi va gapda ot bajaradigan gap bo'lagi vazifasini bajaradi. Masalan: *Chiroyli yozishni o'rgan. Yozuving yomon emas.*

Fe'ning sifatga xoslangan shakli **sifatdosh** deyiladi. Sifatdoshlar fe'l asosiga *-gan (-kan, -qan), -ydigan (-adigan), -(a)yotgan, -(a)r* qo'shimchalarini qo'shish bilan hosil qilinadi.

Sifatdoshlar shaxs va narsalarning belgisini bildirishi bilan sifatga o'xshaydi. **Sifatlar** shaxs va narsaning turg'un, barqaror belgisini bildirsa, **sifatdoshlar** o'zgarish, harakat belgisini ifodalaydi. Solishtiring: *katta (sifat) daryo, oqar (sifatdosh) daryo.*

Sifatdoshlar fe'l shakli bo'lganligi uchun fe'lga xos bo'lgan zamon, bo'lishli, bo'lishsizlik, nisbat shakllarini ifodalaydi.

Sifatdoshning **-gan (-kan, -qan)** qo'shimchasi shaxs- narsalarning o'tgan zamonga xosharakat belgisini ifodalaydi. Bu qo'shimcha unli bilan tugagan fe'l asoslariga *-gan* shaklida qo'shiladi va shunday yoziladi (*ketgan, o'ynagan* kabi).

Jarangsiz undosh bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shilib, **-kan** holida talaffuz qilinsa ham **-gan** shaklida yoziladi (*ko'chgan, o'sgan*).

Jarangsiz **q** va **k** undoshlari bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shilganda – **qan, -kan** tarzida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi (*chiqqan, tikkan* kabi).

Jarangli **g'** bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shilganda, **-qan** talaffuz qilinsa-da, **-gan** shaklida yoziladi (*bug'gan, sig'gan* kabi).

Hozirgi zamon sifatdoshi fe'l asoslariga **-(a)yotgan** qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi (*borayotgan*).

Kelasi zamon sifatdoshi fe'l asoslariga **-ydigan, -adigan, -ar** qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi.

Sifatdoshning bo'lishsizlik shakli sifatdosh hosil qiluvchi qo'shimchalardan oldin

-ma qo'shimchasini qo'shish orqali hosil qilinadi: *aytgan – aytmagan, kelayotgan – kelmayotgan, o'qiydigan – o'qimaydigan. -ar* qo'shimchasining bo'lishsiz shakli

-mas qo'shimchasi (*oqar - oqmas*).

Fe'ning ravishga xoslangan shakli **ravishdosh** deyiladi. Ravishdoshlar harakatning belgisini bildirishi bilan ravishga o'xshaydi. Ravishdosh ham fe'lga bog'lanib, uning belgisini bildiradi. Solishtiring: **piyoda (ravish) keldi, shoshilib (ravishdosh) keldi.**

Ravishdoshning **-(i)b, -a/-y** shakllari ko'proq harakatning holatini, ba'zan payt, sababini, **-gancha (-kancha, -qancha)** shakli holatini, **-gach (-kach, -qach), -guncha (-kuncha, -quncha)** shakli paytini, **-gani (-kani, -qani)** shakli maqsadini anglatadi.

Fe'ning vazifa shakllari-

Fe'llar gapda boshqa so'zlar bilan bog'lanib, ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi va hol vazifasida kelishi mumkin. Shu boisdan fe'l maxsus shakllarga ega. Turli gap bo'laklari vazifasida kelish uchun xoslangan fe'l shakllari *fe'ning vazifa shakllari* hisoblanadi va ular to'rt guruhga bo'linadi.

Fe'ning vazifadosh shakllari deganda fe'ning gapda ma'lum sintaktik vazifani bajarishga xoslangan shakllari tushuniladi. Fe'ning vazifadosh shakllari 3 xil:

1. *Sifaldosh.*
2. *Ravishdosh.*
3. *Harakat nomi.*

Bu shakllarning mavjudligi uchun fe'llar gapda ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi bo'lib kela oladi.



MUSTAQIL ISHLASH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. Quyidagi tushunchalarni o'z izohi bilan to'g'ri juftlashga harakat qiling va ma'lumotlar bilan tanishing.

HUQUQ TURI	IZOH
shaxslar o'rtasidagi munosabatlarning xilma-xil shakllariga ta'sir ko'rsatadi	Jinoyat huquqi
mavjud ijtimoiy munosabatlarni buzishga qarshi kurash choralarini belgilaydi	Protsessual huquq
mehnat va uning mahsulotlarini jamiyat a'zolari o'rtasida muayyan o'lchov va shakllarda taqsimlab turuvchi vazifasini o'taydi	Mulk huquqi
mulkchilik munosabatlarini, xo'jalik aloqalari mexanizmini mustahkamlaydi	Oilaviy huquq
nizolarni qay yo'sinda hal qilish kerakligini belgilaydi	Mehnat huquqi
vakolatli organlar, davlat boshqaruvi organlari shakllanishi, tartibi, faoliyatini belgilab beradi	Fuqarolik huquqi

2-topshiriq. Quyidagi matnni o'zbek tiliga tarjima qiling.

Права́ челове́ка — правила, обеспечивающие защиту достоинства и свободы каждого отдельного человека. В своей совокупности основные права образуют основу правового статуса личности.

3-topshiriq. Quyida sohangizga oid ma'lumot berilgan. Qo'mitaning to'liq rasmiy nomini eslab qoling. Matn asosida rasmiy-idoraviy uslubga oid belgilarni ayting.

Qo'mita veterinariya, chorvachilik va naslchilik sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi davlat boshqaruv organi hisoblanadi.

Qo'mita O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga bo'ysunadi.

Qo'mitaning rasmiy nomi:

a) davlat tilida:

to'liq nomi — O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi, qisqartirilgani — Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi;

b) ingliz tilida:

to'liq nomi — State Committee of Veterinary and livestock development of the Republic of Uzbekistan, qisqartirilgani — State Committee of Veterinary and livestock development;

v) rus tilida:

to'liq nomi — Gosudarstvenniy komitet veterinarii i razvitiya jivotnovodstva Respubliki Uzbekistan, qisqartirilgani — Goskom veterinarii i razvitiya jivotnovodstva.

4-topshiriq. Berilgan matndan fe'lning vazifadosh shakllarini aniqlang va izohlang.

NAFAS QISISHI, hansirash - nafas olish tezligi, chuqurligi va maromining buzilishi, odatda, havo yetishmasligi bilan kechadi. Fiziologik va patologik xillari tafovut qilinadi. Fiziologik nafas qisishi jismoniy ish qilayotganda organizmning kislorod ehtiyoji oshishi natijasida paydo bo'ladi. Patologik nafas qisishi ayrim kasallik holatlarida yuz beradi. Markaziy nafas qisishi nafasning idora qilinishi buzilganda (q. *Nafas*) yoki bosh miyadagi nafas markazi zaharlanganda, organizm, masalan, uxlatadigan dorilar yoki narkotik moddalardan zaharlanganda sodir bo'ladi. O'pkaga aloqador nafas qisishi ko'krak qafasi shikastlanganda, o'pka kuchli zaharlanganda (*o'pka yallig'lanishi, sil, bronxiol astma, o'pka emfizemasi* va b.) kuzatiladi. Nafas qisishining bu turi nafas chuqurligi va tezligining buzilishi, aksari nafas chiqarishning qiyinlashishi, teri va shilliq qavatlarining ko'karishi (q. *Sianoz*), bo'yin venalarining bo'rtib chiqishi, yuz ko'karishi bilann o'tishi mumkin. O'pkadan bo'ladigan nafas qisishihatto ozgina jismoniy harakat qilganda ham kuchayadi. Yurakka aloqador nafas qisishi yurak kamchiligida ro'y beradi, bunda teri ko'karib ketishi, oyoq-qo'llar sovuq qotishi mumkin. Jismoniy ish qilganda bunday nafas qisishi keskin kamayadi.

5-topshiriq. Hikmatli so'zlarni o'qing va yod oling. Nuqtalar o'rniga –(i)sh, -moq(-mak), -(u)vqo'shimchalaridan mosini qo'yib harakat nomi yasang.

Bilim o'qi... va takrorla... mevasidir. O'qi... koni foyda. Vatanni sev... iymondandir. Ertalab tur..., bet-qo'lini yuv..., boshqalarga salom ber...insoniylik belgisidir. Birovni birovga chaq... - eng yomon illat.

SUHBAT UCHUN MAVZU

Men anglagan hayot.

Uyga topshiriq. Quyidagi fe'l asoslarini jadvalga joylashtiring.

O‘qimoq, kelgan, kulayotib, sovvish, sevmoq, ishlagan, yozmagan, uquv, chaqtirgan, zavqlanib, mustahkamlab joyladi, quchoqlashib, tortishayotgan, kelguncha, yugurish, chiniqdi.

Sof fe’l								
Harakat nomi	O‘qimoq							
Sifatdosh								
Ravishdosh								



18-MAVZU. “O‘ZBEKISTONDA SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMI”. GRAMMATIKA: YORDAMCHI VA ALOHIDA OLINGAN SO‘ZLAR TURKUMI.

Topshiriq. Matnni o‘qing savollarga javob bering.

O‘ZBEKISTONDA SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMI

Sog‘liqni saqlash - aholi sog‘lig‘ini muhofaza qilishga yo‘naltirilgan ijtimoiy, iqtisodiy va tibbiy tadbirlar tizimi. Sog‘liqni saqlash kasalliklarning oldini olish va davolash, sog‘lom turmush va mehnat sharoitini yaratish, yuqori mehnat qobiliyatini va uzoq umr ko‘rishni ta’minlashga qaratilgan umumiy tadbirlarni ko‘zda tutadi; uning asosiy vazifasi bemorlarga zamonaviy, ixtisoslashgan hamda mos tarzda yordam ko‘rsatishdan iborat.



O‘zbekistonda Sog‘liqni saqlash ishlarini O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi boshqaradi. Qaqalpog‘iston Respublikasida Sog‘liqni saqlash vazirligi, viloyatlar, shaharlar hamda tumanlarda tegishli boshqarma yoki bo‘limlar mavjud. Respublikada sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirishda O‘zbekiston Respublikasi Kasaba

uyushmalari federatsiyasi, shuningdek, "Sogʻlom avlod uchun" xalqaro xayriya jamgʻarmasi, "Qizil yarim oy" jamiyati, "Nuroni" jamgʻarmasi va boshqalar oʻz hissasini qoʻshib kelmoqda.

Aholi sogʻligʻini muhofaza qilish koʻp jihatdan davlat epidemiologiya xizmati faoliyatiga bogʻliq. Oʻzbekistonda sanitariya-epidemiologiya stansiyalari va aholi oʻrtasida sogʻlom turmush tarzini shakllantirishning tashkiliy-uslubiy va muvofiqlashtiruvchi ishlarini olib boradigan "Salomatlik" markazlari bu vazifani amalga oshirmoqda.

Bolalarga ixtisoslashgan tibbiy yordam beruvchi muassasalar tarmogʻi barpo etildi. Respublikada ishlab chiqilgan "Sogʻlom avlod uchun" dasturi, avvalo, muntazam oʻtkazib turiladigan tibbiy tekshirishlar asosida salomatligi zaif va kasalmand maktab oʻquvchilari va oʻsmirlarni aniqlab, ularni va umuman yosh avlodni sogʻlomlashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirib borishni koʻzda tutadi.

Sogʻliqni saqlash tizimidagi oʻzgarishlar "Sihat-salomatlik" jurnali, "Oʻzbekiston tibbiyot jurnali" va tibbiyot sohalariga oid jurnallarda yoritib boriladi.



Matn yuzasidan savollar

1. Sogʻliqni saqlash deganda qanday tadbirlar koʻzda tutiladi?
2. Sogʻliqni saqlash tizimining asosiy vazifasi nimalardan iborat?
3. Oʻzbekistonda Sogʻliqni saqlash ishlarini qaysi vazirlik boshqaradi?
4. Respublikada sogʻliqni saqlash tizimini rivojlantirishda qaysi tashkilotlar oʻz hissasini qoʻshib kelmoqda?
5. "Salomatlik" markazlari qanday vazifani amalga oshirmoqda?
6. "Sogʻlom avlod uchun" dasturi qanday chora-tadbirlarini amalga oshirib borishni koʻzda tutadi?
7. Sogʻliqni saqlash tizimidagi oʻzgarishlar qaysi jurnallarda yoritib boriladi?



NAZARIY MA'LUMOT

Tayanch soʻzlar. Yordamchi soʻz turkumlari. Bogʻlovchi va uning xususiyatlari. Yuklama va uning xususiyatlari. Koʻmakchi va uning xususiyatlari. Alohida olingan soʻzlar turkumi va ularning xususiyatlari. Undov soʻzlar. Taqlid soʻzlar. Modal soʻzlar.

YORDAMCHI SOʻZLAR. ALOHIDA SOʻZ TURKUMLARI

Biror soʻroqqa javob boʻlmay, gap yoki gap boʻlaklarini bir-biriga bogʻlash uchun xizmat qiladigan soʻzlarga **yordamchi soʻzlar** deyiladi. **Bogʻlovchi, koʻmakchi va yuklamalar** yordamchi soʻzlardir.

BOG'LOVCHI. Uyushiq bo'laklarni va qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bir-biriga bog'lash uchun xizmat qiladigan yordamchi so'zlar bog'lovchi sanaladi. Masalan: *va, ammo, lekin, biroq, chunki, yo...yo, dam...dam, goh...goh* singari. *Bilan* ko'makchisi ba'zan uyushiq bo'laklarni bog'lab kelganda bog'lovchi vazifasini bajaradi: *Qalam bilan daftar oldim*; o'zaro tobe bog'lanuvchi so'zlarni bog'lab kelganda ko'makchi vazifasini bajaradi: *Qalam bilan yozdim*.

YUKLAMA. So'z yoki gaplarga so'roq, ta'kid, ayirish-chegaralash, gumon, o'xshatish, inkor kabi ma'nolarni yuklovchi so'z va qo'shimchalarga yuklamalar deyiladi. Yuklamalarga: 1) *axir, hatto, faqat, ham, xuddi, go'yo, go'yoki, naq, hech, sira, nahotki, na ...na* so'zlari; 2) *-mi, -chi, -gina (-kina, -qina), -dir, -u, -yu, -da, -a* singari qo'shimchalar kiradi. Ularning birinchi guruhi so'z-yuklamalar, ikkinchi guruhi esa qo'shimcha-yuklamalar sanaladi.



KO'MAKCHILAR. Otlarning boshqa so'zlarga tobe bog'lanishi uchun xizmat qiladigan yordamchi so'zlarga ko'makchilar deyiladi. Ko'makchilar ko'pincha otlarni fe'lga bog'lab keladi. Masalan: *shahar tomon ketdi, daryo bo'ylab yurdi* kabi. Ba'zan otni ot, sifat va ravishlarga tobelashtirib bog'laydi. Masalan: *ona kabi mehribon; Halimdan ko'ra katta*. Atash ma'nosini tamoman yo'qotib, faqat o'zi birikkan so'zni boshqa so'zga tobelantirib bog'lash uchun xizmat qiladigan ko'makchilar sof ko'makchilar (*bilan, sari, sayin, uchun, kabi, qadar, singari, uzra,*

tufayli, haqida kabi), ko‘makchi vazifasida kelganda, atash ma’nosini yo‘qotadigan *ost, yon, ust, old, orqa, ro‘para, oldin, avval, keyin, so‘ng, tomon, qosh, bo‘ylab, qarab, ko‘ra, deya, deb, atab* singari vazifadosh ko‘makchilar mavjud.

Alohida olingan so‘zlar atash ma’nosiga va maxsus savoliga ega emas, lekin gapda ma’lim sintaktik vazifa bajarib keladi. Undov so‘zlar, taqlid so‘zlar va modal so‘zlar ushbu guruhga mansub.

UNDOV SO‘ZLAR. So‘zlovchining his-hayajonini, shuningdek, hayvon-parrandalarni biror harakatga undashni ifodalovchi so‘zlarga undov so‘zlar deyiladi. Undovlar ma’nosiga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi: 1) his-hayajon undovlari: *iyе, еh, o, uh, uf, bay-bay, ho, o‘h-ho‘, ehe, e, hay-hay, a-ha, e-ha, ha-ya, o‘, i, a, o‘h, obbo, iya, he, iye-voy, ura, vo, vodarig‘, esiz, evoh, vah-vah, ajabo*; 2) buyruq-xitob undovlari: *hoy, oy, ay, allo, ey, ma, tss, marsh, qani, kisht; beh-bah, pish-pish, pisht, tu-tu, gah, kuch-kuch, mah-mah, xo‘sh, tak, dirr, ish, xix, chu(h), kisht, hayt, huyt; assalomu alaykum, salom, assalom, alaykum assalom, xayr, xo‘sh, xo‘p, marhamat, marhabo, rahmat, tashakkur, shukur, qulluq, balli, ofarin, barakalla, qoyil, hormang, bor bo‘ling, esonmisiz, omonmisiz, uzr.* Yozuvda undov so‘zlardan keyin vergul qo‘yiladi.

TAQLID SO‘ZLAR. Inson, hayvon va narsalarning tovushlariga taqlid ifodalovchi so‘zlar taqlid so‘zlar hisoblanadi. Taqlid so‘zlar nimaga taqlidni bildirishiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi: 1) tovushga taqlid so‘zlar; 2) holatga taqlid so‘zlar. Narsalarning ovozigaga taqlidni bildiruvchi so‘zlar tovushga taqlid so‘zlar sanaladi. Masalan, *g‘a-g‘a* (o‘rdak ovozigaga taqlid), *di-dit* (mashina signaliga taqlid). Narsalarning holatiga taqlidni bildiruvchi so‘zlar holatga taqlid so‘zlar hisoblanadi. Masalan, *lip-lip* (chiroq holati), *jimir-jimir* (suv holati).

MODAL SO‘ZLAR. Ifodalanayotgan fikrga so‘zlovchining munosabatini (ishonch, gumon, achinish kabi) bildirgan so‘zlarga modal so‘zlar deyiladi. Modal so‘zlar ham sof modal so‘zlar va vazifadosh modal so‘zlarga bo‘linadi. Faqat modal ma’no uchun xoslangan so‘zlar sof modal so‘zlar sanaladi: *haqiqatan, darhaqiqat, afsuski, attang, albatta, shekilli, avvalo, avvalambor, xullas, koshki, masalan* kabi. Modal ma’noda ham qo‘llanilgan *aftidan, chamasi, balki, umuman, ehtimol, taxminan, shubhasiz* singari so‘zlar vazifadosh modal so‘zlar hisoblanadi. Modal so‘zlar gap tarkibida boshqa so‘zlardan vergul bilan ajratiladi.



MUSTAHKAMLASH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. Ko‘chiring, bog‘lovchilarni topib, izohlang.

1.Qo‘rqoq do‘st dushmanidan xavflidir, chunki dushmanidan ehtiyot bo‘lasan, ammo do‘stga ishonasan.(L.Tolstoy) 2.Taraqqiyot tasodif emas, balki zaruriyatdir.(V.Gyugo) 3.Abdumalik ota nevaralarini yeyishar deb, har bahorda ko‘chat ekadi.(A.Shukurov) 4.Vatanimiz poytaxtida, ya’ni Toshkentda diqqatga sazovor joylar ko‘p.(«Gulxan»dan) 5.Badantarbiya bilan mashg‘ul bolmay qo‘ygan kishi tez-tez kasalga chalinadi, chunki harakatsizlik natijasida kishining a‘zolari zaiflashadi.(Ibn Sino)

2-topshiriq. Yordamchi so‘zlarni toping.

1.Sizni ishxonada ham, oilada ham ijobiy yutuqlar kutmoqda.2.Mashaqqatli, lekin sharaflı ishga qo‘l urasiz.3.Iqtisodiy ahvolingiz ham a‘lo darajada.Uni qanday taqsimlash faqat sizning didingizga, aqlingizga bog‘liq.4.Aql-u zakovatingiz bilan ularni mot qilasiz.5.Yaqinlaringizning quvonch-u tashvishiga sherik bo‘lishga harakat qiling.6.Qayg‘u bilan shodlik yonma-yon bo‘lishini unutmang.Ollohdan sabr-qanoat, kuch-quvvat so‘rang.7.Shaxmat o‘zida nazariy, ham amaliy tomonlarini birlashtirgan alohida fan.8.Taqdirning qaysi ko‘chasiga bosh urishga ba‘zan kimdir, ba‘zan qandaydir tasodif sabab bo‘ladi.9.Xalqim, Vatanim uchun zavq va shavq bilan mehnat qilaman.10.Mashrab bilan So‘fi Olloyorning dunyoqarashlari, muhabbatlari bir-birlariga hamohang edi. (Gazetadan)

3-topshiriq. Quyida berilgan hikoyatni o‘qing. Ko‘makchi, yuklama va bog‘lovchilarni topib yozing.

SADOQAT

Qadim zamonlarda shunday bir yurt bor ekanki, uning xalqi mehnatkash, podshosi odil, hayoti tinch ekan.Shu bois, boshqa bir mamlakatning shohi g‘ayirligi kelib, o‘sha yurtni bosib olmoqchi bo‘libdi.Biroq daf‘atan hujum qilishga jur‘at etolmay, o‘sha yurtga o‘z xufiyasini yuboribdi.Xufiya o‘sha yurtga boribdi va mulozimlari safiga kiribdi.So‘ng o‘z mamlakatiga borib, shohiga bu yurtni olib bo‘lmaslikni aytibdi.«Qal’asi mustahkam emas, lashkari ham ko‘p emas», deb o‘zi guvoh bo‘lgan voqeani aytib beribdi:Bir kuni o‘sha podsho shikorga chiqqan edi: men ham, yigitlar ham birga bordik.Podsho uchqur bir kiyik ortidan ot qo‘ydi.Shu bois, hammamiz unga ergashdik, biroq kiyik narigi cho‘qqiga o‘tib ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi.Terlab ketgan podsho ro‘molcha bilan peshonasini artmoqchi edi, nogahon shamol kelib, ro‘molchani

daraga uchirib ketdi. Shu sababli qirq yigitning hammasi o'zini tubsiz jarlikka otdi. Qanchasi mayib-majruh bo'ldi, ammo omon qolgan bir yigit ro'molchani olib chiqdi va podshoga topshirdi... U yurtida bunday yigitlar ko'p, shuning uchun ham bunaqa yurti yengib bo'lmaydi. (O'. Hoshimov)

4-topshiriq. Bog'lovchilarning turini aniqlang va jadvalga yozing.

 Bilim bo'lsa mustahkam, Hech kimdan bo'lmaysiz kam. "Grafik test" metodi 				
Gaplar	Birikti ruv bog'.	Zidlov bog'.	Ayiruv bog'.	Inkor bog'.
Buvim bilan har yakshanba kuni sayrga chiqamiz va miriqib dam olamiz.				
Hamma gullarning hidi bor, ammo rayhonning hidi boshqacha.				
Yo siz keling, yo men boray.				
Na kitob o'qiydi, na biror bir foydali ish bilan shug'ullanadi.				

5-topshiriq. Taqlid so'zlarni toping va ma'nosini izohlang.

1. Yetti qaroqchi yulduzi tik kelganda g'o'ng'ir-g'o'ng'ir ovozdan uyg'onib ketdim. (G'afur G'ulom) 2. Jigarim otashga tegardi jiz-jiz. Sochlarim oqargan shunda, ehtimol. (S. Zunnunova) 3. Shunday bo'lsa ham, vujudini tutgan qalt-qalt titroqni bosib hazilomuz qichqirdi. (O. Yoqubov) 4. Allakim ship-ship qadam bosib, ayvon labiga kelayotganday bo'lardi. (O'. Hoshimov) 5. Osmonda yombi oltinday yaraqlagan to'lin oy... xiralashib borar, milt-milt qilgan yakkam-dukkam yulduzlarga uyg'oq edi. (Muhammad AH) 6. Qamchin bilan taqa-tuq, Darvozani qoqdi chol. (A. Oripov) 7. Ali Qushchi hovliga chiqishi bilan o'ng qo'lidagi binodan kimdir lip etib chiqib, yo'liini to'sdi. (O. Yoqubov) 8. Tun sukutini ot tuyoqlarining dupuri buzdi. (O. Yoqubov) 9. Men-ku ishonaman, sahrolar gullab, Sizning qiy-chuv bilan to'lgay dalalar. (A. Oripov)



SUHBAT UCHUN MAVZU

Tarixga bir nazar.

Uyga topshiriq. Gaplarni yozing. Modal so'zlarning tagiga chizing. Ma'nosini tushuntiring.

1. Xayriyat, daraning oxiriga yaqinlashgan sayin asov soy sayozlashib, muz tobora yupqalashib bordi-yu, nihoyat, qoyatoshlar chekinib, yaylov

ko'rindi.(O.Yoqubov) 2.Xullas, Umidjon deyarli har kuni bitta yangi, ibratli ertak o'ylab topib, buvisiga so'zlab beradigan bo'libdi.(N.Aminov) 3.Kattasi ham uyg'onib ketdi, shekilli, qo'shilishib yig'lashga tushdi.(O'.Hoshimov) 4.Ehtimol, ertalab o'ziga isitib berish uchun shunaqa deyayotgandir. (O'.Hoshimov) 5.To'g'ri, qishloq tomonga bir-ikki qadam bosdim.Lekin, chamasi, kursdoshlar orasida yolg'izlanib qolish, ming bir ta'nalarni eshitishdan ham qo'rqdim, shekilli.(Sh.Xolmirzjayev)



19-MAVZU. “HAYVONOT VA INSONIYAT OLAMI PSIXOLOGIYASI”.

GRAMMATIKA: SO‘ZLARNING BOG‘LANISHI.

Topshiriq. Matn bilan tanishing.

HAYVONOT VA INSONIYAT OLAMI PSIXOLOGIYASI

Tirik mavjudot hisoblangan inson va hayvonot olamidagi har bir mavjudot o'z ruhiy dunyosiga ega. Inson ruhiyati bilan eng oliy hayvonning ruhiyati o'rtasida katta farq bor.

Birinchi farq - bu odam va hayvonning tafakkuri o'rtasidagi farq. Demak, hayvonlarning “tili” bilan inson tilini solishtirib bo'lmaydi. Hayvon o'z hamkasblariga faqat ma'lum, bevosita vaziyat bilan chegaralangan hodisalar haqida signal berishi mumkin bo'lsa, odam boshqa odamlarga o'tmish, hozirgi va kelajak haqida ma'lumot berish, ularga ijtimoiy tajribani etkazish uchun tildan foydalanishi mumkin. Har bir shaxs, til tufayli, jamiyatning ko'p asrlik amaliyotida ishlab chiqilgan tajribadan foydalanadi, u shaxsan o'zi hech qachon uchratmagan hodisalar haqida bilimga ega bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, til odamga ko'pgina hissiy taassurotlarning mazmunidan xabardor bo'lishga imkon beradi.

Hayvonlarning "tili" va inson tilidagi farq fikrlashdagi farqni belgilaydi, chunki har bir individual aqliy funktsiya boshqa funktsiyalar bilan o'zaro ta'sirda rivojlanadi.

Tadqiqotchilarning ko'plab tajribalari shuni ko'rsatdiki, faqat amaliy fikrlash yuqori hayvonlarga xosdir. Faqatgina manipulyatsiyani yo'naltirish jarayonida maymun u yoki bu situatsion muammoni hal qilishga va hatto "vosita" ni yaratishga qodir. Hayvonlar psixikasini o'rgangan birorta tadqiqotchi haligacha maymunlarda mavhum fikrlash

usullarini kuzatmagan. Hayvon faqat ko'z bilan idrok etilgan vaziyat doirasida harakat qilishi mumkin, u o'z chegarasidan tashqariga chiqqa olmaydi, undan mavhum va mavhum printsipni o'zlashtira olmaydi. Hayvon darhol sezilgan vaziyatning qulidir.



Insonning xulq-atvori ushbu muayyan vaziyatdan mavhumlash (chalg'itish) va ushbu vaziyat bilan bog'liq holda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan oqibatlarni oldindan bilish qobiliyati bilan tavsiflanadi. Odamlar bu vaziyatning quli emas, ular kelajakni ko'ra oladilar.

Shunday qilib, hayvonlarning konkret, amaliy fikrlashi ularni ma'lum bir vaziyatning bevosita taassurotiga bo'ysundiradi va insonning mavhum fikrlash qobiliyati uning ma'lum bir vaziyatga bevosita bog'liqligini yo'q qiladi. Inson tan olingan ehtiyojga ko'ra - ongli ravishda harakat qila oladi.

Inson va hayvon o'rtasidagi ikkinchi farq uning asboblarni yaratish va saqlash qobiliyatidadir. Hayvon muayyan vizual-samarali vaziyatda vosita yaratadi. Muayyan vaziyatdan tashqari, hayvon hech qachon asbobni asbob sifatida ajratib ko'rsatmaydi, uni kelajakda foydalanish uchun saqlamaydi. Asbob bu vaziyatda o'z rolini o'ynagan zahoti, u darhol maymun uchun vosita sifatida mavjud bo'lishni to'xtatadi. Shunday qilib, agar maymun homilani tortib olish uchun asbob sifatida tayoqdan foydalangan bo'lsa, bir muncha vaqt o'tgach, hayvon uni kemirishi yoki boshqa maymun buni qanday qilishini xotirjam kuzatishi mumkin.

Shunday qilib, hayvonlar doimiy narsalar dunyosida yashamaydilar. Bundan tashqari, hayvonlarning mehnat qurollari faoliyati hech qachon birgalikda bajarilmaydi - eng yaxshi holatda, maymunlar o'z hamkasblarining faolligini kuzatishi mumkin, lekin ular hech qachon birgalikda harakat qilmaydi, bir-biriga yordam beradi.

Hayvondan farqli o'laroq, odam oldindan o'ylangan reja bo'yicha asbob yaratadi, uni o'z maqsadi uchun ishlatadi va uni saqlab qoladi. Inson nisbatan doimiy narsalar dunyosida yashaydi, boshqa odamlar bilan umumiy vositadan foydalanadi, asbobdan foydalanish tajribasini ba'zilaridan o'zlashtiradi va uni boshqa odamlarga uzatadi.

Hayvonlar va odam o'rtasidagi uchinchi, juda muhim farq - bu his-tuyg'ularning farqidir. Inson ham, yuqori hayvon ham atrofda sodir bo'layotgan voqealarga befarq qolmaydi. Haqiqat obyektlari va hodisalari hayvonlar va odamlarda ijobiy yoki salbiy his-tuyg'ularni keltirib chiqarishi mumkin. Biroq, faqat insonda qayg'uga hamdard bo'lish va boshqa odam bilan xursand bo'lish qobiliyati haqida xulosa chiqarish mumkin. Faqat inson hayotning biron bir haqiqatini anglab etganida, tabiatning suratlaridan zavqlanishi yoki intellektual tuyg'ularni boshdan kechirishi mumkin.

Inson psixikasi va hayvonlar psixikasi o'rtasidagi to'rtinchi muhim farq ularning rivojlanish sharoitlaridadir. Hayvonot dunyosi psixikasining rivojlanishi qonunlar asosida davom etsa biologik evolyutsiya, keyin inson ongining haqiqiy inson psixikasining rivojlanishi qonunlarga bo'ysunadi tarixiy rivojlanish.

Hayvon ham, odam ham o'z arsenalida ma'lum turdagi stimulg'a instinktiv harakatlar shaklida avlodlarning taniqli tajribasiga ega. Har ikkisi ham hayot taqdim etgan har xil vaziyatlarda shaxsiy tajribaga ega bo'lishadi. Lekin faqat inson o'zining ruhiyatini eng yuqori darajada rivojlantiruvchi ijtimoiy tajribani o'zlashtiradi. Bola tug'ilgan paytdan boshlab asboblardan foydalanish usullarini, boshqa odamlar bilan muloqot qilish usullarini o'zlashtiradi.



Psixologlar aniqladilarki, insoniyat tajribasini o'zlashtirmasdan, o'z turi bilan aloqa qilmasdan, rivojlangan, aslida insoniy his-tuyg'ular, o'zboshimchalik bilan e'tibor va xotira qobiliyati, mavhum fikrlash qobiliyati rivojlanmaydi, inson shaxsiyati rivojlanmaydi. shakllanmaydi.

Hayvonlar orasida inson bolalarini tarbiyalash holatlari shuni ko'rsatdiki, hayvonlar tomonidan tarbiyalangan bolalarda odamni hayvonlardan ajratib turadigan xususiyatlarni aniqlab bo'lmaydi. Kichkina maymun, tasodifan, yolg'iz, podasiz, maymun sifatida namoyon bo'ladigan bo'lsa-da, inson faqat uning rivojlanishi odamlar orasida sodir bo'lsa, shaxsga aylanadi.

Insonga xos bo'lgan psixikaning eng yuqori darajasi ongni shakllantiradi. Ong - bu psixikaning eng yuqori, yaxlit shakli, boshqa odamlar bilan doimiy aloqada (tildan foydalanish) mehnat faoliyatida shaxsning shakllanishi uchun ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlarning natijasi.



NAZARIY MA'LUMOT

Tayanch so'z va iboralar. So'zlarning bog'lanishi: teng va tobe bog'lanish. Teng bog'lanishni yuzaga chiqaruvchi vositalar. Tobe bog'lanish. So'z birikmasi. Erkin va turg'un birikmalar va ularning nutqda qo'llanishi.

SO'ZLARNING BOG'LANISHI.

Ma'lum bir fikrni ifodalash uchun so'zlarni tilimizning muayyan qoidalari asosida bir-biriga bog'lab, gap tuzamiz. So'zlarning bir-biriga bog'lanishi, gap va uning turlarini o'rgatadigan tilshunoslik bo'limiga **sintaksis** deyiladi.

Gap tarkibida ishtirok etgan so'zlar bir-biri bilan bog'lanadi. Masalan: *qir va adir, Oygul bilan Baxtiyor; gulni hidlamoq, maktabga kelmoq* kabi. So'zlarning bog'lanishi ikki xil bo'ladi: **teng bog'lanish** va **tobe bog'lanish**. *Olma va o'rik* shaklidagi bog'lanish teng bog'lanish, *olmani yemoq* shaklidagi bog'lanish esa tobe bog'lanish sanaladi.

Mustaqil so'zning teng bog'lovchi (bog'lovchi vazifasidagi so'z) yoki sanash ohangi yordamida teng bog'lanishi natijasida **so'z qo'shilmasi** vujudga ketadi: *olma va anor, qalam bilan ruchka, o'qidi va yozdi* kabi. Teng bog'lanishda bir so'z boshqasiga tobe bo'lmaydi: *erkak va ayol* yoki *erkak, ayol*.

Birdan ortiq mustaqil so'zning ma'no va grammatik jihatdan tobe bog'lanishi **so'z birikmasi** deyiladi: *maktabga borish, daftarning varag'i* kabi. So'z birikmasida bosh va ergash so'z bo'ladi. Bunda ma'nosi izohlanayotgan so'z **bosh (hokim) so'z**, uning ma'nosini ravshanlashtirib kelayotgan, izohlayotgan, to'ldirayotgan so'z **ergash (tobe) so'z** hisoblanadi. So'roq hamma vaqt bosh so'zdan beriladi, so'roqqa javob bo'lgan so'z ergash(tobe) so'z: *shirin olma* (qanday olma?).

Ibora (turg'un birikma, barqaror birikma) – ma'no jihatidan bir so'zga teng, ajralmas hotatga kelib qolgan lug'aviy birlik. Uning tarkibidagi so'zni bosh yoki ergashga ajratish mumkin emas: *tarvuzi qo'ltig'idan tushdi*. Ibora bir so'zga teng, shuning uchun gapda bitta gap bo'lagi bo'lib keladi: *Sizga oq yo'l* (ibora, to'ldiruvchi) tilayman. So'z birikmasidagi mustaqil so'z nutq jarayonidagina birikuv hosil qiladi va bosh so'z ham, ergash so'z ham alohida gap bo'lagi bo'lib kelishi mumkin: *A'lochi* (ergash so'z) *talabalar* (bosh so'z) *kelishdi*. Bunda ergash so'z aniqlovchi, bosh so'z ega vazifasida.



MUSTAHKAMLASH

1-topshiriq. Quyidagi so'zlardan foydalanib gaplar tuzing, so'zlarning bog'lanishiga alohida diqqat qiling.

1.Ma'naviyat, qalb, quyosh. 2.Biz, Amir Temur, nabira. 3.Mustaqillik, abadiy, bo'l. 4.Siz, o'z, Vatan, sev. 5.Iste'dod, bola, deganda, kim, tushun. 6.Ona, tabiat, e'zoz.

2- topshiriq. O'qing. Har bir qatordagi gap, so'z va so'z birikmalari sonini aniqlang.

1.Ko'hna Samarqand. Har bir o'zbek bu shahar bilan faxrlanadi.
2.Mana Registon. Binolarga hayrat bilan boqaman.
3.Kuch-adolatda. Bu-Sohibqironning hayotdagi shiori edi.
4.Kuch-bilimda. U insonni buyuk maqsadlar sari yetaklovchi mayoqdir.

3-topshiriq. Gaplar tarkibidan so'z birikmalarini ajratib oling va ularning bog'lanish usullariga izoh bering.

1.Aql bozorda sotilmas.2.Aql aqldan quvvat oladi.3.Aybini yashirmoq nodonlar ishi.4.Aqldan ortiq boylik yo'q.5.Aqlni beaqldan o'rgan.6.Ahmoqning katta-kichigi yo'q.

4-topshiriq. Berilgan hikmatli so'zlarni o'qing. So'z birikmalarini aniqlab, daftaringizga yozing.

Namuna: Vatanni sevmiq iymondandir.

(vatanni sevmiq, sevmiq iymondan)

1.Beshikdan qabrgacha ilm izla. 2.Hunar, hunardan rizqing unar. 3.Jannat onalar oyog'i ostidadir. 4.Vatan ostonadan boshlanadi.5 .Sihat tilasang ko'p yema, izzat tilasang ko'p dema. 6.Bir gul bilan yoz bo'lmas.

5-topshiriq. So'zlarni bir-biriga bog'lab gaplar hosil qiling va ularni daftaringizga ko'chiring.

1.Biz, bog', ish.2.Ona, dunyo, eng, chiroyli, ayol.3.Toza, yur, kasal, bo'l.4.Alisher Navoiy, o'zbek, xalq, buyuk, shoir.5.Uy, ish, ona, yordam.



Kelajak mening tasavvurimda.

Uyga topshiriq. Nuqtalar o‘rniga zarur bog‘lovchi vositalarni qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. Fizika tabiat haqidagi asosiy fanlardan biridir, ... boshqa tabiiy fanlar taraqqiyoti fizik hodisalarga bog‘liq. 2. Olimjon xatni o‘qiy olmadi, ... yig‘ilishga odamlar to‘plana boshlashdi. 3. Har bir ishimizdan ertaning shabadasi kelib turibdi, ... qo‘lim yumush qidiradi. 4. Kun issiq ... , quruvchilar maysazorga yonboshladilar. 5. Saída bugun a‘lo baho oldi, ... barcha topshiriqlarni to‘g‘ri bajardi.



20-MAVZU. “VATANPARVARLIK TUYG‘USI”. GRAMMATIKA: GAPDA SO‘ZLAR TARTIBI.

Topshiriq. Matnni o‘qing.

VATANPARVARLIK TUYG‘USI

Vatanparvarlik – vatanga muhabbat va sadoqat, vatan uchun xizmat qilish va bu yo‘lda butun umrini va salohiyatini baxshida etish, kerak bo‘lsa, o‘z jonini ham fido qilish demakdir. Vatanparvarlik barcha insonlar, millatlar, xalqlar uchun umumiy bo‘lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg‘u, ma’naviy qadriyatlardan biri. Tarixiy jihatdan vatanparvarlik insonlarning o‘z vatani taqdiri bilan bog‘liq ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, xalqlarning o‘zlari yashayotgan hudud daxlsizligi va mustaqilligi yo‘lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg‘ular jamlanmasi hamdir. Bu vatanning o‘tmishi va buguni bilan faxrlanishda, kelajagi uchun qayg‘urish va daxldorlikda, uning manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo‘ladi. **(Foziljon OTAXONOV)**





Tayanch soʻzlar. Gapda soʻzlar tartibi. Gap boʻlaklarining odatdagi joylashuvi: odatdagi tartib. Gap boʻlaklari tartibining oʻzgarishi: oʻzgargan tartib (inversiya). Gap boʻlaklari tartibining maʼnoga taʼsiri.

GAPDA SOʻZLAR TARTIBI.

Biz fikrimizni bayon qilish chogʻimizda zarur soʻzlarni tanlash bilan birga, ularni muayyan tartibda joylaymiz, chunki soʻzlashuvchilarning ongida gap boʻlaklarining tartibi boʻyicha koʻnikma mavjud boʻladi. Unga koʻra, kesim gapning eng oxirida; toʻldiruvchi, toʻldirilmishdan, hol esa hollanmishdan oldin, ega koʻpincha gap boshida, aniqlovchi aniqlanmishdan oldin keladi. Bunday tartib soʻzlashuv va ilmiy uslublarga xosdir. Badiiy va qisman publitsistik uslubda esa gap boʻlaklari tartibi oʻzgarishiga yoʻl qoʻyiladi.

Eslab qoling. Gap boʻlaklari tartibining buzilishi inversiya deb ataladi. Inversiya badiiylik, ifodalilik, taʼsirchanlikni taʼminlash maqsadida qoʻllaniladi.

GAP BOʻLAKLARI TARTIBI. Oʻzbek tilida gap boʻlaklarining joylashish tartibi asosan erkin boʻlsa-da, ular gapda maʼlum grammatik qoidalar asosida oʻrinlashadi. Odatda, gapda ega va unga bogʻlangan boʻlaklar oldin, kesim va unga bogʻlangan boʻlaklar keyin joylashadi, baʼzan aksinchasi ham boʻladi: Bu yoʻllar menga tanish. -Menga tanish bu yoʻllar. Eganing koʻproq gap boshida, kesimning, asosan, gap oxirida (Men keldim), holning kesimdan oldin (ohista gapirdi), toʻldiruvchining kesimdan oldin (sheʼrni yod oldi), aniqlovchining egadan oldin (qizil gul, doʻstimning akasi) joylashuvi odatdagi, meʼyoriy tartibdir. Lekin nutqda doimo ham gap boʻlaklarining odatdagi tartibi saqlanavermaydi, gapdan koʻzda tutilgan umumiy fikrga qoʻshimcha maʼno, uslubiy yuk berish uchun tartib oʻzgartirilishi mumkin.

Masalan:

1. Kecha akam samolyotda Fargʻonadan Toshkentga ketdi (boshqa yerga emas, Toshkentga).
2. Kecha akam samolyotda Toshkentga Fargʻonadan ketdi (boshqa yerdan emas, Fargʻonadan).
3. Kecha akam Fargʻonadan Toshkentga samolyotda ketdi (boshqa narsada emas, samolyotda).
4. Kecha samolyotda Fargʻonadan Toshkentga akam ketdi (boshqa kishi emas, akam).

5. Akam samolyotda Farg'onadan Toshkentga kecha ketdi (boshqa kuni emas, kecha).

Ko'rinadiki, e'tibor qaratilgan ma'noni ifodalagan bo'lak kesim oldiga keltirilgan. Gap bo'laklarining odatdagi va o'zgargan tartibining nutqda o'z qo'llanish o'rinlari bor. Odatdagi tartib ilmiy asarlar uslubi uchun mos bo'lsa, o'zgargan tartib og'zaki nutq uchun va badiiy (ayniqsa, she'riy) nutq uslubi uchun xos.

Gap bo'lagi tartibi ikki xil: **odatdagi tartib**; **o'zgargan tartib**.

Odatdagi tartib. Bunda quyidagi holat kuzatiladi:

1) ega (o'z aniqlovchisi bilan) oldin, kesim gapning oxirida keladi: Yosh havaskorlar to'plandi;

2) payt holi egadan oldin keladi: Bugun yosh havaskorlar to'plandi;

3) to'ldiruvchi o'z aniqlovchisi bilan egadan keyin keladi: Bugun yosh havaskorlar dehqonlarga katta tomosha ko'rsatdi;

4) vaziyat holi kesimdan oldin keladi; Daryo uzoqdan tovlanib ko'rinadi.

O'zgargan tartib (bu inversiya ham deyiladi) da quyidagi holat kuzatiladi:

1) ega kesimdan keyin keladi: Yashasin mustaqillik!

2) to'ldiruvchi kesimdan keyin keladi: To'xtat suvni!

3) vaziyat holi fe'l-kesimdan keyin keladi: Shamol esadi g'ir-g'ir.

Gap bo'lagi tartibi o'zgarishi quyidagi hollarda kuzatiladi:

a) badiiy nutqda, ko'pincha, she'riyatda: Senga bo'ldim azaliy oshiq. Bunga berar o'lim xotima.

b) hayajon kuchli bo'lganda: Oling qo'lingizni!

d) shior va chaqiriqda: Yashasin mustaqillik!

e) mantiqiy urg'u talabi bilan: Bordik biz. Ayting o'zingiz.

Gap bo'laklari tartibi

Odatdagi tartib

**Vaqt seni hech qachon kutib
o'tirmaydi.**

O'zgargan tartib

// Inversiya

**Kutib o'tirmaydi
vaqt seni hech qachon.**



MUSTAHKAMLASH

1-topshiriq. Quyidagi soʻzlardan foydalangan holda gaplar tuzing. Gap taribiga eʼtibor qaring.

1. Bahor tabiat yam-yashil tus kirmoq. 2. Bolalar dalalar varrak uchirmoq, oʻynamoq. 3. Butun tabiat, hayvonlar, qushlar uygʻonmoq.

2-topshiriq. Nuqtalar oʻrniga maʼlumot uchun berilgan soʻzlardan mosini qoʻyib, matnni koʻchiring. Siz tabiat hodisalarini kuzatganmisiz? Shular haqida gapiring.

... havo bulut boʻlib, kun boʻyi yomgʻir yogʻdi. ... oʻqishdan qaytib kelayotganimizdagina tindi. Yomgʻir tingach, ufq qip-qizil boʻlib ketdi. Dadamlar: "Ufq qizarsa, ... havo yaxshi boʻladi", -der edilar. Mana ... havo ochiq. Ertalabki sof havoda rohat qilib kerishdim. Togʻ ortidan ... yarmisi chiqqan quyoshga ... qaray olmadim.

Maʼlumot uchun: endi, bugun, ertaga, kecha, peshinda, tik, muzdek.

3-topshiriq. Gap boʻlaklarini aniqlang.

1. Mardlar qoʻriqlaydi Vatanni.
2. Mumtoz navolar kishilar qalbiga sokinlik baxsh etadi.
3. Kitobdan beminnatroq doʻst topilmas.

4-topshiriq. Shoir Hamid Olimjonning «Oʻrik gullaganda» qoʻshigʻini tinglang. Qoʻshiqda gap tartibining oʻzgarishi hodisalarini tushuntiring.

Novdalarni bezab gʻunchalar,
Tongda aytdi hayot otini.
oʻtadi.

Har bahorda shu boʻlar takror,
Har bahor ham shunday

Va shabboda qurgʻur ilk sahar
Olib ketdi gulning totini.

Qancha tirishsam ham u beor
Yellar meni aldab ketadi.

5-topshiriq. Dam olish kunida" matnini oʻqing va topshiriqni bajaring. Siz dam olish kuningizni qanday oʻtkazasiz? Oʻzbekistondagi qanday oromgohlarni bilasiz? Ular haqida gapirib bering.

Dam olish kuni edi. Dam olgani guruhimiz bilan shahardan tashqariga chiqadigan boʻldik. Ertalab hammamiz yotoqxona oldida uchrashgach, avtobusga oʻtirib, Boʻstonliq tomon yoʻl oldik. Toshkentdan 50 kilometr yoʻl yurilgach, katta chorraha keladi. Koʻprikdan oʻtib, chap tomonga yursangiz, Oqtoshga, oʻngga burilsangiz, Gʻazalkentga borasiz. Biz ...



Sabr baxt kaliti.

Uyga topshiriq. Quyidagi rasm asosida hikoya yozing.



21-MAVZU. “O‘ZBEK VETERINARLARINING SHUHRATI”. GRAMMATIKA: UYUSHIQ BO‘LAKLARNING MATNDA ISHLATILISHI.

Topshiriq. Matn bilan tarnishing.

O‘ZBEK VETERINARLARINING SHUHRATI

Mamlakatimizda veterinariya parazitologiyasi sohasidagi olimlardan N.V.Badanin, E.X.Ergashev, N.M.Matchanov, Sh.A.Azimov, R.X.Xaitov, B.S.Salimov, A.O.Oripov, A.Ro‘zimurodov, M.Aminjonov, G.Po‘latov va boshqalarni aytib o‘tish o‘rinlidir.

O‘zbekistonda veterinariya parazitologiyasining shakllanishi bevosita O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, respublikada xizmat ko‘rsatgan veterinariya vrachi, veterinariya fanlari doktori, professor N.V.Badanin nomi bilan bog‘liq. U Samarqand qishloq xo‘jalik institutida uzoq yillar davomida mehnat qilib, respublikamizda kadrlar tayyorlash ishida o‘zining ulkan hissasini qo‘shdi. U «Tuyalar gelmintlari» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan, O‘zbekiston sharoitida kavsh qaytaruvchilar gelmintofaunasini o‘rgangan va ular gelmintozlariga qarshi kurash tizimini tavsiya etgan.

O‘zRFA akademigi, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, veterinariya fanlari doktori, professor E. H. Ergashev (1933–2003)ning ilmiy tadqiqotlari va ishlanmalari shunisi bilan ajralib turadiki,

olim faoliyati davomida O‘zbekiston hududida chorva mollari orasida keng tarqalgan exinokokkoz, senuroz hamda qator nematodozlarga qarshi kurash hamda oldini olishning maqbul va samarali usullarini ishlab chiqish bilan birga, zarur hollarda nosog‘lom xo‘jaliklarni sog‘lomlashtirishda bevosita ishtirok etgan. U qo‘y va echkilar gelmintlarini yil mavsumlari, mintaqaviy qismlar bo‘yicha hayvon yoshiga bog‘liq ravishda o‘rgandi. O‘zbekistonda qo‘y va echkilarning asosiy gelmintozlarini va ularning chorvachilikka yetkazadigan zararini aniqladi.

Olimning ilmiy-pedagogik faoliyati davomida 700 ga yaqin ilmiy ishlari, 20 ga yaqin darslik va monografiyalar nashr qilingan. U ilmiy-amaliy tavsiyalarga hamda ixtirochilikka katta e‘tibor bergan va shu maqsadda 185 ta tavsiya ishlab chiqqan, 27 ta ixtirochilik ishlanmasiga mualliflik guvohnomasini olgan.

N.M.Matchanov va uning shogirdlari qishloq xo‘jalik hayvonlari teniidozlari muammosi bo‘yicha keng tarmoqli ilmiy tadqiqotlar olib borgan, ularda «parazit–xo‘jayin» munosabatlarining nazariy jihatlarini asoslangan va invazion elementlarning tabiatda sirkulatsiya qilinishi o‘rganilgan.

N.M.Matchanov ko‘p yillik tadqiqotlari natijasida bu kasallikni amaliy jihatdan butunlay tugatish mumkinligini ilmiy asoslarini ishlab chiqdi va bunga Buxoro viloyati hududida erishdi va bu, o‘z navbatida, chorvachilikka katta iqtisodiy foyda keltirdi. N.M.Matchanovning hammualli ar bilan tayyorlangan «O‘zbekistonda bio- va geogelmintozlar va ularga qarshi kurash» (1975), «Odam va qorako‘l qo‘ylarining larval teniidozlari» (1977) va «Odam va hayvonlarning larval teniidozlari» (1977) nomli monografiyalari hamda «Veterinariya asoslari» o‘quv qo‘llanmasi sohaning rivojiga qo‘shilgan ulkan hissadir. U – 200 dan ortiq ilmiy ishlar muallifi.

Veterinariya fanlari doktori, professor B.S.Salimov qishloq xo‘jaligi hayvonlarida keng tarqalgan trematodalarning bioekologik xususiyatlarini, ular chaqiradigan kasalliklarning epizootologiyasini o‘rganishga, ularga qarshi bioekologik kurash asoslarini yaratishga qaratilgan. U o‘z ilmiy ishlarini O‘zbekistonda gelmintologiya fanini rivojlantirishga, uni malakali kadrlar bilan boyitishga, shu bilan birga, zoologiya va parazitologiya fanlari bo‘yicha o‘quv-uslubiiy ishlarni takomillashtirishga, talabalarni ilmiy tadqiqot ishlariga faol jalb etishga qaratgan.

B.S.Salimov 200 dan ortiq ilmiy maqolalar muallifi, ixtiro va ratsionalizatorlik takliflari uchun bir nechta mualliflik guvohnomalarini olgan. Ilmiy tadqiqot natijalari ishlab chiqarishga joriy etilib, veterinariya xizmatiga yaqindan amaliy yordam berib kelmoqda.

Agronomiya parazitologiyasi XX asrning boshlarida fitogelmintologiya fani sifatida qishloq xo'jaligi o'simliklarida va tuproqda yashaydigan nematodalarini o'rganuvchi yangi soha sifatida vujudga keldi. Bu sohaga Y.S.Kiryanova asos solgan. Keyinchalik, O'zbekistonda bu sohadagi tadqiqot ishlari O'zbekiston Fanlar akademiyasi muxbir a'zosi, professor A.T.To'laganov boshchiligida fitonematodalarining faunasi, taksonomik tizimi, biologiyasi va ekinlarga katta zarar yetkazuvchi parazit turlarni o'rganishga tomon yo'naltirildi. Respublikamizning turli ilmiy markazlarida fitogelmintologiya sohasida tadqiqot ishlari olib borgan olimlar sifatida Z.Norboyev, A.I.Zemlyanskaya, O.Z.Usmanova, O.Mavlonov, Sh.Xurramov va boshqalarni aytib o'tish mumkin.

(D.T.Isakova, E.B.Shakarboyevlarning "Veterinariya parazitologiyasi" o'quv qo'llanmasidan olindi)



NAZARIY MA'LUMOT

Tayanch so'z va iboralar. Uyushiq bo'laklar va ularning turlari. Uyushiq bo'laklar qismlarining o'zaro bog'lanishi. Uyushiq bo'laklarda umumlashtiruvchi so'zlarning qo'llanishi. Uyushiq bo'laklarning matnda ishlatilishi.

UYUSHIQ BO'LAKLARNING MATNDA ISHLATILISHI

Bir gap tarkibida bir turdagi bo'laklar birdan ortiq holda kelishi mumkin: *Yo'lda ba'zan katta-katta maydonni qoplab olgan oq, pushti, sariq va qizilgullar uchraydi.*(Yo.Sh.) *Ular daryo bo'yidagi toshlardan, har xil giyohlardan namunalar olishdi.*(H.N.) Birinchi gapda aniqlovchi (oq, pushti, sariq, qizil), ikkinchi gapda to'ldiruvchi (toshlardan, giyohlardan) o'zaro teng aloqada ketma-ket kelgan. Gapda bir xil sintaktik vazifa bajarib, bir xil so'roqqa javob bo'luvchi, o'zaro teng aloqada, boshqa bo'laklar bilan esa tobe aloqada bo'lgan bo'laklar **uyushiq bo'laklar** deyiladi. Ular o'zaro teng bog'lovchilar yoki tenglanish ohangi orqali birikadi. Uyushiq bo'laklar bir-biridan pauza bilan ajralib, sanash ohangi bilan aytiladi. Har bir uyushiq bo'lakning o'z ayrim urg'usi bo'ladi. Gapning kesimi va egasi ham, ikkinchi darajali bo'laklari ham uyushib kelishi mumkin. Sanash ohangi yordamida bog'langan uyushiq bo'laklar bir-biridan vergul bilan ajratiladi.

UYUSHIQ BO'LAKLARNING BOG'LANISHI

- Uyushiq bo'laklar ohang yordamida hamda va, ammo, lekin so'zlari bilan ham bog'lanadi.
- Uyushiq bo'laklar va yordamida bog'langanda vergul qo'yilmaydi. Ohang yoki ammo, lekin so'zlari yordamida bog'lansa, vergul qo'yiladi.
- Masalan: Uyda va ko'chada odobli bo'ling. Men Ikromni ko'rdim, lekin so'zlasha olmadim. Madina, Nigora. Oybeklar kelishdi.

UYUSHIQ BO'LAKLI GAPLAR

- Gapda bir xil so'roqqa javob bo'lgan, bir so'zga bog'lanib kelgan bo'laklar uyushiq bo'laklardir. Ular sanash ohangi bilan o'qiladi.
- Masalan: Bog'da olma, o'rik, shaftoli pishdi.
- Gapda egalar uyushib keladi.
- Gapda kesimlar uyushib keladi.
- Gapda ikkinchi darajali bo'laklar uyushib keladi.

Sanalayotgan bo'laklar ma'nosini jamlab ifodalagan so'zga **umumlashtiruvchi so'z** deyiladi. Umumlashtiruvchi so'z uyushiq bo'laklardan oldin kelsa, umumlashtiruvchi so'z bilan uyushiq bo'laklar o'rtasiga ikki nuqta (:) qo'yiladi. Masalan: *Bog'imizda mevalar: olma, o'rik, shaftolilar bor.* Umumlashtiruvchi so'z uyushiq bo'lakdan keyin kelsa, uyushiq bo'lak va umumlashtiruvchi so'z o'rtasiga tire (-) qo'yiladi. Masalan: *Kutubxonamizda Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Usmon Azimov – barcha taniqli shoirlarning asarlari bor.*



MUSTAHKAMLASH

1- topshiriq. Matnni o'qing, uyushiq bo'laklarni aniqlab, ularni izohiang.

1.Navoiy, Bobur, Mashrab singari jahonga mashhur shoirlar ruhi hamisha bizni insoniy kamolot sari chorlab turadi. Ular o'zlarining eng nodir asarlarida do'stlikni, insonparvarlikni, mehr-muhabbatni ulug'laganlar. 2.O'zidan yaxshi xotirot qoldirgan inson o'lgandan keyin ham izzat-ikromga, xotirlab turishga loyiq. 3.Farzandlarimizga til, kasb o'rgatishning payida bo'laylik. 4.Yigit-qizlarimiz O'zbekistonning, insoniyatning bolasi bo'lsa, hamma faxrlanadi. 5.Xalq ertangi kuni yaxshiroq bo'lishini istasa, birlashmog'i, uyushmog'i va haqiqat uchun kurashmog'i kerak. (E.Vohidov)

2- topshiriq. O'qing. Uyushiq bo'laklarni umumlashtiruvchi so'z bilan almashtiring.

1.O'sha kuni Toshkent bilan Farg'ona ham, Andijon-u Namangan ham, Samarqand-u Nukus ham bayramga bahor liboslarini kiyib chiqdilar. 2.Meni bu yerga tog' bag'rini to'ldirgan bodom, shaftoli, anor,

o'rik va olma gullari yubordi.(Sh.R.) 3.Inson boshi to'kinlikni ham, ochlikni ham, sevinch va dahshatni ham, kulgi va yig'ini ham ko'rar ekan.4.Yelisey maydonida ham, Afina ziyoratgohlarida ham, Bosfor sohillarida ham, Nyu-Yorkdagi ozodlik haykali oldida ham Tinchlik degan so'z salobat bilan yangradi.(Gaz..) 5.Yagona husn mutlaq mavjuddir, inim-Quyoshning nurlarida, dengizlar toshqinida, tog'larning muazzam jussasida va yaproqlarning titrashida uning jamolini ko'ramiz.(O.)

3-topshiriq. Klaster chizmasida berilgan uyushiq bo'lak turlarining har biriga uchtdan gap yozing. Gaplarda sohangizga oid atamalardan foydalaning.



4-topshiriq. Quyida berilga matndan uyushgan bo'laklarni ajratib yozing.

NOTOKOTILIDOZLAR (*notocotylidoses*; qo'zg'atuvchining avlod nomiga (*Notocotylus* ga yunoncha *id* suffiks qo'shib o'g'il avlodi, *oses* kasallik degan ma'noni anglatadi) - o'rdak va g'ozlarning hamda yovvoyi parrandalarning gelmintoz kasalligi bo'lib, *Notocotylidae* oilasiga mansub bo'lgan parazitlarning to'g'ri va ko'r ichaklarida parazitlik qilishi tufayli sodir bo'ladi. Bu kasallik hamma joylarda keng tarqalgan, ko'pincha yosh parrandalar kasallanadi. Xarakterli klinik belgilari sezilmaydi, kuchli invaziyalanganda parrandalarning oriqlashi hamda o'lishi kuzatilishi mumkin.

5-topshiriq. Ko‘chiring uyushiq bo‘laklarning tagiga chizing.

OKSIDLANISH, oksidlanish jarayoni - tor ma'noda turli moddalarning kislorod bilan birikishi. Kengroq ma'noda - atomlar yoki ionlar elektronlarni tortib olishi bilan sodir bo'ladigan kimyoviy reaksiya (q. *Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari*). Eng muhim oksidlovchilarga kislorod O₂, ozon O₃, vodorod peroksid N₂O₂, xlor S₁₂, ftor G₂, kaliy permanganat KMnO₄ va b. kiradi.



SUHBAT UCHUN MAVZU

Sabr baxt kaliti.

Uyga topshiriq. Uyushiq bo‘laklardan foydalangan holda sohaga doir matn tuzing.



22-MAVZU. “SHAXS MA’NAVIYATI”. GRAMMATIKA: UNDALMA VA UNING USLUBIY XUSUSIYATLARI.

Topshiriq. Matn bilan tanishing.

SHAXS MA’NAVIYATI

Ma'lumki, insonning tashqi va ichki olami mavjud. Tashqi olamiga uning bo'ybasti, ko'rinishi, kiyinishi, xatti-harakati va boshqa kiradi. Ichki olami esa uning yashashdan maqsadi, fikr yuritishi, orzu-istaklari, intilishlari, his-tuyg'ularini o'z ichiga oladi. Insonning ana shu ichki olami ma'naviyatdir

Ma'naviyatli odam yashashdan maqsad nimaligini aniq biladi, umrini mazmunli o'tkazish yo'lini izlab topadi, muomala qilish madaniyatini egallaydi, har bir masalaga insof va adolat nuqtai nazaridan yondoshadi. Vijdon nima, yolg'on va rost nima, or-nomus nima, halol va harom nima — bularning hammasini bir-biridan ajrata oladi, hayotda yomonlikka boshlovchi xatti-harakatlardan voz kechadi, yaxshilikka boshlovchi amallarni bajaradi. „Ma'naviyat — insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir. U yo'q joyda hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi“, - degan edi O'zbekistonning ilk prezidenti Islom Karimov.

Shaxs ma'naviyatini rivojlantirishning omillari va vositalari ko'p.

Ma'naviy tarbiya – bugungi kunning eng dolzarb masalasi. Bu ishga barcha birdek mas'uldir. Mamlakatimizda tarbiyani hozirgi zamon

talablari darajasida olib borishda mavjud barcha imkoniyatlar va vositalardan samarali foydalanganimizdagina ma'naviyati yuksak yoshlarni tarbiyalashga erishish mumkin bo'ladi.



NAZARIY MA'LUMOT

Tayanch so'zlar. Undalma va uning turlari. Undalmaning gapdagi o'rni. Undalmaning gapdagi boshqa bo'laklar bilan munosabati. Undalma bilan birga qo'llanuvchi birliklar. Undalmalarning uslubiy xususiyatlari.

UNDALMA

So'zlovchining fikri qaratilgan shaxs yoki narsalarni bildiruvchi so'z va so'zlar birikmasiga **undalma** deyiladi. Masalan: *Yurtim, senga she'r bitdim bugun.* (A.Oripov) Undalmalar bitta yoki bir nechta so'zdan iborat bo'ladi. Masalan: *Qizim, yalpiz terib kelsang-chi.* (H.Raimova) *Qadrli bolalar, kelajak siznikidir.* **Undalma** so'zlovchining nutqi qaratilgan shaxsni, narsani (obyektni) bildiradi. Undalmalar ham ega singari bosh kelishikda qo'llaniladi, ammo ega grammatik jihatdan gapda kesim bilan bog'lanadi, undalmalar esa grammatik jihatdan hech bir bo'lakka bog'lanmaydi. Undalmali gaplarning kesimi ko'pincha birinchi va ikkinchi shaxs-son shakllarida bo'ladi. Undalma alohida ohang bilan ajratilib aytiladi. Undalmaning gapdagi o'rni erkindir: gap boshida ham, o'rtasida ham, oxirida ham kelishi mumkin. Undalmalar ba'zan jonivorlar, jonsiz narsalarga yoki joylarga ham qaratiladi: *Seni unutilmas yuragim aslo, Ey O'rta Osiyo, O'rta Osiyo.* (G'.G'.) Undalmalar uyushib kelishi ham mumkin: *Muhtaram otalar, onalar, kelinlar, o'g'illar, opa-singillar, sizga shu haqda murojaat qilamiz kabi.*



MUSTAHHKAMLASH

1-topshiriq. O'qing. Avval undalmasiz ega ishtirok etgan gaplarni, so'ngra ham ega, ham undalma mavjud bo'lgan gaplarni ko'chiring.

1.Sen gapimga quloq sol, o'g'lim. (O'. Hoshimov) 2. Bobo, to'qayda arslon bo'ladimi? (Yusuf Shomansur) 3. Soliyaxon qayerlik o'zi? (S. Zunnunova) 4. Go'zal Bahor! Sen munchalar maftunkorsan!

2-topshiriq. Gaplarning egasini undalmaga, aksincha, undalmani egaga aylantiring, shunga ko'ra kesimni ham o'zgartiring. Ma'no hamda uslubdagi farqni ayting.

N a m u n a : Shunchalar go‘zaldir guliston o‘lkam. - Shunchalar go‘zalsan, guliston o‘lkam.

1. Yoshlar bilimlarni qunt bilan o‘rganmoqdalar.
2. O‘zbekiston yoshlari o‘z Vatanlariga sodiq bo‘lib qoladilar.
3. Odamlar, urushga sira yo‘l qo‘ymang.
4. Yigit omon bo‘lsa, xavf-u xatar yo‘q. (G‘.G‘.)
5. Do‘stlik hayotda eng ishonchli tayanchdir.

3-topshiriq. Quyidagi so‘z va so‘z birikmalari undalma vazifasida kelgan gaplar tuzib yozing.

Hurmatli Prezident, ey inson, obod o‘lkam, O‘zbekistonim, ey sen zakiiy, boy ota, gulim, ona tilim, Vatan, azizim onam, ko‘zim qorasi.

4-topshiriq. Undalmalar mavjud gaplarni aniqlang.

1. Yurtim, dalalaring bebaho, tuprog‘ing tabarruk. (Tog‘ay Murod)
2. Kamol, Kamoljon, uxlab qoldingmi? Kel, o‘g‘lim, ovqating sovib qoldi. (S. Abdullayeva)
3. Bu vidolashuv, ayniqsa, Ulug‘bekka qattiq ta’sir qildi. (B. Ahmedov)
4. O‘zimning bulbulim, nega to‘xtab qolding, bulbuljon? (Yo‘ldosh Sulaymori)
5. Afsuski, hayotimizda o‘zgarishlarga to‘g‘anoq bo‘layotgan kimsalar hamon uchramoqda. (E. Vohidov)
6. Yaxshi, bolam, yaxshi! Ko‘pning nazaridan qolma. (Shuhrat)

5-topshiriq. Berilgan gaplardagi egalarni undalmaga aylantirib, ko‘chiring. Ega bilan undalmaning farqini tushuntiring.

1. Bolalar atrofni to‘yib-to‘yib tomosha qilishar edi. (N. Fozilov)
2. Buvam bo‘lsa qari tutni sira-sira kestirmaydilar. (S. Barnoyev)
3. Bobo yo‘l boshladi. (L. Mahmudov)
4. Ona uyimiz obodligidir. (Zafar Diyor)



SUHBAT UCHUN MAVZU

Boylarga kechagi va bugungi munosabat.

Uyga topshiriq. Hayotingizda siz uchun muhim bo‘lgan narsa haqida matn yozing.



23-MAVZU. “RESPUBLIKAMIZDA VETERINARIYA FANINING RIVOJI VA YANGI ISTIQBOLI”. GRAMMATIKA: KIRITMALAR VA ULARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI.

Topshiriq. Matn bilan tanishing, uni lotin alifbosi asosida yozing.

RESPUBLIKAMIZDA VETERINARIYA FANINING RIVOJI VA YANGI ISTIQBOLI

Ҳозирги даврда ветеринария фани яна ҳам ривожланиб, катта ютуқларга эришмоқда. Жуда хавфли, кенг тарқалган касалликлардан қорамол плевропневмонияси, ўлат, отларнинг манқа, энцефаломиелит касалликлари ҳозирги кунда бизда йўқотилган. Куйдирги, қорасон, чўчқаларда сарамас, ўлат касалликлари айрим ҳолларда учрайдиган спорадик касалликлар қаторига киритилди.

Чорвачиликда қорамолларнинг трихофития касаллигига қарши жуда ҳам фойдали ЛТФ – 130 (ВИЭВ) вакцинаси жорий қилиниши темирлатки касаллигини кескин камайтирди, айрим хўжаликлар ундан тўлиқ тозаланди. Ветеринария ютуқлари қаторига, шунингдек бир неча юқумли касалликларга қарши комплекс вакцинация қилиш, паррандаларни аэрозол усулида эмлаш, паррандахоналарни аэрозол усулда дезинфекция қилиш, аэрозол усулда касалликларни даволаш ва олдини олиш, суъний қочириш учун уруғни -196°C даражада музлатиш усуллари киритиш мумкин.

Ветеринариянинг ҳозирги кунда шахсий ёрдамчи, деҳқон ва фермер хўжаликларида кундан кунга касалликнинг олдини олиш йўлига ўтиб бориши, айниқса, чорвачилик хўжаликларида ҳайвонларни бирданига, гуруҳлаб эмлаш, юқумли ва инвазион касалликларни тезкор диагностика қилиш йўли билан барвақт аниқлаш каби ишларни бажаришга ўтмоқда. Ветеринария хизмати зоотехния ишлари билан жуда ҳам алоқадор ва мужассамлашган ҳолда бирга бажарилади. Зооветеринария мутахассислари ҳайвонларнинг соғлигини таъминлаш, мол бош сонини кўпайтириш, маҳсулдорлигини ошириш, чорвачилик маҳсулотларининг сифатини яхшилаш мақсадида чорва молларини сақлаш, озиқлантириш, боқиш, асраш каби қатор ишларни бажаради.

(“ВЕТЕРИНАРИЯ АСОСЛАРИ” fanidan ma’ruzalar matnidan olindi)



Tayanch tushunchalar. Kiritma va uning turlari. Sodda va murakkab kiritmalar. Kiritmaning gapdagi o'рни. Kiritmaning gapdagi boshqa bo'laklar bilan munosabati. Kiritmalarning uslubiy xususiyatlari.

KIRITMALAR

Kiritmalar – gap bo'laklari bilan shakliy-grammatik bog'lanmagan, asosiy fikrga qo'shimcha fakt bayon qiluvchi, aniqlik kiritish va shu kabi maqsadlarda qo'llanuvchi so'z, so'z birikmasi, gaplar.

Kiritmalar gapning, xususan, matnning umumiy mazmuniga aloqador bo'lsa-da, gapdagi biror bo'lak bilan hokim-tobelik aloqasiga kirmaydi, shuning uchun ular gapdagi boshqa bo'laklardan yozuvda vergul, tire, ba'zan qavslar bilan, talaffuzda esa kichik to'xtamlar bilan ajratiladi. Kiritmalar so'zlovchining o'zi bayon etayotgan fikriga munosabati (ishonchi, gumoni, tasdig'i, inkori v.h.), fikrning birovga nisbatlanishi (mansubligi, aloqadorligi), o'z fikri tarkibiy qismlarining ahamiyatliligi darajasi (birinchidan, ikkinchidan v.h.), fikriga va uning tarkibiy qismlariga doir bayon etadigan qo'shimcha axboroti yoki izohi kabi rang-barang ma'nolarni ifodalaydi. Kiritmalar barcha bo'laklar kabi sodda va murakkab bo'ladi. Sodda kiritmalar so'zlar va so'z-gaplar bilan, murakkab kiritmalar esa so'z birikmalari, kengaygan birikmalar va gaplar bilan ifodalanadi.

Kiritma	
Sodda	Murakkab
• <u>Kirish so'z</u> • <u>So'z-gap</u>	• <u>Kirish birikma</u> • <u>Kirish gap</u>

1-topshiriq. Gaplarni o'qing. Kiritmalar qanday ma'noni ifodalash uchun qo'llanganini og'zaki tushuntiring.

1. Afsuski, hali o'zlashtirilmagan yerlar juda ko'p. 2. Menimcha, oqil va sodiq er o'z rafiqasi uchun eng bebaho bezakdir. 3. Baxtga qarshi, Saida uning xohishini payqamadi. (A.Q.) 4. Dunyoda hech bir xalq to'g'ri

kelolmas, Mening bilishimcha, sening elingga.(H.O.) 5.To‘g‘ri, u aravani quruq olib qochadigan maqtanchoqlardan emas.(«Mushtum») 7.Ehtimol, bu ishni o‘zing bajararsan.(H.No‘mon) 8.Chindan ham, mashina dehqonning og‘irini yengil qiladigan zabardast kuchga aylandi.

(Gazetadan)

2-topshiriq. Kiritmalarni toping va ma’nosini izohlang.

Veterinariya sohasi ham raqamlashtirishga o‘tdi.

“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasiga “Qishloq xo‘jaligi hayvonlarini identifikatsiyalash, ularning harakatini kuzatish va monitoring qilish axborot tizimida qishloq xo‘jaligi hayvonlarining ma’lumotlar bazasini hudud bo‘yicha shakllantirish” loyihasini amalga oshirish vazifasi topshirilgan.

Shunga muvofiq, 2020-yil 3-iyuldan identifikatsiya qilingan hayvonlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar bazasini shakllantirish maqsadida **“VISCHINOR”** elektron axborot tizimi yaratildi. Tizimdan respublika, viloyat, tuman kesimida identifikatsiyadan o‘tgan hayvonlarning turlari, hayvon migratsiyasi, salomatligi, hayvon egasi va boshqa ma’lumotlar o‘rin olgan.

Shuningdek, tadbirkorlik subyektlariga qo‘shimcha qulayliklar yaratish maqsadida **“MY-VIS”** shaxsiy kabinet axborot tizimi ishlab chiqilib, <http://my.vetgov.uz/> URL manzilida ishlaroqda.

Raqamlashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar:

Hayvonlarni identifikatsiya qilish bo‘yicha **1200 dan ortiq** davlat veterinariya va hududiy **“Chorvanasi”** markazi xodimlarining malakalari oshirildi.

Viloyat veterinariya boshqarmalari, tuman bo‘limlari elektron axborot tizimidan foydalanishlari uchun **475 ta elektron hisoblagich, 1300 ta aplikator, 30 ta planshet, 80 ta kompyuter va 40 ta printer** bilan ta’minlandi.

Respublika kesimida **1702 nafar** mutaxassis **“VIS-CHINOR”** elektron tizimidan ro‘yxatdan o‘tkazilib, **181 ming 811 bosh qoramol** hamda **3,6 mingdan ziyod** chorvachilik yo‘nalishidagi tadbirkorlik sub’ektlari elektron tizimga kiritilgan.

3-topshiriq. Berilgan gaplar juftliklaridagi farqlarni izohlang.

Farqlang!!!

- O'qishga kirishim shubhasiz.
- O'qishga kiranman, shubhasiz.
- Yaxshi bolalar darsini o'z vaqtida tayyorlaydi.
- Yaxshi, bolalar darsini o'z vaqtida tayyorlaydi.

4-topshiriq. Quyidagilarni yodingizda tuting.

1.Albatta, shubhasiz, darhaqiqat – fikrning to'g'riligini bildiradi.
2.Ehtimol,balki shekilli – gumonni anglatadi. 3. Xullas, demak – yakuniy fikrni bildiradi. 4.Avvalo, birinchidan – tartibni anglatadi.

5-topshiriq. Matnni o'qing va kiritmalardan foydalangan holda so'zlab bering.

Oltoy qo'y zoti – Mayin junli jun-go'sht yo'nalishdagi qo'y zoti. Qo'chqorlarining tirik vazni 90-100, sovliqlariniki 55-65 kg. Qo'chqorlaridan 9-11, sovliqlaridan 6,0—6,5 kg jun qirqib olinadi, junining uzunligi 7-10 sm. Jun tolasi ingichka, asosan 64-sifatli. Har 100 ona qo'ydan 130-170 ta qo'zi olinadi.

SUHBAT UCHUN MAVZU

Televideniyedagi dorilar reklamasiga fikringiz.

Uyga topshiriq. Quyidagi sozlarni matn ichiga to'g'ri joylashtiring:

Darvoqe, marhamat, ha, balli, menimcha.

– ..., hurmatli hujjatlar, bu yoqqa o'tinglar! Faxriy yorliqlar o'ngga, tashakkurnomalar chapga. Diplomjon! Sizga davra to'ri muntazir. Sertifikatxon, toifangiz qanaqa? Mahalliy bo'lsa, chetroq turing. Xalqaro bormi, xalqaro? ..., markazga! Kimlar qoldi? Taqrizlar, tavsiyanomalar, fikrnomalar tik tursa ham bo'laveradi. Kitoblar ham bor ekan-ku. ... ularga joy qolmadi-yov. ... insonning o'zi qani?
(N.Ibrohimova)



24-MAVZU. “INSONIY SIFATLAR”.

GRAMMATIKA: SODDA GAP VA UNING TURLARI.

Topshiriq. Matnni o‘qing.

INSONIY SIFATLAR

INSONIYLIK — tenglik, adolat, odamlar o‘rtasidagi insoniy munosabatlar tamoyillariga asoslangan dunyoqarash, odamlarga bo‘lgan muhabbat, inson qadr-qimmatiga hurmat, odamlarning manfaati uchun g‘amxo‘rlik ma’nolarini ifodalaydi. Insoniylik odamlarning kundalik munosabatlariga nisbatan insonparvarlik tamoyilini ifodalovchi axloqiy sifat hisoblandi. Unga yana bir qancha shaxsiy fazilatlar — xayrixohlik, odamlarga hurmat, ularga hamdardlik va ishonch, saxiylik, manfaatlar yo‘lida fidoyilik va boshqalar kiradi, shuningdek, kamtarlik, halollik va samimiylikni o‘z ichiga oladi.

Alisher Navoiy ta’biri bilan aytganda, insoniy sifatlar – insoniylik, ezgulik, chidamlilik, vijdonlilik, halollik, javobgarlik, haqqoniylik, beg‘arazlik, saxiylik, insonlarga nisbatan hurmat, yuksak axloqlilik, muloqotga ehtiyoj, xayrixohlik va h.k. Inson komillikka intilib yashaydi. Muttasil kamolotga intilish taraqqiyot boisidir. Bu jarayonda, nuqson, xatolik, kamchiliklarga ham yo‘l qo‘yish mumkin, ammo ularni tushunib, o‘z vaqtida tuzatib, takror etmaslikka harakat qilgan kishi barkamol insondir. Komil inson shaxsida shakillanishi kerak bo‘lgan sifatlar, xislatlarni birma-bir sanab ko‘rsatish o‘ta mushkul ish. Shu darajada ko‘p qirraliki, ular insoniyat orzulari, umudlari, ideallari, istiqbollari bilan bog‘liq. Lekin mazkur sifat va xislatlarning ba’zilarini ko‘rsatib o‘tish mumkin. Komil inson shaxsida, eng avvalo, aqliy zukkolik, huquqiy komillik, axloqiy yetuklik, siyosiy teranlik, mehnatga halol munosabat, yuqori madaniyat, ma’naviy saviya, yuksak iftixor, milliy va umuminsoniy g‘urur shakllangan bo‘lishi kerak. Jamiyatda jamoada, oilada o‘z o‘rnini topgan, uning rivojida faol ishtirok etadigan, ijtimoiy-siyosiy qonuniyatlarni yaxshi bilan, milliy o‘zlikni anglagan, o‘z qadriyatlar, urf-odatlarini e’zozlaydigan, kasbi bo‘yicha zamonaviy texnologiyalardan xabardor, tadbirkor bilimdon bo‘lishi kerak.



Komil insonni tarbiyalash – oilalarimizning, ta’lim-tarbiya muassasalarimizning, umuman, davlatimizning, jamiyatimizning, mustaqil O‘zbekistonimizning oliy maqsadidir. Bu yo‘lda yoshlarimiz sabr va chidam bilan bilim olishga astoydil harakat qilishlari kerak bo‘ladi. Mamlakatimizda yashayotgan har bir yosh bitta maqsad yo‘lida izlanishlari, bilim olishlari shart. Bu yo‘l O‘zbekistonimizning ertangi kuni, kelajagi va istiqbolini belgilab beruvchi yo‘ldir. Bu ezgu maqsadga faqat bilim orqali erishish mumkinligini barcha yoshlarimiz teran anglab yetishlari lozim.

(T.Oltmishev, JDPU.uz)



NAZARIY MA'LUMOT

Tayanch so‘zlar. Gapning tuzilishiga ko‘ra turlari. Sodda gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari: darak, so‘roq, buyruq va istak gaplar. Hayajonli va jayajonsiz gaplar. Tasdiq va inkor gaplar. Yoyiq va yig‘iq gaplar.

Gap bir voqea-hodisa haqidagi xabarni, so‘roqni yoki buyruqni ifodalovchi asosiy sintaktik butunlikdir. Har bir gap biror maqsad-

mazmunni ifodalaydi. Soʻzlovchi biror narsa, voqea-hodisa haqida xabar qiladi, yoki oʻziga nomaʼlum boʻlgan narsa va voqea-hodisalar toʻgʻrisida maʼlumot olishni istaydi, tinglovchiga biror ishni bajarish boʻyicha buyruq-xitobini bildiradi. Ifoda maqsadiga koʻra gaplar: **1) darak gaplar, 2) soʻroq gaplar, 3) buyruq gaplar, 4) istak gaplarga** boʻlinadi.

Gaplar ifoda maqsadiga koʻra 4 xil boʻladi Darak gaplar Darak, xabar maʼnosini bildirgan gaplar darak gaplar deyiladi. Masalan: Intilganga tole yor.	Soʻroq gaplar. Soʻroq maʼnosini bildirgan gaplar soʻroq gaplar deyiladi. Masalan: Qachon sayohatga boramiz?
Buyruq gaplar. Buyruq, daʼvat maʼnolarini bildirgan gaplar buyruq gaplar deyiladi. Masalan: Vazifalarni vaqtda bajar.	Istak gaplar. Istak, xohish maʼnolari bildirgan gaplar istak gaplar deyiladi. Masalan: Qani endi yomgir yogʻsa.

Darak gapda biror voqea-hodisa haqida xabar beriladi. Shuning uchun darak gaplarning kesimi darak-xabar maʼnosini bildiruvchi soʻzlar yordamida ifodalanadi. Masalan: *Vatanimizning har bir qarich yerini qadrlaymiz.*

Soʻroq maʼnosini bildirgan gaplar **soʻroq gaplar** hisoblanadi. Soʻroq gaplar soʻroq olmoshlari (*kim?, nima?, qayer?, qancha?* kabi), soʻroq yuklamalari (*-mi, -chi, -a (-ya)*) yoki soʻroq ohangi yordamida ifodalanadi. Masalan: Masalan: *-Koʻchatlarga kim suv quydi? -Tunda yoʻlga chiqamizmi?* Yozuvda soʻroq gap oxiriga soʻroq (?) belgisi

qo'yiladi. Mazmunidan tasdiq, ma'lum xabar mazmuni anglashilib turadigan so'roq gaplar ritorik so'roq gaplar deyiladi. Ritorik so'roq gaplar, odatda, javob talab etmaydi. Ritorik so'roq gaplar kuchli his-hayajon bilan aytilsa, gap oxirida so'roq va undov (!) belgilari qo'yiladi: *Ey, nomard tabiat, bormi senda his? Qaytadan baxt bersang bo'lmasmi unga?! Nega go'zal ko'rinar olam, Nega qarab to'ymas ko'zlarim?* (H.O.)

Buyurish, da'vat qilish ma'nolarini bildirgan gaplar buyruq gap sanaladi. Masalan: *Chiroyli yoz.* Buyruq gaplarning kesimi buyruq shaklidagi fe'llar orqali ifodalanadi. Buyruq gap oxiriga nuqta qo'yiladi.

Kesimi istak ma'nosidagi -sa shaklidagi fe'llar orqali ifodalangan gaplar istak gap hisoblanadi. Masalan: *Xorijiy tillarni yaxshi o'rganib, chet ellarga o'qishga borsam.* Istak gaplar oxiriga nuqta (.) qo'yiladi.

Gaplar his-hayajonning ishtirokiga ko'ra ikki turga bo'linadi: 1) his-hayajonsiz gaplar; 2) his-hayajon (undov) gaplar. His-hayajon bilan aytilmagan darak, so'roq va buyruq gaplar his-hayajonsiz gaplardir: *Mashinani belgilangan tezlikda boshqarish lozim. Soat necha bo'ldi? Kitob bilan do'st bo'l.* Bular nutqda kuchli his-hayajonga ega bo'lishi bilan his-hayajon gaplarga aylanishi mumkin. His-hayajon ohangi bilan aytilgan darak, so'roq, buyruq shaklidagi gaplar his-hayajonli gaplar sanaladi. Masalan: *Ey, Vatan! Polvonlaring bor bo'lsin! Uyg'oq bo'lsin!* (Y.Eshbek) His-hayajon gaplar undov gap deb ham nomlanadi.

Tasdiq voqea-hodisaning yuzaga chiqishi haqidagi mazmunni ifodalaydi: *Kuzda havo salqin bo'ladi. Dars boshlandi.* Inkor gapda voqelik inkor qilinadi: *Doniyor bugun darsga kelmadi. Inson jamiyatsiz yashay olmaydi. Kun salqin emas.*

Sodda gap tuzilishiga ko'ra yig'iq yoki yoyiq bo'lishi mumkin. Bosh bo'laklardan tarkib topgan gaplar yig'iq gap (*Gul ochildi. Sen o'qishing kerak.*), agar bosh bo'laklardan tashqari ikkinchi darajali bo'laklar ham ishtirok etsa, yoyiq gap (*Salqin shabada esdi. Gazli ichimliklar sog'liq uchun zararli.*) sanaladi.



MUSTAHKAMLASH

1-topshiriq. . Namoyish qilindi, tomosha qildingizmi, o'qib chiqing, bilsa edi fe'l shakllarini qo'llab gaplar tuzing va ularni gapning ifoda maqsadiga ko'ra qaysi turiga kirishini ayting.

2-topshiriq. „Vatanimiz ishonch tog‘i bo‘la olamizmi?“ mavzusida bahs-munozara tashkil eting. Unda darak, so‘roq, buyruq va istak gaplardan, shuningdek hayajonli va hayajonsiz gaplardan foydalaning.

3-topshiriq.Quyidagilarni moslashtirib daftaringizga yozing.

QOIDA	MISOL
Darak gapda biror voqea-hodisa haqida xabar beriladi. Shuning uchun darak gaplarning kesimi darak-xabar ma’nosini bildiruvchi so‘zlar yordamida ifodalanadi.	Xorijiy tillarni yaxshi o‘rganib, chet ellarga o‘qishga borsam.
So‘roq ma’nosini bildirgan gaplar so‘roq gaplar hisoblanadi.	Berilgan topshiriqlarni har doim o‘z vaqtida bajar.
Kesimi istak ma’nosidagi -sa shaklidagi fe‘llar orqali ifodalangan gaplar istak gap hisoblanadi.	Inson jamiyatsiz yashay olmaydi.
Buyurish, da’vat qilish ma’nolarini bildirgan gaplar buyruq gap sanaladi.	Ey, nomard tabiat, bormi senda his? Qaytadan baxt bersang bo‘lmasmi unga?! Nega go‘zal ko‘rinar olam, Nega qarab to‘ymas ko‘zlarim? (H.O.)

4-topshiriq. Gaplarni o‘zbek tiliga tarjima qiling. Ifoda maqsadiga ko‘ra qaysi gap turiga kirishini aniqlang.

1.Работа кипела, несмотря на то, что наступила ночь. 2. Хотя было холодно, я не замёрз. 3. Как не убеждали его, он ни с кем не согласился. 4. Несмотря на то, что наступила темнота, мы продолжали идти вперед. 5. Если бы все были согласны, то план бы осуществился. 6. Всем они казались друзьями, хотя на самом деле они не любили друг друга. 7. Хотя мавзолей был закрыт на реставрацию, туристы всё равно приезжали.

5-topshiriq. Sodda yig‘iq gaplarni yoyiq gaplarga aylantirib yozing.

1. Men a'zoman _____
2. Biz yangi binolar quramiz (qurildi). _____
3. Biz uyga qaytgach, birga dars tayyorladik _____
4. Ega va kesimni aniqlang _____
5. Gaplarning turini ayting.



SUHBAT UCHUN MAVZU

Agar boy bo'lsam...

Uyga topshiriq. Quyidagi rasm asosida matn tuzing. Gapning maqsadga ko'ra turlarini ajratib ko'rsating.



25-MAVZU. “ONA – ENG YAQIN DO‘ST”. GRAMMATIKA: QO‘SHMA GAP VA UNING TURLARI.

Topshiriq. Matn ustida ishleng.

ONA – ENG YAQIN DO‘ST

Ona millatning tayanchi, asosi. U hech qachon aynimaydigan, zanglamaydigan oltin. Milliy qadriyatlar va o'ziga xoslikning bebaho gavhari, yuksak axloq, ezguliklar javhari. Millat ona tufayli mangu

yashaydi. Avlodlar shajarasi u tufayli davom etadi. Millat sha'ni, oriyati, g'ururi timsoli. Ona nafasida olam ohangi, borliqning musiqasi mujassam, uning iliq, yoqimli sasida hayotbaxsh kuch bor. Biz u orqali, faqat u orqaligina olamni kashf etamiz, uning qatlarini ochamiz. Olam ichra olam bo'lib yashaymiz. Bir lahza bo'lsada undan uzilolmaymiz. Ana shunda o'ktam, jasur, botir, mard o'g'lonlar – uchqur tulporlar, qalbi mehrga to'la mushfiq, mehribon, suvratiyu siyrati go'zal qizlar – shonli, sharaflı, barkamol avlodni dunyoga keltirishga umrini bag'ishlaydigan mo'tabar onalar dunyoga keladi.



NAZARIY MA'LUMOT

Tayanch so'z va iboralar. Qo'shma gap va uning qismlarini bog'lovchi vositalar. Bog'langan qo'shma gaplar. Ergashgan qo'shma gaplar. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar. Qo'shma gaplarning ma'nodoshligi. Qo'shma gaplarning uslubiy xususiyatlari.

Bitta kesimlik belgisiga ega bo'lgan gap sodda, ikki va undan ortiq kesimlik belgisiga ega bo'lgan gap esa qo'shma gap sanaladi. Ikki va undan ortiq sodda gaplarning o'zaro grammatik, mazmun va ohang tomondan bog'lanishidan tashkil topgan sintaktik butunlik qo'shma gap deyiladi: *Paxtalar qiyg'os ochildi va terim avjiga chiqdi.*

Qo'shma gapni tashkil etgan sodda gaplar qo'shma gap qismlari sanaladi. Bu qismlarni bog'lash uchun xizmat qiladigan vositalar esa bog'lovchi vositalar hisoblanadi. Qo'shma gap qismlari quyidagi bog'lovchi vositalar yordamida bog'lanadi: **1.Bog'lovchilar:** a)teng bog'lovchilar (va, hamda, ammo lekin, biroq yo, yo.., yo, dam..., dam ..) b)ergashtiruvchi bog'lovchilar **2.Bog'lovchi vazifasidagi vositalar:**

a)bo'lsa esa, deb; b)-u, (-yu), da,-ki yuklamalari; d)nisbiy so'zlar; e)shuning uchun, shu tufayli, shu sababli singari ko'makchili qurilmalar; f)shart mayli qo'shimchasi (-sa). **3.Ohang.**

Qismlarining qanday bog'lovchi vositalar yordamida bog'lanishiga ko'ra qo'shma gaplar uch guruhga bo'linadi:

1.Bog'langan qo'shma gaplar.

2.Ergashgan qo'shma gaplar.

3.Bog'lovchisiz qo'shma gaplar

Qismlari teng bog'lovchilar, **bo'lsa, esa** so'zlari, **-u (-yu),-da** yuklamalari yordamida bog'langan gaplar **bog'langan qo'shma gaplar** hisoblanadi.Masalan: 1.Shu onda chiroq o'chdi va birdaniga o'q uzildi.(Abdulla Qahhor) 2.Mana, sen ketding-u, bo'ldim xayolkash.(Zulfiya) 3.Yo'lovchining o'zi ichkariga kirdi-yu, ikki ko'zi tashqarida qoldi.(Omon Muxtor)

Qismlari ergashtiruvchi bog'lovchilar yoki shunday bog'lovchi vazifasidagi so'zlar yordamida bog'langan qo'shma gaplar **ergashgan qo'shma gaplar** hisoblanadi.Masalan: 1.Olim bo'lsang, olam seniki.(Maqol) 2.Kamtar bo'l, chunki kamtarlik insonni kamolotga boshlaydi.(«Tafakkur gulshani») Ergashgan qo'shma gaplar, tarkibida nechta gap bo'lishidan qat'iy nazar, doimo ikki qismdan tashkil topadi: **1)bosh gap; 2)ergash gap.** Mazmuni izohlanayotgan gap **bosh gap**, bosh gap mazmunini izohlayotgan gap **ergash gap** hisoblanadi. Masalan: 1.Vatanimizning kelajagi shuning uchun ham buyukki, unda yashayotgan aholining katta qismini yoshlar tashkil etadi.(Azim Suyun) 2.Erta eksang, erta o'rasan.(Maqol)

Tarkibidagi sodda gaplar mazmunan bir-biri bilan bog'liq bo'lib, maxsus bog'lovchi vositalarsiz, faqat ohang yordamida bog'langan qo'shma gaplar **bog'lovchisiz qo'shma gaplar** sanaladi. Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlarini yozuvda ajratish uchun vergul, tire, ikki nuqta, nuqtali vergul kabi tinish belgilari ishlatiladi. Masalan: Suv keldi – nur keldi. Orzum shul: o'chmasin yongan chirog'ing. (A.Oripov)



MUSTAHKAMLASH

1-topshiriq. . Quyidagi gaplarni davom ettiring.

Agar daraxt barglari uchidan to'kilsa,

Agar yoz issiq kelsa,

Qovun po'chog'i yerga tushsa,

Agar tabiatga zarar yetkazilsa,

2-topshiriq. Berilgan qo'shma gaplarni qismlarga ajrating. (Bog'lovchisiz qo'shma gap)

Suv keldi-cho'llarda hayot boshlandi.Suv keldi va cho'llarda hayot boshlandi.Suv keldi shuning uchun cho'llarda hayot boshlandi.

3-topshiriq. Ko'chiring.Qo'shma gap qismlari o'zaro qanday Dog'ianganiga va ular qanday tinish belgisi bilan ajratiluvchi yozilayotganiga e'tibor bering.(Bog'lovchisiz qo'shma gap)

1.Avval ular bizga yetib olishsin, keyin birga jo'naymiz.(X.To'xtaboyev) 2.Yuragida qanday dard bor-mana bu menga sir.(Oybek) 3.Kuz keldi, yig'im-terim ishlari boshlandi.(Qamchibek Kenja) 4.To'rt mashina o'g'it yubordik-fermerlarga vaqtida taqsimlansin.5.Yog'ib yubordi-da yomg'ir, nihoyat, osmon dil qulfini zaminga sochdi.(T.Sodiqova) 6.Yulduzlarni xayolida har xil rangga bo'yab ko'rdi – yulduzlar o'z rangida xira miltillab turaverdi. (Asqar Muxtor) 7.Ehtimol, sizda ham shunday holler bo'lgandir: tun yarmidan og'ganga birdan uyg'onib ketasiz. (O'.Hoshimov)

4-topshiriq. Ko'chiring. Qo'shma gapni qismlarga ajrating.Qismlari o'rtasiga vergul qo'yilish sabablarini ayting. (Bog'lovchisiz qo'shma gap)

1.Yaxshi og'il-el obro'si, yaxshi qiz-uy obro'si.(Maqol) 2.Bulbul sayrar, chumchuq chirqirar, Xabar berar asl zotidan.(Hamid Olimjon) 3.Sidiqjon to'xtadi, orqasidan kimdir kelayotgan edi (Abdulla Qahhor) 4.Sabr bila bog'liq ish ochilur, Ishda oshiqqan ko'p toyilur.(Alisher Navoiy) 5.Hamma ishlaringizda to'g'ri bo'ling, odamlarga muomalada xulqingiz chiroyli bo'lsin! (Hadis) 6.Birdan tush kabi uzuq-yuluq xotiralar yopiriladi, yuragim gursillagancha o'rnimdan turib ketaman. (O'.Hoshimov)

5-topshiriq. Ikkinchi ustundan birinchi ustundagi gaplarning davomini topib yozing.

Kunduzlari issiq bo'lsa-da,	bolalar uyga kirishni istashmasdi
Quyosh botgan bo'lsa ham,	kechalari ancha salqin bo'ladi
Tomosha tugagan bo'lsa ham,	ko'chib o'tishni xayoliga keltirmasdi
Qor yog'ib turgan bo'lsa-da,	zalda hali odamlar to'la edi
U yangi uy olgan bo'lsa ham,	hali hammayoq yorug' edi

SUHBAT UCHUN MAVZU

Qanday inson bilan turmush qurishni istaysiz?

Uyga topshiriq. Quyidagi rasm asosida matn tuzing. Gapning tuzilishiga ko‘ra turlarini ajratib ko‘rsating.



26-MAVZU. “SO‘Z SEHRI”.

GRAMMATIKA: KO‘CHIRMA VA O‘ZLASHTIRMA GAPLAR.

Topshiriq. Matn bilan tarnishing.

SO‘Z SEHRI

Men ko‘zdan kechirgan o‘zbek, ingliz, rus tillarining izohli lug‘atlarida berilgan “SO‘Z” haqidagi ma‘lumotlarni umumlashtiradigan bo‘lsak, “Inson nutqining ma‘no ifodalovchi eng kichik bo‘lagi” degan ta‘rifni uqib olish mumkin.

Nima, so‘zning mazmun mohiyati ushbu “quruq” izoh bilan ochib berila oldimi?! Menimcha yo‘q. Fikrimcha, so‘z degan voqe‘lik haqida jildlab kitoblar yozish mumkin. Biroq bugun men shu mo‘jaz maqolacha bilan cheklanaman.

Bizning nazdimizda biror narsaning qiymati uni kim, qanday zot ishlatishidan kelib chiqadi. Axir, qimmatbaho buyumlar ishlab chiqaruvchilar o‘z reklamalarida taniqli insonlarning obrazlaridan bekorga foydalanishmaydi-ku!

SO‘Zni biling, o‘rganing, his qiling! Zora shu tufayli ulug‘ maqsadlaringiz sari ildamroq qadam bossangiz!



NAZARIY MA'LUMOT

Tayanch soʻz va iboralar. Nutqda oʻzganing gapidan foydalanish. Koʻchirma gapli qoʻshma gap. Koʻchirma gap va muallif gapi. Koʻchirma gapli qoʻshma gapda tinish belgilarining ishlatilishi. Oʻzlashtirma gaplar.

Birovning aynan keltirilgan gapi **koʻchirma gap** deyiladi. Koʻchirma gap doimo soʻzlovchi gapi bilan birga keladi. Soʻzlovchi gapi muallif gapi hisoblanadi. Koʻchirma gap bilan muallif gapi birikib koʻchirma gapli qoʻshma gapni hosil qiladi. Yozuvda koʻchirma gap qoʻshtirnoq ichiga olinadi.



Koʻchirma gap muallif gapidan oldin, uning oʻrtasida, oxirida, ikki chekkasida kelishi mumkin. Shunga koʻra yozuvda ular orasida turlicha tinish belgilari ishlatiladi.

Muallif gapi (M) va ko'chirma gap (K) bir-biriga nisbatan turlicha joylashishi mumkin, bunda tinish belgilari quyidagicha ishlatiladi.

1)M: «K».M: «K?» M: «K!»

2)M: «K», -M.M: «K?»-M.M: «K!»-M.

3)«K», -M.«K?»-M.«K!»-M.

4)«K, -M, -K».

Ko'chirma gaplar (agar matn dialog shaklda bo'lmasa) doim qo'shtirnoq ichida yoziladi. Muallif gapi va ko'chirma gapning qo'shma gap tarkibidagi o'rniga ko'ra, tinish belgilarining qo'llanishi quyidagicha bo'ladi:

Muallif gapi oldin, ko'chirma gap keyin joylashganda:

a) darak gap bo'lsa: M: «K»;

b) so'roq gap bo'lsa: M: «K?»;

c) buyruq yoki undov gap bo'lsa: M: «K!».

Ko'chirma gap oldin, muallif gapi keyin joylashganda:

a) darak gap bo'lsa: «K»- m;

b) so'roq gap bo'lsa: «K?» - m;

c) buyruq yoki undov gap bo'lsa: «K!» - m.

Muallif gapi ko'chirma gapning o'rtasida joylashganda:

a) darak gap bo'lsa: «K», - m. - K»; «K, - m, - k»;

b) so'roq gap bo'lsa: «K?» - m. - K»;

c) buyruq yoki undov gap bo'lsa: «K!» - m. - K».

Ko'chirma gap muallif gapining o'rtasida joylashganda:

a) darak gap bo'lsa: M: «K» - m;

b) so'roq gap bo'lsa: M: «K?» - m;

c) buyruq yoki undov gap bo'lsa: M: «K!» - m.

O'zgalarning shaklan o'zlashtirilib berilgan gapi **o'zlashtirma gap** deyiladi. O'zlashtirma gapda esa o'zgalarning gapini muallif o'z gapi bilan ifodalaydi. Masalan: *Usta o'qimishli odamning aqli to'liq bo'lishi, dunyoning bordi-keldisidan xabardor bo'lib turishini aytdi.*



MUSTAHKAMLASH

1-topshiriq. Ko'chiring. Muallif gapi va ko'chirma gaplarni va ularning joylashish o'rnini aniqlang. Tinish belgilarining qo'yilishiga e'tibor bering.

1.«Rahmat, ona qizim»,-dedi muharrir mehri tovlanib.(Murod Muhammad Do'st) 2.«Ke, picha dam ol, chirog'im, toza charchabsan»,-dedi bobom.(Oybek).3.Kampir oyoq ostida o'sgan o'tdan yulib, kiyik

tomon yura boshladi: «Ma, jonivor, ma!» (Said Ahmad) 4.«Shoshmang Ahmadjon»,-dedi yigit.(Abdulla Qahhor) 5.Xalil bobo nevarasiga girgitton bo‘lib: «Hoy, bolam senga nima bo‘ldi? A? Nima qildi, toychog‘im-a»,-der edi.(A.Muqimov) 6.«Zap yigit ekansiz-da, Tursunalijon.Barakalla, barakalla»,-dedi u.(A.Muaimov)

2-topshiriq. O‘qing. Gaplarni qavs ichida berilgan muallif nomlaridan toydaangan holda ko‘chirma gapli qo‘shma gapga aylantiring.Qanday yo‘l bilan qo‘shma gapga aylantirganingizni ayting.(Ko‘chirma gapli qo‘shma gap)

1.Xalqning ishonchini oqlash har birimizning muqaddas burchimizdir. (Mirtemir) 2.Ertangi kunimiz bundan ham go‘zal bo‘ladi. (A.Oripov) 3.Tabiatning betakror go‘zalliklari yuragimga juda yaqin. (M.Ulug‘ova) 4.Inson mehnati beiz qolmaydi. (E.A‘zamov)

3-topshiriq. O‘qing.Ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarni tegishli tinish belgilarini qo‘yib ko‘chiring.

1.Biz tinchlik daraxtini ekdik.Uni endi do‘llardan, bo‘ronlardan asrashimiz kerak deydi Muhammad Ali. 2.Millatlarni elatlarni deydi M.Ulug‘ova buyuk do‘stlik birlashtiradi.3.Donolar deydi bolaga mehrni buyruq bilan singdirib bo‘lmaydi.4.Odamlarning manfaatiga kelsak bu narsa mustaqillikdan keyin chinakamiga ustuvorlik kasb etdi deydi Anvar Obidjon. 5.O.Hojiyeva xalqni og‘ir sinovlar, mashaqqatlar, ulug‘ o‘zgarishlar jipslashtirishini, uning kuch-qudratini imtihon qilishini yozadi. 6.Amakim bizga uqtirdi: «Bir-biringiz bilan ahil bo‘linglar!». 7.G‘afur G‘ulom Erkin Vohidovning mudragan aruzni uyg‘otib yuborganini, uni arab, fors so‘zlaridan tozalab, sof o‘zbek g‘azalini yaratayotganini gapirdi. 8.Abdulla Qahhor jilmayib:-Odamzot hasad qilmasligi kerak. Havas qilishi kerak. Havas qilgan odam murodiga yetadi»,-dedi.

4-topshiriq. Ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarni tegishli tinish belgilarini qo‘yib ko‘chiring.

1.Biz tinchlik daraxtini ekdik. Uni endi do‘llardan,bo‘ronlardan asrashimiz kerak deydi Muhammad. 2.Millatlarni, elatlarni deydi M.Ulug‘ova buyuk do‘stlik birlashtiradi.3. Donolar deydi bolaga mehrni buyruq bilan singdirib bo‘lmaydi. 4 Odamlarning manfaatiga kelsak, bu narsa mustaqillikdan keyin chinakamiga ustuvorlik kasb etdi deydi Anvar obidjon

5-topshiriq. Berilgan gaplarni ko‘chirma gaplarga aylantiring,ularga muallif gaplarini qo‘shib ko‘chiring

1.Mevasi achchiq daraxtni asal bilan sug‘orsang ham’ shirin meva bermaydi. 2. O‘z o‘rnida aytilmagan so‘z hech kim yo‘q yerda chalingn kuyga o‘xshaydi. 3. Nodon ning vaqti foydasiz o‘tadi..4. Dangasa odamning boyligida baraka bo‘lmaydi. 5. Qorinni ovqat to‘ydiradi, aqlni esa hikmat.



SUHBAT UCHUN MAVZU

Baxt sizning tasavvuringizda.

Uyga topshiriq. Nuqtalar o‘rniga mos ko‘chirma gap tuzing va mashqni yozing.

1.Sinf eshigini ochgan maktab direktori o‘quvchilarga; “-----! ” – dedi-yu, chiqib ketdi.

2.Ona yig‘idan ko‘zlari qizargan qizidan: “.....?” – deb so‘radi.

3. “.....”, – deydi dono xalqimiz.



**27-MAVZU. “SOG‘LOM TURMUSH TARZI”.
GRAMMATIKA: MATN VA UNING TURLARI.**

Topshiriq. Matn bilan tanishing.

SOG‘LOM TURMUSH TARZI

Inson salomatligini asrash va mustahkamlash, qolaversa, uzoq umr ko‘rishning garovi sog‘lom turmush tarzi ekanligi bugun barchaga ayon haqiqat. Zero, har birimiz, eng avvalo, o‘z sog‘lig‘imizni o‘ylashimiz darkor. Ana shunda xotirjam va farovon hayot kechirgan, ko‘plab asoratli xastaliklarning oldini olgan bo‘lamiz.

— Olimlarning fikricha, sog‘lom turmush tarzi olti asosiy shartga amal qilishga asoslanar ekan, — dedi N. Sagdullayeva. — Ulardan birinchisi, to‘g‘ri ovqatlanish bo‘lib, kundalik iste’mol qilinadigan oziq-ovqatlarni organizmning fiziologik, biologik talablari asosida tanlash va iste’mol qilishdir.

To‘g‘ri ovqatlanish shunday tashkil etilishi kerakki, u o‘zining fizik, kimyoviy hamda biologik xususiyatlari bilan inson tanasiga og‘irlik

qilmasin, aksincha, tez va oson hazm bo‘lib, organizmni kerakli ozuqaviy moddalar bilan ta’minlasin.



Matn yuzasidan savollar.

1. Sog‘lom turmush tarsi deganda nimani tushunasiz?
2. Asoratli xastaliklar qanday kelib chiqadi?
3. To‘g‘ri ovqatlanishga rioya qilasizmi?




NAZARIY MA'LUMOT

Tayanch so‘z va iboralar. Matn va uning xususiyatlari. Matn unsurlari. Sarlavha, xatboshi, epigraf, iqtibos. Matn turlari. Mikromatn va makromatn. Ilmiy, badiiy, rasmiy va publitsistik matn turlari. Matnning maqsadiga ko‘ra turlari: tavsifiy matn, hikoya matni, muhokama matn.

Yozilgan, ko‘chirilgan yoki bosilgan ijodiy, ilmiy asar, nutq, hujjat va shu kabilar yoki ularning bir parchasi **matn** deyiladi. Matnning eng kichik birligi gap hisoblanib, ular matn tarkibida ma’lum bog‘lovchi vositalar yordamida bog‘lanadi. Ular quyidagilardan iborat: bog‘lovchilar, bog‘lovchi vazifasidagi ayrim so‘zlar, takroriy bo‘laklar, olmoshlar, sinonimlar. *Karimjon a’lo o‘qish va odobi bilan litseyda katta hurmatga ega. U jamoat ishlarida ham faol qatnashadi.* Matn tarkibidagi ikkinchi gap boshida kelgan *u* olmoshi birinchi gap tarkibida kelgan *Karimjon* o‘rnida kelib, ikkinchi gapni birinchi gapga mazmunan bog‘lab keladi.

Matn -	Matnning o‘ziga xos belgilari
▪ <u>nutqiy jarayon mahsuli bo‘lgan,</u> ▪ <u>tugallangan,</u> ▪ <u>yozma shaklda mavjud bo‘lgan,</u> ▪ <u>adabiy shakllangan,</u> ▪ <u>superfrazali birliklardan tuzilgan,</u> ▪ <u>leksik, grammatik, mantiqiy, uslubiy aloqalar bilan bog‘langan,</u> ▪ <u>aniq maqsadli</u> ▪ <u>va pragmatik qurilmali nutqiy asar.</u>	○ <u>axborot berishi,</u> ○ <u>mustaqil gaplar yoki murakkab sintaktik butunlikdan tashkil topishi,</u> ○ <u>tarkibiy qismlar orasida mazmuniy va sintaktik aloqalarning mavjudligi,</u> ○ <u>makon va zamon izchilligi,</u> ○ <u>yaxlitligi,</u> ○ <u>tugallanganligi,</u> ○ <u>bir umumiy mavzuga egaligi.</u>



Sarlavha, epigraf, xatboshi, iqtibos kabilar matn unsurlaridir. Odatda, matndagi yaxlit mavzu, mazmun, asosiy g'oya, muallifning maqsadiga muvofiq uning nomi – **sarlavhasi** bo'ladi.

Matnning mazmuniga mos keluvchi mashhur hikmatli so'z, maqol, ibora yoki badiiy parcha **epigraf** deyiladi. Epigraf, odatda, sarlavhadan keyin, asosiy matndan oldin, sahifaning o'ng chekkasida yoziladi. Epigraf bo'lgan matndan so'ng (so'roq yoki undov gap bo'lmasa) nuqta qo'yiladi, muallifi qavs ichida yoziladi.

Xatboshi – bir mazmuniy butunlik, «matnning bir xat boshidan keyingi xat boshigacha bo'lgan qismi».

Bir matndan boshqasiga kiritilgan parcha **iqtibos** deb yuritiladi. Bunday parchalar ifodalanayotgan fikrni dalillash, isbotlash, boshqa fikrni ma'qullash yoki rad qilish, tahlil va tanqid qilish, unga munosabat bildirish kabi turli maqsadlar bilan matnga kiritiladi. Iqtiboslar har qanday nutq uslublarida ham kuzatilsa-da, ayniqsa, ilmiy matnda alohida o'ringa ega. Ilmiy matnda esa iqtiboslarning qayerdan olinganligi, kimga tegishliligi, manbasi aniq ko'rsatilishi shart. Aks holda, bu holat qonunan plagiat, ya'ni o'g'irlik hisoblanadi. Ayni paytda ilmiy odob qoidalariga ham mutlaqo ziddir.

Matn ma'lum maqsad yoki fikrni sodda, qo'shma va murakkab gaplar orqali ifodalovchi til birligidir. Matn nasr yoki nazm shaklida bo'lishi mumkin.

Bir necha gaplarning o'zaro grammatik va mazmuniy bog'lanishidan tashkil topgan, mazmuniy yaxlitlikka ega bo'lgan qo'shma gaplarga nisbatan yirikroq yozma va og'zaki nutq parchasi mikromatn hisoblanadi. Bir umumiy mavzu ostida birlashgan bir necha mikromatnlardan tashkil topuvchi yaxlit asarga makromatn deyiladi. Masalan, Abdulla Qahhorning «O'g'ri» hikoyasida ishtirok etgan barcha mikromatnlar «o'g'irlik» umumiy mavzusi ostida birlashgan.

Matn nutq uslublarining turli sohalarini qamrab oladi. Matn uslubning badiiy, ilmiy, ommabop, rasmiy turlarini tashkil etishi mumkin.

Matn turli maqsadlar bilan tuziladi. Masalan: muayyan predmet yoki voqea-hodisalar haqida xabar berish, hikoya qilish, ularning ta'rif-tavsifini berish, ya'ni tasvirlash, ularni muhokama qilish, ya'ni mulohaza yuritish. Ana shunga ko'ra, matnlarning quyidagi turlari farqlanadi:

1. Hikoya matni.

2. Tasviriy matn.

3. Muhokama matni.

Muayyan predmet yoki voqeahodisalar ta'riflangan, tavsiflangan matn tasviriy matn hisoblanadi.

Tasviriy matn badiiy adabiyotda ko'proq qo'llanadi.

Hikoya matnida muayyan predmet yoki voqea-hodisalar haqida xabar beriladi, hikoya qilinadi.

Muayyan predmet yoki voqeahodisalar haqidagi fikr-mulohazalar bayon qilingan matn muhokama matni hisoblanadi.

Muhokama matni darsliklar va ilmiy kitoblarda ko'proq qo'llanadi.



MUSTAHKAMLASH

1-topshiriq. Quyidagi barqaror birikmalarni sarlavha sifatida qo'llab, mikromatn yarating.

Sichqon sig'mas iniga, g'alvir bog'lar dumiga (matal).

Qo'shning tinch - sen tinch (maqol).


2-topshiriq. Matnni o'qing, uning unsurlarini ayting. Matn turini aniqlang.

Matn yaratish matn ustida ishlashning eng mas'uliyatli davridir. Matnning turli uslubiy turlari (adabiy, ommabop, rasmiy, ilmiy, betaraf) o'zining leksik, grammatik xususiyatlariga ega. So'z, atama,

sheva, jargon, chet til soʻzlari, badiiy til vositalari, grammatik shakllar va sintaktik qurilmalar matn uslubining biror yoki bir-biriga yaqin turlarigagina xosdir. Yaratiladigan matnlar sodda tarkibli yoki murakkab tarkibli boʻlishi mumkin. Sodda tarkibli yozma matnlar oʻtilgan dars mavzulari boʻyicha boʻlib, talabalar mustaqil ravishda qisqa mavzuli misollar yoki matnlar tuzadilar.

Murakkab tarkibli yozma matnlar yozma ishning turli sohalariga oid boʻladi: insho, bayon, intervyu, reportaj, maqola, xabar, annotatsiya, konspekt, rasmiy ish qogʻozlari, taqriz. Insho matnning koʻp uslubiy turlarini (bayon, badiiy, ilmiy) oʻz ichiga oladi.

3-topshiriq. Quyidagi rasm asosida matn tuzing.



4-topshiriq. Matnni lotin yozuviga oʻgirib koʻchiring, mazmunini gapirib bering.

Бутун коинот бир-бирига меҳр-муҳаббат риштаси билан боғлангандир.

Меҳр улашишни ўрган!

У муҳаббатнинг барчасига

қалбингда жой борлигини, кўнглинг англаб етсин!

Муҳаббатсиз инсондан дунё кўрқади, буни унутма!

🔥 Мавлоно Румий.

5-topshiriq. Matnni o‘qib, o‘zbek tiliga tarjima qiling, uslubiy mohiyatiga ko‘ra turini aniqlang.

ВЫБОР ПРОФЕССИИ

(Касб танлаш)

Есть дагестанская пословица – «Человек рождается дважды. Первый раз, когда появляется на свет, а второй – когда приобретает профессию». Выбор профессии, поиски своего жизненного пути – очень нелегкое занятие. Выбрать профессию – значит приготовиться служить своему делу всю жизнь, изо дня в день принимать всё, что с ним связано, – романтическое и будничное, увлекательное и кропотливое, требующее терпения, выдержки, усердия.

Сорок тысяч профессий существует на свете, но, выбрав одну, человек связывает себя с ней на всю жизнь. Эта профессия становится делом всей его жизни. Человек создает себя и утверждает делом. Поэтому выбор дела в жизни каждого человека – это, в известной мере, выбор судьбы. Профессии могут осчастливить того, кто имеет к ним призвание, но они обрекают на муки того, кто принялся за них поспешно, необдуманно, поддавшись моменту

Профессия – это труд, который даёт возможность стать личностью. Человек, не нашедший себя в жизни, становится в нашем обществе тормозом: если нет радости труда, не будет и успеха. Профессию надо выбирать по душе, чтоб она доставляла радость, но успеха человек добивается лишь напряженным трудом. Труд – второе имя любой профессии. Работа – это единственный путь познать себя, свои возможности, утвердить себя в жизни на том месте, которого ты достоин.

Профессия – это род занятий, определенная форма трудовой деятельности.

Специальность – это отдельная отрасль науки, техники, производства, в которой человек работает.



SUHBAT UCHUN MAVZU

Sog‘lom muhit deganda nimani tushunasiz?

Uyga topshiriq. Talabalik hayotingizda ro‘y bergan eng kulgili voqea asosida kichik hikoya matni yarating.



28-MAVZU. “KELAJAKKA YO‘L”. GRAMMATIKA: MATNNI KENGAYTIRISH VA TORAYTIRISH.

Topshiriq. Matnni o‘qing.

KELAJAKKA YO‘L

Mamlakatimizning kelajagi bo‘lmish yoshlarimizni har tomonlama yetuk, bilimli, salohiyatli shaxs, komil inson sifatida tarbiyalash masalasiga bugungi karantin kunlarida ham o‘ziga xos tarzda, zamonaviy usullar asosida yondashilmoqda, ularning barcha huquq va erkinliklari, imkoniyat va manfaatlarini himoya qilishda tashkiliy-huquqiy asoslar zamon bilan hamnafas takomillashib bormoqda. Zero, masofaviy ta’lim, onlayn rejimida uzluksiz tashkil etilgan holda yoshlarning bilim olish huquqini ta’limda ta’minlaganining o‘zi O‘zbekistonning bugun yoshlarga berayotgan ta’lim-tarbiya va ko‘rsatilayotgan g‘amxo‘rlik, e’tiborning amaliy ifodasidir.

Axir, yurtimiz baxtiyor yoshlar mamlakati bo‘lib, mamlakatimiz aholisining qariyb 64 foizini yoshlar, ya’ni 30 yoshgacha bo‘lganlar tashkil etadi. Albatta bu, davlatimiz zimmasiga ulkan mas’uliyat yuklashini ko‘z oldimizga keltirsak, juda katta e’tibor, g‘amxo‘rlikni talab etadi, ikkinchi tomondan yoshlarimizga ko‘rsatiladigan e’tibor, ertaga ulkan yutuq va natijalarini ham beradi. Chunki hozir O‘zbekiston mehnat resurslarining yarmidan ko‘pi yoshlardir. Kelgusida har uchinchi rahbar ham yoshlardan bo‘ladi.



NAZARIY MA’LUMOT

Tayanch so‘z va iboralar. Matn mazmunini yoritish. Matnni kengaytirish. So‘z birikmalari, iboralar, tasviriy ifodalardan unumli foydalanish. Matnni toraytirish. Matndagi asosiy fikrni aniqlash. Tayanch so‘z va iboralarni ajratish.

MATNNI KENGAYTIRISH YO‘LLARI

Matnni kengaytirish quyidagi yo‘l va vositalar bilan amalga oshiriladi:

- 1) matnning bosh fikri, g'oyasini shakllantiruvchi tayanch so'z yoki gap, ifodani aniqlash va shunga bog'liq holda o'z mustaqil, ijodiy fikrini ifodalovchi gap, ifoda qo'shish;
- 2) matn mazmunini maqol, matal, hikmatlar bilan boyitish, dalillar bilan asoslash;
- 3) gapni uyushiq bo'laklar, kiritmalar, ajratilgan bo'laklar hisobiga kengaytirish;
- 4) so'z va birikmalarni ma'nodoshlari-tasviriylar, frazeologik iboralar va boshqa badiiy tasvir vositalari bilan almashtirish;
- 5) sodda gapni qo'shma gapga, qo'shma gapni alohida sodda gaplarga ajratish;
- 6) asosiy fikrni ifodalovchi gapga qo'shimcha fikr, izoh bildiruvchi sintaktik parallel gaplarni mantiqiy izchillikda bog'lab kiritish;
- 7) matnning kirish, xulosa qismlarini o'z qarashlari, mulohazalari, ilovalari bilan to'ldirish.

MATNNI QISQARTIRISH YO'LLARI

Matnni qisqartirish quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

- 1) matnning asosiy fikrini ifodalovchi gaplarni ajrata olish;
- 2) gaplardagi uyushiq va ajratilgan bo'laklarni, kiritma va ilova qurilmalarni qisqartirish;
- 3) birikmalarni ma'nodosh so'zlarga, sodda yoyliq gaplarni yig'iq gaplarga, qo'shma gaplarni sodda gaplarga, ko'chirma gaplarni o'zlashtirma gaplarga aylantirish;
- 4) matnning qo'shimcha fikr ifodalovchi gaplarini, sintaktik parallellar va takrorlarni qisqartirish;
- 5) matnni qisqa mazmunli tarkibiy qismlarga ajratish;
- 6) birikmali sifat-dosh, o'xshatish va boshqa tasviriylar ifodalarni sodda va ixcham shaklga keltirish.



MUSTAHHKAMLASH

1-topshiriq. Gaplarning asosiy mazmunini saqlagan holda ixchamlashtiring, ortiqcha leksik-grammatik vositalarsiz daftaringizga ko'chiring.

1. Uning manfaatlarini, fikr-o'y doiralarini, g'oya va maqsadlarini yaxshi bilamiz. **(Zulfiya)** 2. Gapni yana cho'zmasin deb, unga qarshi hech

narsa demadi.(A.Q.) 3.Menga qara, bir ish buyursam, yo‘q demaysanmi? (S.A.) 4.Na muattar chamanzorlar, na muhtasham qo‘shiqlar, na kumushlangan hovuzlar, na chiroyli qafasdagi qushlar-hech nima uni qiziqdirmadi.(O.) 5.Kunduzi bo‘lsa, o‘zingizdan o‘tar gap yo‘q, xunukroq ko‘rinadi.(A.Q.) 6.Kim maqtanchoq boisa, u hamisha xijolat tortadi.7.Ko‘z qayerda boisa, mehr ham o‘sha yerda bo‘ladi.(Maqol)

2-topshiriq. Matnni asosiy fikrni saqlagan holda qisqartirib ko‘ring.Qanday usullar bilan matnni qisqartirganingizni izohlang.

Qadimgi Yunonning eng buyuk faylasufi Arastu o‘limiga yaqin o‘g‘lini chaqirib shunday debdi:

Bolajonim, o‘z umrimni ilm-u hikmatning sirlaridan voqif bo‘lish yo‘lida sarf qildim.Ilm-u hikmat nuri bilan juda ko‘p tugunlarni yechdim, ammo o‘linga kelganda chora topolmadim.Senga qiladigan vasiyatim shuki, o‘g‘lim, mol-davlat orqasida orttirgan izzat-obro‘da baqo yo‘q.Izzat-hurmat, shon-sharaf ilmda.Ilm orqasida qo‘lga kiritilgan shon-sharaf fano va zavolni bilmaydi, davlat va siyosatning o‘zgarishi unga ta’sir qilmaydi.

O‘g‘lim, shohlar sening otangni ilmi tufayli ulug‘lashdi, bo‘lmasa, otang ham ular qaramog‘idagi bir odam edi.Shohlar tobeligidagi odamlar shohlarga ta’zim qilishadi va siginishadi.Obidlar va ma’budlar orasida yer bilan osmoncha farq bor.

Otangning ilmi boimaganda, uning podshohlar uchun kitob ortilgan eshakdan farqi qolmasdi.Ularga sig‘inadigan va xizmatini bajo keltiradigan bir g‘ulom bo‘lar edi, xolos.Izzat-ehtiromga loyiq bo‘lay, nomim abadiy qolsin desang, ilm orttir! (Muhammad Avfiy)

3-topshiriq. “Inson va tabiat munosabati” mavzusida matn yarating.



4-topshiriq. Quyidagi qo‘shma gaplarni sodda gaplarga aylantiring.

Namuna: *Har birimiz shuni unutmaylikki,, biz ongli mavjudotmiz.*
// Biz ongli mavjudot ekanligimizni unutmaylik.

- 1.Odamzod tabiat ishiga aralashaversa, bir kun kelib tabiat o‘z o‘chini olmay qo‘ymaydi.
- 2.Mutaxassislarning ta’kidlashicha, tabiatda turlarning rivoji bamisoli zanjirdek bir-biri bilan chambarchas bo‘g‘langan bo‘lib, ular o‘zaro yaxlit ekotizimni tashkil etadi.
- 3.Birgina giyoh yo‘qolar ekan, hatto u ham tabiat muvozanati buzilishiga olib kelishi ehtimoldan xoli emas.

5-topshiriq. Quyidagi jadvalda berilgan birliklarning qisqa ifodasini toping.

BIRLIKLAR	QISQA SHAKLDAGI IFODASI
Sayr-u sayohat qilmoq	aylanmoq
tabiatning “yashil qo‘rg‘oni”	
echkinining bolasi	
yomg‘irlar fasli	
Tirik mavjudotlar	
Sayyoramizni qoq ikkiga bo‘lgan tabiiy belbog‘	
Insonning qanotli do‘stlari	



SUHBAT UCHUN MAVZU

Qanday inson bilan turmush qurishni istaysiz?

Uyga topshiriq. “Otning o‘limi - itning bayrami”. Maqoldagi fikrni kengaytirib ifodalang.



29-MAVZU. “TARJIMAYI HOL”. GRAMMATIKA: NUTQ USLUBLARI VA USLUBIY BO‘YOQDORLIK.

TARJIMAYI HOL

Ma’lum bir shaxs tomonidan o‘z shaxsiy hayoti va faoliyati haqida bayon qilingan yozuv. Tarjimayi hol bir xil andozaga ega emas, mufassal yoki muxtasar yozilishi mumkin. U muallif tomonidan mustaqil tuziladigan hujjatdir. Garchi u erkin (ixtiyoriy) tuzilsa-da, biroq tarjimayi holda ayrim qismlarning bo‘lishi shart.

Tarjimayi holning asosiy zaruriy qismlari:

1. Hujjatning nomi (Tarjimayi hol).

2. Matn:

a) muallif familiyasi, ismi va otasmi;

b) tug‘ilgan yil, kun, oy va tug‘ilgan joyi;

d) millati, ijtimoiy kelib chiqishi;

e) ota-onasi haqida qisqacha ma’lumot (familiyasi, ismi va otasmi, ish joyi);

f) ma’lumoti (qayerda, qanday o‘quv yurtini tugatganligi va ma’lumotiga ko‘ra mutaxassisligi);

g) ish faoliyatining turlari;

h) oxirgi ish joyi va lavozimi;

i) mukofot va rag‘batlantirishlar;

j) jamoat ishlaridagi ishtiroki;

k) oilaviy ahvoli va oila a’zolari;

l) pasport ma’lumotlari;

m) turar joyi (uy manzili), telefoni.

3. Sana.

4. Imzo.

Tarjimayi hol oddiy qog‘ozga, ayrim hollarda, ya’ni ishga, o‘qishga kirishda maxsus bosma ish qog‘ozlariga qo‘lda yoziladi. Matnni bayon qilish shakli hikoya uslubida bo‘lib, birinchi shaxs tilidan yoziladi.

Barcha ma’lumotlar davriylik asosida, aniq sanalar bilan (iloji boricha yili, oyi, kuni ko‘rsatilgan holda) beriladi. Barcha raqamlar arab raqamlarida ifodalanadi. Tarjimayi hoi shunday tuzilishi kerakki, u bilan tanishgan kishi muallifning hayot yo‘li, faoliyati haqida muayyan tasavvurga ega bo‘lsin. Quyidagi ilovada tarjimayi hoi namunasi berildi.

TARJIMAYI HOL

Men, O'roqova Nilufar Mustafayevna, 1979-yilda O'zbekiston Respublikasi Navoiy viloyati Nurota shahrida ziyoli oilasida tug'ilganman.

Otam - O'roqov Mustafo (1946) va onam Qjlicheva Saodat (1950) Xalq ta'limi sohasida faoliyat yuritishadi.

1985-1996 -yillarda Nurota shahridagi №18-maktabda o'qidim. Shundan so'ng, 2000-yilda Samarqand davlat universitetining o'zbek filologiyasi fakultetini tugatganman.

Mehnat faoliyatimni Navoiy Tasviriy va amaliy san'at litsey-internatda ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi sifatida boshlaganman. 2004-2008-yillarda Samarqand shahridagi №13-o'rta maktabda o'qituvchi, 2008-yildan boshlab SamISI qoshidagi 1-son akademik litseyda o'qituvchi vazifasida ishlab kelyapman.

Oilaliman, 2 nafar farzandim bor.

Hozirda Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 36-uyda yashayman.

N.O'roqova

2010- yil 20- yanvar



NAZARIY MA'LUMOT

Tayanch so'z va iboralar. Nutq uslublari va uslubshunoslik. Nutq uslublarning turlari: ilmiy, rasmiy, badiiy, publitsistik va so'zlashuv uslubi. Uslubiy xoslangan va uslubiy betaraf so'zlar. Uslubiy bo'yoqdorlik.

Adabiy tilning ijtimoiy hayotdagi ma'lum soha doirasiga, ma'lum nutqiy vaziyatga xoslangan ko'rinishi **nutq uslubi** hisoblanadi. So'zlar ham ma'lum nutq uslubiga xoslanish-xoslanmaslik belgisiga ko'ra uslubiy xoslangan va uslubiy betaraf so'zlarga bo'linadi. O'zbek tilining nutq uslublarni o'rganuvchi tilshunoslik bo'limiga esa o'zbek tili uslubiyati (stilistika) deyiladi.

Ayrim nutq uslubi doirasidagina qo'llanadigan so'zlar **uslubiy xoslangan so'zlar**, bunday xususiyatga ega bo'lmagan so'zlar esa **uslubiy betaraf so'zlar** sanaladi.

O'zbek tilining quyidagi nutq uslublari mavjud: 1) so'zlashuv uslubi; 2) publitsistik uslub; 3) ilmiy uslub; 4) rasmiy uslub; 5) badiiy uslub.

Nutq uslublaridan so‘zlashuv uslubi og‘zaki nutqqa, qolganlari, asosan, yozma nutqqa xosdir, ba‘zan og‘zaki shaklda ham yuzaga chiqadi.

So‘zlashuv uslubi til birliklarini tanlash va ularni qo‘llashning nisbatan erkin uslubidir. Bu uslub o‘z xususiyatlariga ko‘ra ikki turga: **adabiy so‘zlashuv uslubi** va **oddiy so‘zlashuv uslubiga** ajratiladi.

Adabiy so‘zlashuv uslubi umumxalq adabiy tilining keng tarqalgan va barcha sohalar uchun bop turi bo‘lib, u adabiy me‘yorlarga mos, ishlangan va tartibga solingan bo‘ladi.

Adabiy so‘zlashuv uslubi kundalik muloqot uchun xizmat qiladi, o‘qitish ishlari, tarbiya va tashviqot shu uslubda olib boriladi, badiiy adabiyot shu uslubda yaratiladi.

Oddiy so‘zlashuv uslubi nutq muomalasi jarayonida (erkinlik bilan) adabiy til hamda sheva elementlari ishtirok etishi, fikriy idrokni keng qamrovli bayon etishi bilan ta’riflanadi.

Oilada, ko‘cha-ko‘yda kishilarning fikr almashishi jarayonida qo‘llaniladigan nutq uslubi so‘zlashuv uslubi sanaladi. So‘zlashuv uslubi adabiy va oddiy so‘zlashuv uslublarini o‘z ichiga oladi.

So‘zlashuv uslubining har ikki turi ko‘pincha dialog shaklida ro‘yobga chiqadi. Ikki shaxsning o‘zaro so‘zlashuvi dialogik nutq sanaladi. So‘zlashuv uslubida so‘zlar ko‘pincha kinoya, piching, qochirmalarga boy bo‘ladi. Bu uslubning yana bir o‘ziga xos xususiyati erkinligidir.

Rasmiy-idoraviy uslub. Huquqiy qonunchilik va ish yuritish munosabatlari doirasida qo‘llaniluvchi nutq uslubi **rasmiy uslub** hisoblanadi.

Rasmiy-idoraviy uslub jamiyatdagi ijtimoiy, huquqiy munosabatlar, davlat va davlatlararo rasmiy, siyosiy-iqtisodiy, madaniy aloqalar uchun xizmat qiluvchi nutq uslubidir. Bu uslub hujjatlilik xarakteri bilan ajralib turadi. Shunga ko‘ra yozma nutqning xizmatga doir bu turi davlat qonunlari, farmonlar, bayonotlar, shartnomalar, idora hujjatlari, e’lonlar va boshqa rasmiy yozishmalar uslubi hisoblanadi. Rasmiy uslub tilining asosiy xususiyati **aniqlik va ixchamlikdir, unda muayyan nutqiy shtamplar, kasbga oid so‘zlar, atamalar, tayyor sintaktik qurilmalar** keng qo‘llanib, nutqning aniq va ravshan ifodalanishini ta’minlaydi.

Rasmiy uslub quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Sof qonunchilik uslubi (qonun, farmon, fuqarolik va jinoiy aktlar, nizomlar uslubi).

2. Idoraviy-devonxona uslubi (buyruq, ariza, talabnoma, bildirgi, tavsifnoma, tarjimayi hol, ishonchnoma, dalolatnoma).

3. Diplomatik uslub (nota, bayonotnoma, bitim, konvensiya va boshqalar).

Rasmiy uslub deyarli yozma shaklda ro'yobga chiqadi. U har qanday tasviriyl vositalardan, obrazlilikdan xoli bo'ladi. Bunday uslubda tilning ikki vazifasi – axborot uzatish va da'vat etish, buyurish vazifasi amalga oshadi. Masalan, ma'lumotnomada axborot berilsa, buyruqda da'vat etish, axborot o'z aksini topgan bo'ladi.

Publitsistik uslub. Ommaviy axborot vositalarida (gazeta-jurnal, radio, televideniye), Oliy Majlis yig'inlarida, turli xil anjumanlarda qo'llaniladigan nutq uslubi publitsistik uslub sanaladi.

Publitsistika (lot. *publika* – xalq, omma) davrning eng muhim, dolzarb masalalarini o'quvchilarga, tinglovchilarga, tomoshabinlarga gazeta-jurnal, radio, televideniye orqali yetkazish, ommani jonlantirish, kishilarning ongiga atrofda sodir bo'layotgan voqealarni singdirish, ularning ijtimoiy qarashlarini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Bu uslub, avvalo, tashviqot va targ'ibot uslubi bo'lganligi uchun ham unda siyosiy faollik, hozirjavoblik, o'tkir va ta'sirchan notiqlik, mantiqiy mulohaza va dalillar bilan tushuntirish, isbotlash kabi belgilar ustunlik qiladi.

Badiiy uslub kishi hayotining hamma tomonlarini qamrab olishi, umuminsoniyatga xosligi, barchaga barobarligi, o'quvchi yoki tinglovchiga hissiy-estetik ta'sir etishga yo'naltirilganligi bilan boshqa uslublardan ajralib turadi. Badiiy uslubda muallif asarning estetik ta'sirini kuchaytirish maqsadida tilning leksik va grammatik vositalardan ustalik bilan va ijodiy foydalanishi, turli ifodaviy vositalarni qo'llashi yoki o'zi yangilarini yaratishi mumkin bo'ladi. Shuning uchun ham bu uslubda yozuvchilar mavjud so'zlarni obrazli ishlatishdan tashqari o'ziga xos so'z va iboralar ham ijod etadilar. Badiiy nutqda til obraz, xarakter, manzara yaratishga, yuksak obrazlilikni namoyon qilishga xizmat qiladi.

Ilmiy uslub daliliy ma'lumotlar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalarga asoslanuvchi, har bir fan sohasining o'ziga xos atamalariga tayanuvchi, fikrni aniq va mantiqiy izchil shaklda bayon qiluvchi uslub sanaladi.

Unda narsa-hodisa mohiyatini ta'riflash, tahlil qilish, sababini aniqlab, dalillar bilan isbotlash va asosli natijalarni bayon etish muhim hisoblanadi. Maxsus atamalar bu uslubning leksikasini tashkil qiladi, unda adabiy me'yorga qat'iy rioya etilgani holda majhul nisbatdagi fe'llar va murakkab qurilishli gaplar keng ishlatiladi.



MUSTAHKAMLASH

1-topshiriq. Ariza namunasidan foydalanib, nuqtalar o'rnini to'ldirgan holda o'qishga kirish to'g'risida ariza yozing. Tinish belgilarining qo'yilishi hamda bosh harflarning yozilishiga e'tibor bering.

.....
kimga?

.....
kimdan?

ARIZA

1. Men, ... , Sizdan ... (nimani?) ... so‘rayman.
2. Menga ... (nimaga?) ... ruxsat berishingizni so‘rayman.
3. Nimani ilova qilaman.

sana

imzo

Familiya, ism .

2-topshiriq. “Noto‘g‘ri jadval” usuli orqali quyida berilgan uslublar va ularga oid misollarni to‘g‘ri moslashtiring.

NOTO‘G‘RI JADVAL		
T/r	Uslublar	Misollar
1	Ilmiy	Kapalakday kelib, qoshingga qo‘nib, Ko‘zingga termulib umrim o‘tsaydi.
2	Rasmiy-idoraviy	Bir narsani surishtirib, tagiga yetmoqchi bo‘lsak, aslidan kelimiz: asli nima edi? Asli qanday edi? va hokazo.
3	Publitsistik	– Xo‘sh, mulla Asomiddin, “O‘tkan kunlar”ni o‘qidingizmi? – Ha, o‘qidim. – Necha marta o‘qidingiz? – Bir marta. Hmm. Bu kitobni bir marta emas, besh marta o‘qish kerak. Shunda siz muomalani, odobni, hayotni, tarixni, tilni o‘rganasiz.
4	So‘zlashuv	Tovush to‘lqinlarining vujudga kelishi va tarqalishi bilan bog‘liq hodisalar akustik hodisalar deb yuritiladi.

5	Badiiy	Men, Toshkent shahar 2-Qorasuv dahasi 214-uy 5-xonadonda yashovchi Ahad Ismoilovich Bahodirov, yon qo'shnim Naim Abdullayevich Qahhorovga shaharning 7-aloqa bo'limidan mening nomimga kelgan pochta jo'natmasini olish uchun ishonch bildiraman.
---	--------	---

3-topshiriq. Quyidagi hikmatli iboralarning mazmunini o'z so'zlaringiz bilan so'zlab bering.

Jismoniy poklik har kimning ishi, ma'naviy poklik vijdonning ishi. Mantiqsiz gap haqni buzar, yolg'on gap shaytonni tuzar. Go'zallik to'qqizdir, shundan sakkizi rostgo'ylik. Loqayd kishi insofsizning eng kattasidir. Johil bilan kengashgandan oqilga ergashgan yaxshi. Insof-uzoq umr garovi. Mablag' barakasi egasining harakatiga bog'liq. Yozma va og'zaki matn yaratish ustida ishlash.

4-topshiriq. Tarjimayi holning tuzilishiga e'tibor bering va shu asosda o'z tarjimayi holingizni yozing.

Men, kim?,... qachon?..., qayerda?..., qanday oilada?... tug'ildim.

Otam – kim?... qayerda? ... kim bo'lib? ishlaydi.

Onam - kim?... qayerda? ... kim bo'lib? ishlaydi.

Men qachon? ... qaysi? ... maktabga o'qishga bordim.

Maktabni... qachon? ...qanday? bitirdim.

Qachon? qaysi oliy ta'lim muassasasiga o'qishga kirdim.

Hozir ... qaysi? fakultetda ... nechanchi? bosqichda o'qiyapman.

Turmushga chiqqanmisiz? (Uylanganmisiz?)

Manzilingiz?

5- topshiriq. “Mozaika” usulidan foydalanib, quyida berilgan matnning qismlarini tartiblang va bu matn qaysi uslubga xosligini aniqlang.





SUHBAT UCHUN MAVZU

Ertaklarning hayotimizga ta'siri.

Uyga topshiriq. Berilgan so'zlarni uslubiy xususiyatiga ko'ra guruhlariga ajratib, jadval kataklariga yozib chiqing.

Maroqli, tabiat, sirroz, oqsil, veterinariya diagnostikasi, jamiyat, gullamoq, to'ninini ters kiymoq, mingta, harakat, harakatchan, orzu-havasli, ehtirom, ta'sir, to'satdan, ko'rsatmoq, tonna, yaratmoq, yuqori navli, jilmaydi, sersavlat, hashamatli, molekula, elektron, xullas, tajriba-sinov, haqiqat, oddiy, eruvchanlik, mahmadona, ko'rsatilgan muddatda, foydazarar, kirim-chiqim, mushtariy, qo'llab-quvvatlamok, man qilinadi, so'raladi, matonatli, jamol, latif, bildirgi, naynov.

So'zlashuv uslubi	Badiiy uslub	Publitsistik uslub	Ilmiy uslub	Rasmiy uslub



30-MAVZU. "SUHBAT ODOBI". GRAMMATIKA: NUTQ MADANIYATI.

Topshiriq. Matnni o'qing.

SUHBAT ODOBI NIMA

Suhbat usuli — bu psixologik og'zaki-kommunikativ usul bo'lib, u psixolog va respondentdan ma'lumot olish uchun mavzuga asoslangan muloqotni o'tkazishdan iborat.

Suhbat odobi - bu jamoat joylarida suhbatni to'g'ri o'tkazishga imkon beradigan qoidalar to'plami. Bu qoidalarga quyidagilar kiradi:

- Suhbatni qanday boshlash va tugatish.
- Boshqalar bilan qanday munosabatda bo'lish va guruh suhbatlari.
- Oldini olish kerak bo'lgan xatolar.

O'zaro munosabatlarni to'g'ri o'rnatish va boshqa odamlar bilan muloqot qilish uchun suhbatlashish odob-axloq qoidalaridan foydalaning.

Suhbat odobi ikkita asosiy tamoyilga asoslanadi:

- Boshqa odamlar bilan tanishish va munosabatlarni o'rnatish.
- Mojarolardan qoching.
- Juda to'g'ridan-to'g'ri yoki qiziquvchan bo'lmaslikka harakat qiling.

SUHBAT ODOBI QOIDALARI:

- 1) Suhbatni qanday boshlash kerak.
- 2) Suhbatni davom ettiring.
- 3) Gapirayotganda ijobiy tana tilini namoyish eting.
- 4) Guruh suhbatlarini boshqarish.
- 5) Monologlardan saqlaning.
- 6) Suhbatning engil va umumiy mavzularini tanlang.
- 7) Eskalatsiya va nizolardan qoching.
- 8) Suhbatni qanday tugatish kerak.
- 9) Suhbat va kichik suhbat.

NAZARIY MA'LUMOT

Tayanch soʻz va iboralar. Til va nutqning farqi. Nutqning xususiyatlari. Nutqning aniqligi. Nutqning toʻgʻriligi. Nutqning sofliqi. Nutqning boyligi. Nutqning joʻyaliligi. Nutqning taʼsirchanligi. Nutqning ifodaliligi. Nutq madaniyati. Nutq odobi.

Til ham, fikr ham hayotning ongimizdagi koʻrinishi va nutq yordamida boshqalarga maʼlum qilinish vositasidir. Tilni xalq yaratadi, shuning uchun u umumxalq dahosi va xususiyatiga ega boʻladi; nutq esa ayrim shaxsga oid boʻladi. Har kim oʻz qobiliyati, soʻz boyligi, savodi hamda nutq aʼzolariga qarab gap tuzadi. Til-aloqa quroli, u vosita. Nutq esa ana shu aloqa jarayonini amalga oshirishga xizmat qiladi. Tilning umri uni yaratgan xalqning oʻzidek uzoq boʻladi. Nutqning umri esa qisqa boʻladi. Ogʻizdan soʻz yo gap chiqdimi-uchadi ketadi. Shuning uchun nutq oldiga nihoyatda ulugʻ bir talab qoʻyiladi: oʻynab gapirsang ham, oʻylab gapir. Navoiy aytganidek: “Soʻzingni buyuk etsang, oʻzingga buyuklik keltirasan”. Tilning xizmat doirasi juda keng, hajmi oʻlchovsiz boʻladi. Nutq esa aniq hajmli, shaklli boʻladi. Nutq yakka shaxs (monolog) yoki juft shaxslar orasida (dialog) yuz beradi. Nutq sheʼr, hikoya, roman, qissa kabi koʻrinishlarda turli janrlarga boʻlinadi. Nutq yozma va ogʻzaki boʻladi. Tilning qonun-qoidalar uzoq yillar davomida saqlanib qoladi, silliqlashadi va boyib boradi. Nutq esa doim oʻzgarishda boʻladi: vaziyatga yo nutq aʼzolari faoliyatiga qarab soʻzning tovush tomoni oʻzgaradi. Nutq soʻzlovchining saviyasiga, uslubiga, oʻrin va mavqeyiga qarab har xil boʻladi. Nutqimiz ikki shaklda boʻladi: ogʻzaki va yozma. Ogʻzaki nutq oʻzaro muomala tilidir, undan oʻzaro suhbatlarda, maʼruzalarda, radio hamda telefonda, uy-oila muomalasida foydalaniladi. Har ikki nutq shakli oldiga bir xil talablar qoʻyiladi. Fikrning aniq va tushunarli boʻlishi, jumlaning toʻgʻri, ravon hamda taʼsirli tuzilishi har qanday nutqning bosh

fazilatidir. Soʻzni toʻgʻri qoʻllash, undagi tovushlarni toʻgʻri va aniq talaffuz qilish (hol-xol, yod-yot, sof-sop, sher-sheʻr va b.), gapda soʻzlarni tartib bilan joylash kabilar vositasida fikrning tushunarli boʻlishiga erishamiz. Gʻoʻza va paxta oʻzaro juda yaqin tushunchani bildiradi, shunga qaramay, “gʻoʻza terildi”, “paxta gulladi” deyish xatodir. Aniqlik, toʻgʻrilik, ravonlik, soddalik, tuzalik, joziba (taʼsirli soʻzlash) kuchi har qanday nutqning eng muhim belgilaridir. Qoʻshimchalardan toʻgʻri foydalanish (gʻishtin polli, zamonaviy bino, dadam va onam keldi); soʻzlarni toʻgʻri bogʻlash (qaror yozildi-qarorni emas), takror va keraksiz ifodadan qochish (turgan joyida turib qoldi...), qoʻshma gapni meʼyori bilan tuzish, chet soʻzlarni zoʻrma-zoʻraki-ehtiyojsiz ishlatish nutqni gʻaliz va nursiz qiladi.



MUSTAHKAMLASH

1-topshiriq. Matnni oʻqing. Til va nutq toʻgʻrisida adib bildirgan fikrlarni ajratib, oʻz soʻzlaringiz bilan yozing va mustaqil matn tuzing.

Umumiy milliy tilni saqlamak ila barobar xususiy ogʻiz orasidagi tilni ham saqlamak lozimdur. Chunki soʻz insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini oʻlchab koʻrsatadurgʻon tarozusidir. Aql sohiblari kishining dilidagi fikr va niyatini, ilm va quwatini, qadr va qimmatini soʻzlagan soʻzidan bilurlar. «Quruq soʻz quloqqa yoqmas», -demishlar. Agar soʻz aql va hikmatga muvofiq boʻlib, oʻziga yoki eshituvchiga bir foyda chiqadurgʻon boʻlmasa, asalarilar orasida gʻoʻngʻirlab yurgan qovogʻari kabi quruq gʻoʻngʻurlamoq faqat bosh ogʻrigʻidan boshqa bir narsa emasdur. Boshimizga keladurgʻon qattigʻ kulfatlarning koʻpi yumshoq tilimizdan keladur. Shuning uchun: «Koʻp oʻyla, oz soʻyla», -demishlar. Tillarning eng yaxshisi soʻzga usta til, soʻzlarning eng yaxshisi bilib va oxirini oʻylab soʻylangan soʻzdir. (A.Avloniy, «Turkiy guliston yoxud axloq»dan.)

2-topshiriq. Maqol va hikmatli soʻzlarni koʻchiring, oʻzingizga maʼqul boʻlganlaridan 2 tasiga sharh yozing.

Til millatning birinchi haqqidir. Shu haq oʻksitilgan boʻlsa, demak, millat oʻzini oʻzi oʻksitib kelgandir. (I.Gʻofurov) 2. Til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir. (A.Navoiy) 3. Tilga eʼtibor-elga eʼtibor. 4. Kishining goʻzalligi uning tilidan bilinadi. («Hadis»dan) 5. Oʻz vataningga boʻlgan chinakam muhabbatingni oʻz tilingga boʻlgan muhabbatingsiz tasavvur etish mumkin emas. (K.G. Paustovskiy) 6. Kimki qisqa soʻzda deydi koʻp maʼno, Ravonlik bobida ul kishi aʼlo. (Abu Shukur Balxiy) 7. Soʻz soʻzlashda va undan jumla tuzishda uzoq andisha kerak. (A.Qodiriy) 8. Soʻz ichra mudom aql yashirindur, Soʻz chimildigʻ-u aql kelindur. (Nosir Xisrav) 9. Tilingda boʻlsa boling, kulib turar iqboling.

3-topshiriq. “Veterinariya dorixonasida” mavzusida suhbat matni yarating.

4-topshiriq. Nuqtalar o‘rniga ma’lumot uchun berilgan so‘zlar va birikmalarni qo‘yib gaplarni ko‘chiring.

1. Nigoraxon ularning hazillariga ... javob qaytarardi. 2. Oftob yerdagi qorlarni 3. Biz bobom to‘g‘risidagi hikoyalarni ... tingladik. 4. Ishchilardan biri shoshilmasdan ... javob berdi. 5. Rais cho‘ponning ... aytayotgan qo‘shig‘ini ... tinglab borardi. 6. Sultonmurod do‘stini ... kutib oldi. 7. Tevarak-atrofni haybatli tog‘lar ... o‘rab olgan. 8. Kechasi tiniq osmonda yulduzlar chamani ... porlaydi. 9. Maktabning katta zalida o‘quvchilar ... turishibdi.

Ma’lumot uchun: istar-istamas, hazil bilan, tabassum bilan, qiziqish bilan, zavq-shavq bilan, saf tortishib, qanddek, halqa kabi, charaqlab, berilib.

5-topshiriq. Matnni o‘qing, ajratib ko‘rsatilgan gap asosida bahs-munozara yuriting.

Zamonaviy manqurtlik.

- Yer kurrasida nima gap? – so‘radi o‘zga sayyoraliklar sardori.
- Bordim. Bir xalqni ko‘rdim. Ahvoli yaxshimas, - javob berdi boshqasi.
- Nega? Axborot ber-chi!
- Ota qo‘ltelefonga yopishib qolgan; on qo‘ltelefon ichiga kirib ketga; o‘g‘il qo‘ltelefonga uylanayapti; qiz qo‘ltelefonga erga tegayapti; miyasida telefon o‘ib chiqqan avlod tug‘ilayapti; butun xalq telefon vabosiga yo‘liqqan.
- Qo‘ltelefon degani nima o‘zi? – hayratlandi sardor.
- Qurol bo‘lsa kerak... **O‘zini yeb bitirish uchun o‘zlari o‘ylab topgan qurol!** – javob berdi boshqasi. (Q.Norqobil)



SUHBAT UCHUN MAVZU

Laboratoriya darslarida hayvonlardan foydalanishga qanday munosabat bildirasiz?

Uyga topshiriq. O‘tilganlarni takrorlash.

GLOSSARIY

Atamaning o'zbek tilida nomlanishi	Atamaning rus tilida nomlanishi	Atamaning ingliz tilida nomlanishi	Atamaning izohi
Adabiy til	Литературный язык	Literary language	umumxalq tilining ishlangan, sayqal berilgan, ma'lum bir me'yorga solingan shakli
Atama	Термин	Term	termin, fan-texnika, kasb-hunarga oid bir ma'noli so'z
Gap	Предложение	Sentence	muomalaning eng kichik birligi, mazmun va grammatik jihatdan shakllangan, nisbiy tugallangan fikr
Grafika	Графика	Graphics	tilshunoslikda yozuvni o'rganadigan bo'lim
Sheva	Диалект	Dialect	ma'lum bir hududdagina ishlatiladigan so'zlar
Fonetik yozuv	Фонетическое письмо	Phonetic writing	tovush o'zgarishiga uchragan so'zlarning yozilishi
Nutq	Речь	Speech	fikrni so'z orqali ifodalash qobiliyati, mahorati
Abzas	Абзац	Paragraph	xat boshi, satr boshi
Tezis	Тезис	Thesis	ilmiy asar, maqola, ma'ruza va shu shakldagi asosiy g'oyalarning qisqacha ifodasi
Termin	Термин	Term	umumadabiy tilning maxsus vazifa bajaruvchi bir turi bo'lib, ishlab chiqarish, fan va texnika tiliga mansub lisoniy birlik, bir so'z yoki birikmadir

Terminologiya	Терминология	Terminology	muayyan fanning tushunchalar tizimi bilan o'zaro munosabatda bo'lgan terminlar jami sifatida ta'riflanadi. Terminologiya – fan-texnika, ishlab chiqarishning xilma-xil soha va terminlar majmui, ya'ni yig'indisidir. Masalan, matematika terminologiyasi, tibbiyot terminologiyasi, iqtisodiyot terminologiyasi va boshqalar
Terminologik tizimni tartibga solish	Упорядочение системы терминологии	Regulating terminology system	terminlarni to'plash, sistemalashtirish, ilmiy nuqtai nazardan tadqiq etish
Morfologik usul	Морфологический метод	Morphological method	leksemalar hosil qilishning keng tarqalgan yo'llaridan biri bo'lib, affikslar orqali so'z yasash
Sintaktik usul	Синтаксический метод	Syntactic method	mustaqil ma'noli ikki va undan ortiq so'zlarni bir-biri bilan grammatik jihatdan birlashtirib ifodalash usuli
Fakt	Факт	Fact	ma'lum bir haqiqatga xizmat qiluvchi manba
Maqola	Статья	Article	nutq, kichik asar. To'plam, jurnal, gazeta uchun yozilgan yoki ularda bosilgan, hajmi katta bo'lmagan ilmiy yoki publitsistik asar

Tahrir	Редактиро- вания	Edit	yozma ishni, asarni tuzatishlar kiritib yaxshilash, tuzatish
Sodda gap	Простое предложение	Simple sentence	bir ega-kesim birligidan iborat gap
Takroriy soʻz	Повторное слово	Repeating word	bir soʻzning takroridan iborat boʻlgan soʻz
Tasviriy ifoda	Изобразитель ное выражение	Figurative phrasing	soʻzni obrazli qilib aytish
Leksika	Лексика	Lexicon	tildagi barcha soʻzlar yigʻindisi
Maqol	Пословица	Proverb	Hayotiy tajriba asosida xalq tomonidan yaratilgan, odatda ixcham tugal maʼnoga ega boʻlgan, ixcham, obrazli, tugal maʼnoli va hikmatli ibora
Esse	Эссе	Essay	erkin kompozitsiyali uncha katta boʻlmagan nasriy asar boʻlib, esseda narsa va hodisalarga yoki shaxsga oid subyektiv fikr bayon qilinadi
Taqriz	Рецензия	Review	adabiy tanqid janri boʻlib, arab tilida ijobiy baho degan maʼnoni anglatadi va yangi badiiy, ilmiy yoki ilmiy- ommabop asar tahlili hisoblanadi
Rezume	Резюме	Resume	fransuzcha soʻz boʻlib, yozilgan, aytilgan yoki oʻqilgan narsaning qisqa holatda aks ettirish, qisqacha xulosa, biror narsaning yakuniy natijasi

Annotatsiya	Аннотация	Annotation	kitob, maqola va boshqalarning mazmuni, ahamiyati haqida qisqacha ma'lumot, qisqacha ta'rif
Xususiy hujjatlar	Частные документы	Private documents	tashkilotlarda matnning o'ziga xosligi, betakrorligi, mazmun bayoni erkin bo'ladigan hujjatlardir
Namunaviy hujjatlar	Образцовые документы	Exemplary documents	boshqaruvning muayyan bir vaziyatlari bilan bog'liq bir-biriga o'xshash va ko'p takrorlanadigan masalalar yuzasidan tuzilgan matnlarni o'z ichiga oladigan hujjatlardir
Qolipli hujjatlar	Шаблоны документов	Model documents	odatda, oldindan tayyorlangan bosma ish qog'ozlariga yoziladigan hujjatlardir
Hisobot	Отчет	Report	muayyan vaqt uchun rejalashtirilgan ish yoki vazifa, topshiriqlarnig bajarilishi, amaliy dolzarb ishlar, xizmat va ilmiy safarlar yakuni haqida ma'lumot beruvchi hujjatdir.
Bayonnoma	Протокол	Protocol	turli yig'ilish, kengash va boshqa tur anjumanlarning borishini, majlis qatnashchilarining chiqishlari va ular qabul qilgan qarorlarni aniq, siqiq holda qayd qiluvchi rasmiy hujjat
Tasdiq xati	Утвердительное письмо	Confirmati on letter	ma'lum bir muassasa tomonidan yuborilgan iltimos va so'rovlarga javob tarzida yoziladigan xatlarning bir turi

Ilova xat	Письмо-приложение	Appendix letter	xatni qabul qilib oluvchilarni jo'natiladigan hujjatlar haqida yozma xabardor qilish uchun qo'llanuvchi qisqacha xabar qog'ozi
Axborot xati	Информационное письмо	Information letter	ma'lum tashkilot yoki shaxsni amalga oshirilayotgan tadbiridan xabardor qilish
Muloqot	Общение	Communication	kishilar o'rtasidagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog'lanishlar rivojlanishining ko'p qirrali jarayoni
Kommunikatsiya	Коммуникация	Communication	lotincha "communicatio" so'zidan kelib chiqqan bo'lib umumiy qilmoq, bog'lamoq). Fikr almashuv, aloqa. Haqiqatda konkret nutq sharoiti tinglovchiga so'zlovchi aytayotgan voqea-hodisani tezroq, osonroq tushunishga yordam beradi, kommunikatsiyani tezlashtiradi
Verbal muloqot	Вербальное общение	Verbal communication	So'zlar yordamida sodir bo'luvchi muloqot
Noverbal muloqot	Невербальное общение	Non-Verbal communication	so'zlarni ishlatmaydigan muloqot turiga taalluqli bo'ladi
Paralingvistik ta'sir	Паралингвистическое влияние	Paralinguistic influence	bu nutqning atrofidagi uni bezovchi, uni kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi omillar

Verbal ta'sir	Вербальное влияние	Verbal influence	bu so'z va nutq orqali ko'rsatiladigan ta'sir
Proksemika	Проксемика	Proxemics	kishilarning muloqot davomida bir-biriga qarab, moslab ish tutishi va oraliq masofani tutishi
Ekstralingvistika	Экстралингвистика	Extralinguistics	G'azab, qo'rqish ancha baland ovoz bilan, qayg'u, g'am-g'ussa, horg'inlik odatda yumshoq pasaytirilgan ovoz bilan bildiriladi
Ovoz modulyatsiyasi	Модуляция звука	Voice modulation	ovozda kuchaygan ta'sirchanlikni rivojlantirilganda, boshqalarning xatti-harakatlarini anglay olishi
Lingvistika	Лингвистика	Linguistics	(frans. Linguistique – til) tilshunoslik va til bilimiga oid
Sinonim	Синоним	Synonym	ma'nodosh so'z, ikkita bir xil yoki bir-biriga yaqin tushuncha
Antonim	Антоним	Antonym	qarama-qarshi, zid ma'noli til (nutq) birliklari
Paronim	Пароним	Paronym	talaffuzi yaqin, shakli va ma'nosi har xil so'zlar
Anketa-so'rovnoma	Анкетирование	The questionnaire	(fran. Enquete-surishtirish, xabar, ma'lumot olish) tegishli ma'lumot olish, to'plash uchun belgilangan so'roq varaqasi, so'rovnoma
Kalka	Калька	Kalka	boshqa tillarga xos bo'lgan so'zlarni o'zgarishsiz o'zlashtirish

Dialektizmla	Диалектизм	Dialecticism	tilshunoslikning xalq lahja va shevalarini o'rganuvchi sohasi, shevashunoslik
Argo	Арго	Argo	tilshunoslikning xalq lahja va shevalarini o'rganuvchi sohasi, shevashunoslik
Metafora	Метáфoрa	Metaphor	so'z yoki iborani o'xshashlik yoki o'xshatishga asoslangan ko'chma ma'noda ishlatish va shunday ma'noda ishlatilgan so'z yoki ibora
Sinekdoxa	Синекдоxa	Synecdoche	butun narsani uning qismining nomi bilan, va aksincha, qismni butun narsaning nomi bilan atash
Kanselyarizm	Канцеляризм	Kanselyarizms	rasmiy uslubga xos so'z va birikmalar
Tovush	Звук	Sound	talaffuz etiluvchi va eshitiluvchi mavhum birlik

ADABIYOTLAR RO'YXATI

Asosiy adabiyotlar:

1. Abdurahmonova M., Fattaxova D., Xalmuxammedova U., Inogamova N.,
2. Egamberdiyeva N. O'zbek tili. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2018.
3. *Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N. Ish yuritish. – Toshkent, 2020.*
4. Muhiddinova X. S., Salisheva Z. I., Po'latova X. S. O'zbek tili.(Qayta ishlangan 2-nashri) – Toshkent, 2012.
5. Asqarova M., Yunusov R., Yo'ldoshev M., Muhamedova D. O'zbek tili praktikumi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: 2006.5. Hamidova Sh., Eshniyazova M. O'zbek tilining sohada qo'llanishi. Uslubiy qo'llanma. – Samarqand, 2022.
6. *Lutfullayeva D. Mustaqillik davri rasmiy-idoraviy ish uslublarining taraqqiyoti. –Toshkent, 2020.*
7. Lutfullayeva D.E. O'zbek tilining amaliy grammatikasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi. 2010.
8. Mahmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati. – Toshkent: O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008.
9. Qarshiboyeva Z., Shaymanova Y., Bozorova G. O'zbek tilining sohada qo'llanishi. Uslubiy qo'llanma. – Samarqand, 2023.
10. Bozorova G., Shaymanova Y., Qarshiboyeva Z. O'zbek tilining sohada qo'llanishi. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2023.
11. Yo'ldoshev I. J., Sharipova O'. Tilshunoslik asoslari. O'quv qo'llanma. - Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2007.

Qo'shimcha adabiyotlar:

2. Hojiyev A. O'zbek tili so'z yasalishi tizimi. – Toshkent: O'qituvchi, 2007.
4. Jumaniyozov R.. Nutqiy mahorat. – Toshkent: Adolat, 2005.
5. Jumaxo'ja N., Jomonov R.. Yangi o'zbek alifbosi va imlo qoidalari. –Toshkent, TDYUI nashriyoti, 2003.
6. Mahmudov N. Til tilsimi tadqiqi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2017.
7. Mahmudov N., Saidqulov Z va b. Komillik kaliti. – Toshkent: Ma'naviyat, 2016.

8. Mahmudova S.I. So‘z yasash san’ati. Oquv-uslubiy qo‘llanma. O‘zDSI nashri. 2004.
9. Mirtojiyev M. O‘zbek tili fonetikasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Universitet, 1998.
10. Mirtojiyev M. O‘zbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi. – Toshkent: Universitet, 2000.
11. Mualliflar jamoasi. Zamonaviy o‘zbek tili. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2008.
12. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zME. 1-5 jildlar
13. O‘zbek tilining kirill va lotin alifbolaridagi imlo lug‘ati. – Toshkent: Sharq, 2015.
14. Qodirov P. Til va el. – Toshkent: Ma’naviyat, 2010.
15. Rahmonov N., Sodiqov Q. O‘zbek tili tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston Faylasuflar Jamiyati 2004.
16. *Sadinova N. Ish yuritish terminlarining qisqacha izohli lug‘ati.* Toshkent, 2019.
17. Toirova G. Pragmalingvistika. O‘quv lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2016.
18. Toshaliyev I. Hozirgi o‘zbek tili uslubiyati. – Toshkent: Universitet, 2001.

Internet resurslar:

www.ziyonet.uz.
www.senat.gov.uz.
www.gov.uz.
www.lex.uz

MUNDARIJA

KIRISH	3
1-MAVZU. “DAVLAT TILI HAQIDA”GI QONUN VA UNING IJROSI. “O‘ZBEK TILI” FANINING MAQSADI VA VAZIFASI.....	5
2-MAVZU. “O‘ZBEKISTON – YAGONA VATAN”. GRAMMATIKA: O‘ZBEK TILINING TOVUSHLAR TIZIMI: UNLI TOVUSHLAR VA ULARNING IMLOSI.	9
3-MAVZU. “MENING UNIVERSITETIM”. GRAMMATIKA: O‘ZBEK TILINING TOVUSHLAR TIZIMI: UNDOSH TOVUSHLAR VA ULARNING IMLOSI.....	16
4-MAVZU. “VETERINARIYA ASOSLARI”. GRAMMATIKA: O‘ZBEK TILIDA BO‘G‘IN VA UNING TURLARI. BO‘G‘INGA AJRATISH VA KO‘CHIRISH QOIDALARI.	22
5-MAVZU. “VETERINARIYA TARIXIDAN”. GRAMMATIKA: O‘ZBEK TILINING ASOSIY IMLO QOIDALARI: ASOS VA QO‘SHIMCHALAR IMLOSI.....	27
6-MAVZU. “KASBIM – FAXRIM”. GRAMMATIKA: O‘ZBEK TILINING ASOSIY IMLO QOIDALARI: QO‘SHIB, AJRATIB, CHIZIQCHA BILAN YOZISH IMLOSI.	32
7-MAVZU. VETERINARIYA YO‘NALISHLARI”. GRAMMATIKA: O‘ZBEK TILINING ASOSIY IMLO QOIDALARI: BOSH HARFLAR IMLOSI.....	39
8-MAVZU. ““VETERINARIYA TERMINLARI”. GRAMMATIKA: LEKSIKOLOGIYA. SO‘ZNING BIR VA KO‘P MA‘NOLILIGI.	43
9-MAVZU. “O‘ZBEKISTON QO‘RIQXONALARI”. GRAMMATIKA: TILNING LEKSIK BOYLIGINING RIVOJLANISHI: ICHKI MANBA VA TASHQI MANBA.	47
10-MAVZU. “O‘ZBEKISTONNING HAYVONOT VA NABOTOT DUNYOSI”. GRAMMATIKA: SINONIMLAR VA ULARNING TURLARI: LEKSIK, FRAZEOLOGIK VA MORFOLOGIK SINONIMLAR.....	53
11-MAVZU. “KITOB MUTOLAASI – MA‘NAVIY KAMOLOTGA ERISHISH YO‘LI”. GRAMMATIKA: TILNING PAREMIOLOGIK FONDI.	59
12-MAVZU. “VETERINARIYA SOHASIDAGI YUTUQLAR”. GRAMMATIKA: SO‘Z YASALISHI.	63
13-MAVZU. “DAVRIMIZNING VETERINARIYA SOHASIDAGI GLOBAL MUAMMOLARI”. GRAMMATIKA: MUSTAQIL SO‘Z TURKUMLARI..	67
14-MAVZU. “O‘ZBEKISTONDA VETERINAR MUTAXASSISLARNI TAYYORLOVCHI OLIY O‘QUV YURTLARI”. GRAMMATIKA: KELISHIK QO‘SHIMCHALARI.	73
15-MAVZU. “TABIAT, INSON, SALOMATLIK”. GRAMMATIKA: EGALIK SHAKLLARI VA SON KATEGORIYASI.	80
016-MAVZU. “VETERINARNING KIYINISH MADANIYATI”. GRAMMATIKA: FE‘LLARNING TUSLANISHI.....	86

17-MAVZU. “HUQUQIY MADANIYAT. VETERINARIYA SOHASIGA OID ME’YORIY HUJJATLAR”. GRAMMATIKA: FE’LNING VAZIFA HAKLLARI.....	90
18-MAVZU. “O‘ZBEKISTONDA SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMI”. GRAMMATIKA: YORDAMCHI VA ALOHIDA OLINGAN SO‘ZLAR TURKUMI.	97
19-MAVZU. “HAYVONOT VA INSONIYAT OLAMI PSIXOLOGIYASI”. GRAMMATIKA: SO‘ZLARNING BOG‘LANISHI.....	103
20-MAVZU. “VATANPARVARLIK TUYG‘USI”. GRAMMATIKA: GAPDA SO‘ZLAR TARTIBI.....	108
21-MAVZU. “O‘ZBEK VETERINARLARINING SHUHRATI”. GRAMMATIKA: UYUSHIQ BO‘LAKLARNING MATNDA ISHLATILIS.....	112
22-MAVZU. “SHAXS MA’NAVIYATI”. GRAMMATIKA: UNDALMA VA UNING USLUBIY XUSUSIYATLARI	117
23-MAVZU. “RESPUBLIKAMIZDA VETERINARIYA FANINING RIVOJI VA YANGI ISTIQBOLI”. GRAMMATIKA: KIRITMALAR VA ULARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI.....	120
24-MAVZU. “INSONIY SIFATLAR”. GRAMMATIKA: SODDA GAP VA UNING TURLARI.....	124
25-MAVZU. “ONA – ENG YAQIN DO‘ST”. GRAMMATIKA: QO‘SHMA GAP VA UNING TURLARI.....	129
26-MAVZU“SO‘Z SEHRI”. GRAMMATIKA: KO‘CHIRMA VA O‘ZLASHTIRMA GAPLAR.....	133
27-MAVZU. “SOG‘LOM TURMUSH TARZI”. GRAMMATIKA: MATN VA UNING TURLARI.....	137
28-MAVZU. “KELAJAKKA YO‘L”. GRAMMATIKA: MATNNI KENGAYTIRISH VA TORAYTIRISH.....	143
29-MAVZU. “TARJIMAYI HOL”. GRAMMATIKA: NUTQ USLUBLARI VA USLUBIY BO‘YOQDORLIK.....	147
30-MAVZU. “SUHBAT ODOBI”. GRAMMATIKA: NUTQ MADANIYATI.....	151
GLOSSARIY.....	157

SHAYMANOVA YULDUZ TOSHNIYAZOVNA

O‘zbek tili

O‘quv qo‘llanma

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti Nashr matbaa markazi**

Nashr-matbaa faoliyatini amalga oshirish uchun O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 10.05.2024 y. № 273109
va 24.05.2024 y. № 283607-sonli tasdiqnomalar berilgan



Direktor
Muharrir
Tex. muharrir

J.Shukurov
L.Xoshimov
A.Umarov

ISBN: 978-9910-640-08-7

5752



Bosishga ruxsat etildi 27.12.2024 yil.

Qog‘oz bichimi 60x84 ¹/₁₆.

Times New Roman garniturasini.

Shartli hisob tabog‘i –10,5. Nashriyot hisob tabog‘i – 11,25

Adadi 30 nusxa. Buyurtma № 18/3

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

Nashr matbaa markazida chop etildi.

Samarqand sh., Mirzo Ulug‘bek k., 77

Tel. 93 359 70 98